



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

XITOY TILI TARIXI

fanidan

MA'RUZALAR MATNI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 120000– Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 5A120102 – Lingvistika

Toshkent – 2014

Tuzuvchi:

S.A.Nosirova– Xitoy filologiyasi kafedrası katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

A.A.Karimov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Konfusiý instituti direktori)

S.A.Xashimova - filologiya fanlari nomzodi (Xitoy filologiyasi kafedrası katta o‘qituvchisi)

Annotatsiya

Ushbu ma'ruzalar matni to'plami o'quv O'zR Oliy ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan O'quv uslubiy majmua davlat o'quv standartlarining barcha talab va me'yorlariga javob beradi. Ushbu fan magistratura bosqichi talabalariga bag'ishlangan.

Mazkur ma'ruzalar matni to'plami talabalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitishning yangi metodik tamoyillariga asoslanadi. Fanni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar usullaridan ya'ni tarjima, suhbat, baxs munozara, BBB, baliq skeleti metodlaridan foydalaniladi.

Ushbu ma'ruzalar matni to'plami 10ta ma'ruzani o'z ichiga qamrab olgan, har bir mavzudan so'ng savollar va topshiriqlar berilgan.

Kirish

“O‘zbekiston Xitoy timsolida mamlakatimiz mustaqilligining birinchi kunlaridan bizni qo‘llab-quvvatlab kelayotgan ishonchli, buyuk qo‘shni va hamkorni ko‘radi”.¹ Shu sababli O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Xitoy Xalq Respublikasi bilan bo‘lgan aloqalar alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi va XXR o‘zaro do‘stlik va hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashdan manfaatdor. XXR iqtisodiy va harbiy salohiyatini rivojlanishi va tinchliksevarlikka asoslangan tashqi siyosati uning xalqaro aloqalardagi obro‘ va e‘tiborini kuchayib borishida muhim omil bo‘lmoqda. Mamlakatlarimiz o‘rtasida 2006 yili do‘stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to‘g‘risidagi davlatlararo Shartnomaning imzolangani ikki tomonlama aloqalar tarixida muhim voqea bo‘ldi. Ushbu Shartnoma hamkorlikni uzoq muddatli asosda rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi va 20 yil mobaynida imzolangan 400 ziyod o‘zbek-xitoy shartnomalarini izchillik bilan amalga oshirish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Xitoy tilining xususiyatlari O‘zbekiston, MDX davlatlari, Yevropa va Amerika tilshunoslik ilmiy maktablari tomonidan ko‘p yillardan beri chuqur va har tomonlama o‘rganilib kelinmoqda. Masalan, Xitoy ta‘lim vazirligining ma‘lumotiga ko‘ra, hozirgi davrda jaxonnig 100 ziyod mamlakatlarida taxminan 30 mln. kishi xitoy tilini muntazam o‘rganish, hamda tahlil etish bilan shug‘ullanadi. Ammo hozirgi zamon xitoy tilidagi diplomatik atamalarni lingvistik tahlili nainki O‘zbekistonda, balki mashhur xitoyshunoslik ilmiy maktablarga ega bulgan Rossiya, AQSh, Germaniya, Angliya, Kanada va boshka rivojlangan davlatlarda ham amalga oshirilmagan. Shuni ko‘rsatib o‘tish joizki, Xitoy ilmiy adabiyotida ham ushbu sohaga bag‘ishlangan ilmiy ishlar sanoqli. Shu bilan birgalikda, Xalqaro tarjimonlar assotsiatsiyasining ilmiy jurnallarida ushbu soha hujjatlarini tarjima etishning ilmiy va amaliy asoslariga bag‘ishlangan chiqishlar anchagina. Diplomatik atamalar hozirgi zamon xitoy tilining ajralmas va muhim qismi bo‘lib, ularning xalqaro siyosiy, iqtisodiy, harbiy, madaniy, ilmiy va ijtimoiy sohalarga bo‘lgan ta‘siri o‘sib bormoqda. Xitoy BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a‘zosi, Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari hamkorlik tashkilotining ishtirokchisi, Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari tashkilotini 10+1 va 10+3 formatidagi ishtirokchisi, Shanxay hamkorlik tashkilotini asoschilaridan biri sifatida ham xalqaro sohada aktiv siyosat olib bormoqda. Xitoyni mintaqadagi va jahondagi rolini o‘sib borishiga asosiy omillar orasida, uning ohirgi chorak asr mobaynida jadal suratlar bilan rivojlanishi, iqtisodiyot, savdo, atom, koinot va ilm-fanni boshka sohalaridagi yutuqlarini ko‘rsatish mumkin. Albatta rivojlanayotgan Xitoy mintaqada va jahonda ijobiy o‘rin kasb etadi. Ammo bu masalani ikkinchi tomoni o‘laroq shuni ham ta‘kidlash kerakki, O‘zbekistonning yonida umumjahon siyosatida yildan - yilga muhim rol o‘ynayotgan baquvvat, mustahkam va o‘zining milliy manfaatlari uchun har qanday buyuk davlat bilan ham bellasha oladigan mamlakat vujudga kelmoqda. Demak, Xitoyning tashqi va ichki siyosatining rivojlanishi Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekistonga ham ta‘sir ko‘rsatmay qolmaydi. Bu ta‘sir ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin.

Qo‘shni Xitoy bilan teng va o‘zaro manfaatdorlikka asoslangan munosabatlarni taraqqiy ettirish zaminida, albatta xitoy tilini, hususan xitoy tilshunosligi, uning tarixini chuqur o‘rganish, ortirilgan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash katta ahamiyat kasb etadi.

Fanni o‘qitish jarayonida magistr xitoy tilshunosligining evolyusiyasi jarayonlari, xitoy leksikografiyasining mumtoz asarlari, fonetik-fonologik tadqiqotlar, grammatika va stilistika soahalaorida olib borilgan izlanishlar, tilshunoslik maktablari sohasidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

¹ Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т.№ 14 – Т.: Шарқ, 2006. – Б. 242

I Mavzu: Xitoy tilining tarixiy davrlarga bo'linishi

Darsning o'quv maqsadi: qadimgi xitoy tili davriylashtirilishi haqida, venyan tili rivoji, adabiy yodgorliklar, A.Maspero taklif etgan davrlashtirish sistemasi, Xitoy tilshunos olimi Van Li tomonidan «汉语史稿» (hànyǔ shǐgǎo) kitobida taklif etilgan davrlashtirish tizimi, Rossiyalik tilshunos olimlar esa asosan S.E. Yaxontov taklif etgan tasnifi, 文言文 wényánwén so'zining leksik-semantik tahlili, Venyanni o'rganishning ahamiyati, Venyan xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lish.

Tayanch tushunchalar: venyan, adabiy yodgorlik, arxaik xitoy tili, o'rta davr xitoy tili, zamonaviy xitoy tili

Xitoy tili tarixi 3000 ming yildan ko'proq davrni qamrab oladi. Ammo Xitoy tili tarixi haqidagi manbalarining kamligi va davrlashtirishdagi qiyinchiliklar sababli hozirgi paytgacha umumqabul qilingan xitoy tili tarixini tasnifi mavjud emas. Ba'zi xitoyshunos olimlar bu borada izlanishlar olib borgan bo'lib, ular tomonidan taklif etilgan davrlashtirish shartli bo'lib, qadimdan bizgacha yetib kelganlari ham adabiy yodgorliklar asosida amalga oshirilgan.

Xitoyshunoslikda A. Maspero ² taklif etgan davrlarga bo'lish modeli dunyo xitoyshunosligida yaxshi ma'lum. U xitoy tili tarixini 3 katta davrga bo'lgan, har bir davrni o'z o'rnida ilk va so'nggiga bo'lgan. Bu davrlashtirish kasriy ko'rinishga ega:

- 1) arxaik (qadimgi) xitoy tili: a) ilk arxaik (Xan davrigacha, ya'ni Miloddan avval III asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi); b) so'nggi arxaik (milodiy III asrigacha);
- 2) o'rta xitoy tili: a) ilk o'rta (milodiy IVdan VIII-IX asrgacha); b) so'nggi (XII asrgacha bo'lgan davr);
- 3) zamonaviy: a) ilk zamonaviy (XII-XVII asrlar); b) so'nggi (XVIII-XX asrlar);

Yana bir muqobil ko'rinishdagi davrlashtirish Xitoy tilshunos olimi Van Li ³ tomonidan «汉语史稿» ⁴ (hànyǔ shǐgǎo) kitobida taklif etilgan. U xitoy tili tarixini 4 davrga bo'lgan:

- 1) 上古期 (shànggǔqī) – ilk yozma manbalarda keltirilgan qadimgi xitoy tili, III asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Asosiy xususiyati: bo'lishsiz va so'roq gaplarda olmosh to'ldiruvchisi fe'ldan oldin joylashishi; shuningdek kirish ohangining (入声 ⁵ rùshēng) ikki turi mavjud bo'lganligi. Milodan avval. III va IV asrlar o'tish davrlari hisoblanadi;

- 2) 中古期 (zhōnggǔqī) – o'rta davr xitoy tili, m.a.IV-milodiy XII asrlarni qamrab oladi. Asosiy xususiyati 是(shì) bog'lamasi; olib chiqilgan to'ldiruvchili natija konstruksiyasi;

² Анри Масперо (1883-1945) – француз хитойшунос олим, Хиндихитой тиллари ва тарихи бўйича мутахассис. йирик асари: «Қадимги Хитой» (1927). Ушбу китоб қадимги Хитойнинг м.а. XII-IIIасрлари тарихи ва маданиятини ўз ичига олади.

³ Ванг Ли (王力) (1900-1986) Хитой тилшунос олим, 60 га яқин лингвистик асар муаллифи.

⁴ “Хитой тили тарихи таснифи” Пекин (北京) 1958.

⁵ Кириш оҳанги (入声) 4 оҳангдан бири. Замонавий хитой тили баъзи диалектларида (粤语-юэ, 吴语-у, 闽南语-мин) халигача сақланиб қолган, ammo путунхуа (хитой оғзаки адабий тили)да аллақачон муомаладан чиққан.

儿 (ér), 子(zǐ), 了(le), 着 (zhe) suffikslari (qo‘shimchalari); va pasayuvchi ohangning (去声 qùshēng)⁶ paydo bo‘lishi. O‘tish davri – XII-XIII asrlar;

3) 近代期 (jìndàiqī) – yangi xitoy tili, XIII-XIX asrlar (Afyun urushigacha bo‘lgan davr). Xususiyati: shimoliy shevada shunday atalmish “Xira undoshlar” (浊声母 zhuóshēngmǔ), -t bilan tugaydigan qofiyalar va kirish ohangining yo‘qolishi. O‘tish davri: 1840 yil (Afyun urushining boshlanishi)dan 1919 yil (“4 may” harakati)gacha bo‘lgan davr;

4) 现代期 xiàndàiqī – zamonaviy xitoy tili, XX asr boshidan to hozirgi davrgacha bo‘lgan jarayon. Xususiyati: g‘arb tillari grammatikasining ta’siri kuchayishi, hamda katta miqdorda ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning paydo bo‘lishi.

Van Li fikricha, eng asosiy mezon – grammatik tizimdagi o‘zgarish, Maspero esa buni fonetikadagi o‘zgarish deb hisoblaydi. Shunga qaramasdan, har ikki olim taklif etgan davrlashtirish bir-biridan katta farq qilmaydi.⁷

Rossiyalik tilshunos olimlar esa asosan S.E. Yaxontov⁸ taklif etgan tasnifni tan olishadi. Unga ko‘ra, xitoy tili tarixi quyidagicha bo‘linadi:

1) Mumtoz davrgacha bo‘lgan jarayon: Miloddan avval. V asrgacha yaratilgan ilk yozma yodgorliklar tili;

2) Mumtoz davr: Miloddan avval.V-III asrlar (Chjou sulolasi oxiri va Chin sulolasi) va qisman keyingi 4 asr (Xan sulolasi) davri, ya’ni milodiy II asrigacha yaratilgan yozma manbalar tili;

3) so‘nggi qadimgi: III-IV asrlar⁹;

4) o‘rta davr: IVdan XII-XIV asrlargacha;

5) zamonaviy.

Qadimgi xitoy tili ikkiga bo‘linadi:

1) qadimgi og‘zaki til – 雅言 (yǎyán)

2) qadimgi yozma til - 文言 (wényán), 白话 (báihuà)

Yayan – qadimgi davrlarda shunday atalgan qonun va me’yorlarga solingan og‘zaki til hisoblanadi. Yayan Miloddan avval. VII-VI asridan to milodiy III asrigacha (hammasi bo‘lib 10 asr atrofida) muomalada bo‘lgan. Kong Ingda (孔颖达)ning «Chjengven» kitobida quyidagicha yoziladi:

“雅言，正言也。”¹⁰ (Uǎyán, zhèng yán yě) – Ya tili Xitoyda ishlatilgan eng dastlabki og‘zaki til, zamonaviy putunxuaga to‘g‘ri keladi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, ya tili Chjou sulolasi davri mahalliy dialekt asosida yuzaga kelgan.¹¹

Konfusiyl¹² Lu davlatida o‘z maktabini ochgan va ilm o‘rgatgan. Uning 3000 nafar shogirdi Xitoyning turli tomonlaridan kelishgan edi. Darslarni Konfusiyl ya tilida olib borar edi. Gaplarimiz dalili sifatida quyidagi misolni keltiramiz:

⁶ Замонавий хитой тилидаги 4-оҳангга тўғри келади.

⁷ 8,33

⁸ Яхонтов Сергей Евгеньевич (1926 йда туғилган). Замонавий ва қадимги хитой тили грамматикаси, хитой тили тарихи, хитой диалектлари бўйича етакчи мутахассис. Хитойшунослик, Жануби-Шарқий Осий тиллари ва умумий тилшунослик бўйича, 80 дан зиёд илмий ишлари чоп этилган.

⁹ 9,7

¹⁰ Сихай (辞海), Шанхай, 2008, 1-жилд 509-б

¹¹ Чжоу сулаласи (м.а. XI аср – м.а. 221 йил). Пойтахти – Фэнгао шаҳри (丰镐) (ҳозирги Сиан шаҳрининг шимоли-ғарби)

“子所雅言，《诗》、《书》、执礼，皆雅言也。” (Zǐ suǒ yǎyán, 《Shī》、《Shū》、zhílǐ, jiē yǎyán yě) – Konfusiylar ma’ruzalarni ya tilida o’qirdi, qolganlar ham ya tilida gapirardi; «Shijing», «Shujing»¹³ ham shu tilda yozilgan.¹⁴

Qadimiy xitoy tili – “zamonaviy xitoy tili”ning ota-bobosi bo’lib, 1919 yil 4 may harakatidan¹⁵ oldingi tarixiy jarayondagi xan millatining umummilliy tili hisoblanadi.

Bu til zamonaviy xitoy tili bilan umumiy til asosiga ega, lug’atshunoslik va grammatika tuzilishi ham o’zaro moslashadi; biroq leksik tizim va og’zaki til nuqtai nazaridan zamonaviy xitoy tilidan katta farq qiladi. Qadimgi xitoy tili odatda kadimgi yozma tilni ifodalaydi, “**venyan**” va “**qadimgi bayxua**”¹⁶ni o’z ichiga oladi. U avvalgi davrlar tillari xususiyatlarini o’zida mujassamlashtirib, gohida o’ta murakkab g’oyalar yozma bayonining turli til usullarini ishlab chiqqan.

Venyan – Miloddan avval. VII-VI asrdan to 1919 yil 4 may harakatigacha (hammasi bo’lib 27 asr atrofida) ishlatilgan. Chin (er.avv III asr), Xan (er. avv. 206-eramiz 220) sulolalari davrigacha og’zaki nutqda ishlatilgan va bu sulolalardan keyin olimlar tomonidan shu til qofiyasida yozma shaklga keltirilgan tildir. Venyan Yayan (雅言) asosida vujudga kelgan.

Bahor va Kuz (Chunchyu), Jang filuvchi podshohliklar (Chjango)¹⁷ davrida qog’oz hali kashf etilmagan, yozuv bambuk taxtachalar, ipak va boshqa buyumlarga aks ettirilgan. O’sha paytlarda ham (hozirgidek) ipak juda qimmat bo’lgan. Bambuk taxtachalariga esa ko’p ierogliflarni sig’dirib bo’lmagandi. Shuning uchun bir o’ramga yanada ko’proq ma’lumotni sig’dirish uchun, unchalik muhim bo’lmagan qaydlarni o’chirib tashlashga to’g’ri kelardi.

Aytish mumkinki, venyan dunyodagi eng qadimgi *ixchamlashtirilgan yozuv turidir*. Keyinchalik “qog’ozdan” keng qo’lamda foydalanish boshlangandan so’ng, rasmiy xujjatlarni venyanda yozish odatiy tusga kirdi, bu esa o’sha davr odamlarini venyanni yanada yaxshiroq o’rganishiga turtki bo’ldi. Buning ustiga venyanda qo’lyozmalar yozish ancha tejamkor edi.

文言文 wényánwén so‘zining leksik-semantik tahlili. Bu so‘zdagi birinchi 文 wén - “yozma tilda yozilgan maqola” ma’nosini bildiradi. 言 yán – yozmoq, aks ettirmoq ma’nosini beradi. Oxirgi 文 wén – asar, maqola kabi ma’nolarni bildiradi.

文言文 – bu yozma tilda maqola yozmoq tarzida tarjima qilinadi. Demak, 文言文 – bu xitoy yozma adabiy tili.

Venyan og’zaki til va yozuvning madaniyat, tarix bilan bog’liqligini ham o’zida aks ettiradi. Til ko’pincha og’zaki muloqot vositasi bo’lgani uchun, real hayot bilan

¹² Конфуций - 孔子 (м.а.551-479) – Хитой буюк мутафаккир олими, донишманди, сиёсатшунос, педагог.

“Ружя” фалсафий мактаби ҳамда конфуцийчилик таълимотининг асосчиси. Унинг асосий ғоя ва қарашлари “Лунной” (Мулоҳазалар ва суҳбатлар) асарида ўз аксини топган. (Сихай 2-жилд 1176-б)

¹³ Бу асарлар ҳақида тўлиқроқ маълумот олиш учун мазкур ишнинг 23-бетига қаранг

¹⁴ 《Лунной·Шуэр》 (22,56)

¹⁵ 4 май ҳаракати (五四运动) – Хитой тарихида империяга қарши қаратилган йирик қўзғолон ҳаракати. 1919 йил 4 май Пекинда талабалар намоийиши билан бошланган. Бу ҳаракат Хитойда марксизм ғоясини тарқалишини тезлаштирди.

¹⁶ Қадимги байхуа – VII-VIII асрдан ҳозирги пайтга қадар (13 аср атрофида) муомалада бўлган. Доимо венян билан курашиб келган: 5 аср пассив, 8 аср актив кураш олиб борган. Байхуада асосан оммабоп адабиёт асарлари ёзилган, яъни у оддий халқ учун мўлжалланган мазмунан осон, содда, омма тушунадиган тилдир. 1919 йил 4 май ҳаракатидан кейин венян ўрнини байхуа эгаллаган. Байхуа – шимолий диалект асосида шаклланган бўлиб, оғзаки нутқга яқин бўлган ёзма тилдир. 白话文 báihuàwén – “содда тилда мақола ёзмоқ” маъносини англатади.

¹⁷ Шарқий Чжоу (М.а.771-221 йиллар) даври иккига бўлинади: 春秋 (Чунцю) ва 战国 (Чжанго)

chambarchas bog‘liq. Til hali madaniyat holatiga kirmagan ekan, u hayot an‘analarini davom ettirish vazifasini bajarolmaydi. Venyan esa allaqachon madaniyatga aylangan, desak adashmaymiz.

Venyanni o‘rganish jarayonida bizda xato fikr paydo bo‘lishi mumkin: qadimgi odamlar so‘zlashganda ham xuddi shunday, ya‘ni venyan matnlarida yozilgandek muloqot qilishganmi?

Aslida qadimgi xitoylar o‘z fikrini ifoda etishganda, bu fikrning yozuvda aks ettirilgan shakli va talaffuz qilingan shakli bir-biridan katta farq qilgan. Masalan, biror odamdan ovqat yegani haqida so‘ralganda, og‘zaki tilda: “吃饭了吗?” chī fàn le ma? (“Ovqat yedingmi?”) tarzida ifodalansa, xuddi shu savol yozma tilda (venyan): “饭否?” fàn fǒu? (“Ovqatlandingmi?”) ko‘rinishida bo‘lgan.¹⁸

Xitoyda qadimda yozilgan barcha asarlar yozma tilda bitilgan. Shuning uchun hozirda qadimgi xitoy tili “文言文” deb ataladi.

Venyan xitoy madaniyatining durdonasi, ota-bobolar xitoy xalqiga qoldirgan beqiyos boylikdir. Xitoy ta‘lim tizimi bo‘yicha o‘quvchilar o‘rta maktabdan boshlab venyanni o‘rganishadi. Bu esa xitoy xalqining o‘z tarixi va madaniyatiga bo‘lgan katta hurmati va qiziqishidan dalolat beradi.

Venyan juda rang-barang tildir. Xitoy an‘naviy madaniyatining asosiy qismi venyanda bitilgan. Bu esa 3000 yillik tarixni o‘z ichiga oladi.

Venyanni o‘rganishning ahamiyati. Venyan allaqachon muomaladan chiqqan, faqat yozuvda saqlanib qolgan, xolos. Ammo venyan yozuvi xali ham o‘rganiladi. Nima uchun?

Sababi esa venyanni bilish orqali Xitoy qadimgi va klassik davr badiiy yodgorliklarini haqiqiy ko‘rinishida mutoala qilish va ushbu manbalarning asl qadr-qimmatini his etish mumkin bo‘ladi.

Venyan ham bilim hisoblanadi. Xitoy tilini aks ettirish, tasvirlash, uning ichki tuzilishi, xususiyatlari venyanni o‘rgangan inson uchun yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Venyanda yozilgan matnlarni o‘qib mutola qilinganda xitoy tilining nafisligi, o‘ziga xosligi, Xitoy an‘nalari, madaniyati, tarixi his qilinadi.

Venyanni ichki tuzilishini o‘rganish orqali esa zamonaviy xitoy tilini yanada chuqurroq anglash, grammatik tuzilish va ba‘zi jumboqlar o‘z-o‘zidan yechimini topadi.

Venyan xususiyatlari. Venyan matnlarini o‘qish jarayonida ilmning o‘zgacha sehrini his etish mumkin. Sababi, venyanda maksimal kam belgilar (ierogliflar) orqali katta qo‘lamdagi tushunchalar aks ettirilgan. Zero ko‘rib chiqilganidek, u – dunyodagi eng dastlabki vujudga kelgan ixchamlashtirilgan yozuv turi.

Venyan: 不者，若属皆且为所虏。Fǒu¹⁹ zhě, ruò shǔ jiē qiě wéi suǒ lǔ.²⁰

Bayxua: 不这样的话，你们这一班人都将被他们俘虏。Bú zhèyàng de huà, nǐmen zhè yì bān rén dōu jiāng bèi tāmen fúlǔ.

Tarjimasi: Agar shunday yo‘l tutmasangiz, barchangiz ularning quliga aylanasisiz.

Yuqoridagi ikki til matnini tahlil quydagicha. Fikrni yozuvda aks ettirish uchun venyanda 9 ta belgi ishlatilgan bo‘lib, gap ixcham va qisqaligi bilan farq qiladi. Bayxuada esa anologik g‘oyani ochib berish uchun 18 ta (ikki barobar ko‘proq!) belgi ishlatilgan.

Zero, tilda venyan matnlarini tarjimasi o‘ta murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun bir qator venyanda yozilgan manbalarda tarixiy matnga bayxuadagi sharh ilova qilinadi.

¹⁸ 14,14

¹⁹ 不 инкор сўзи қадимги хитой тилида fǒu тарзида талаффуз қилинган. Замонавий хитой тилида bù тарзида ўқилади.

²⁰ «Тарихнома-Сянюй фаоляти бўлими»

Qo'yida venyanni zamonaviy tilga tarjima qilganda qaysi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozimligi haqida fikr boradi.

- avval butun matnni ko'zdan kechirib chiqish;
- asosiy g'oyani tushunib olish;
- tartib bo'yicha tarjimani boshlash;
- har bir gapni tarjima qilayotganimizda, u gapdan oldingi va keyingi gaplar mazmunini hisobga olgan holda tarjima qilish;
- ijodiy yondashish zarur, aks holda tarjima quruq va ma'nosiz chiqadi;
- odam, geografik nomlarni tarjimasini.

Zamonaviy Xitoyda qadimgi xitoy tili uslubidagi aforizm va shiorlar juda ommabop. Yuqorida Jinmen oroli qoyalariidan birida (XXR, Tayvan hududi) Chan Kay-shi²¹ chaqirig'i venyanda aks ettirilgan: "毋忘在莒" (Wú wàng zài Jǔ), "Yodingizdan chiqarmang, - (biz) Jyuy (shahri)damiz!"²².

Mavzu bo'yicha savollar:

- 1.Xitoyshunoslikda A. Maspero taklif etgan davlarga bo'lish modeli dunyo xitoyshunosligida qaysi jihatlari bilan mashxur?
2. Van Li tomonidan «汉语史稿» (hànyǔ shǐgǎo) kitobida taklif etilgan davrlashtirish qaysi qismlardan iborat?
3. Qadimgi xitoy tili qaysi qismlardan iborat?
4. Venyanni zamonaviy tilga tarjima qilganda qaysi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim?

Amaliy mashg'ulot vazifalari va savollari:

- 1.Sima Chien. "Tarixchi bitiklari" matnidan lavhaning asosiy mazmunini gapirib bering.
- 2.Venyan tilida faol qo'llaniladigan egalik kishilik olmoshlari qaysilar? Ularning zamonaviy xitoy tilida ekvivalentlari.
- 3.Qadimgi xitoy tilida qo'llanilgan ravishlar va ularning zamonaviy tilda ishlatilishi.

Mustaqil ta'lim vazifalari:

- 1.Sima Chien. "Tarixchi bitiklari" matnidan lavhani tarjima qiling.
- 2.Matnda uchragan kishilik olmoshlari, ravishlarni tahlilini amalga oshiring.

2 MAVZU. Venyanda yozilgan qomusiy yodgorliklar

Darsning o'quv maqsadi: «To'rt muqaddas devon» (四书) va «Besh muqaddas to'plam» (五经), «Dasyue», «Chjungyung», «Lunyuy», «Meng-zi», «Shijing», «Shujing», «Shangshu», «Shangshu»ning zamonaviy nusxasi, «Shangshu»ning qadimgi nusxasi, «Liji», «Ijing», «Chunchyu», «Zojuan», «Gongyang juan», «Gulyang juan», «Erya» xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lish.

Tayanch tushunchalar: klassik venyan tili, konfusiysunoslar, yozma adabiy yodgorliklar.

Klassik venyan davri adabiy yodgorliklari ichida konfusiysunoslar to'plami tarkibiga kirgan kitoblar alohida o'rin egallaydi. Ushbu to'plam 13 kitobni o'z ichiga oladi.²³

²¹ 蒋介石 (Jiǎng Jièshí) Цзянг Цзеши (1887–1975) – Хитой куролли кучлари қўмондони, генералиссимус,

мутафаккир давлат арбоби. 1925 йили Сонг Ятсен (孙逸仙 Sūn Yìxiān) ўлимидан кейин Гоминданг

партиясига бошчилик қилган. Умрининг охириги 26 йилини Тайванда ўтказиб, шу ерда вафот этган.

²² www.wikipedia.org

²³ Жанубий Сонг (1127-1270) даврида тўплам шаклига келтирилган 十三经 :

1. 《周易》 (м.а. XI-VIIIаср)

Konfusiysunos olimlarning 2 xil to‘plami mavjud:

«To‘rt muqaddas devon» (四书) va «Besh muqaddas to‘plam» (五经).²⁴

«To‘rt devon» Konfusiylar ta’limotini o‘rganuvchilar uchun birlamchi o‘quv qo‘llanmasi bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu manba majburiy o‘quv materiali sifatida qabul qilinib, ilmiy daraja bo‘yicha imtihonlarda foydalanilgan. O‘sha davr talablariga ko‘ra, ilmiy daraja nomzodi qadimgi faylasuflar tilida o‘z fikr-g‘oyalari ifoda etishi hamda «To‘rt devon»ni yoddan bilishi shart edi.²⁵ «Besh muqaddas to‘plam» esa rasmiy g‘oya va ta’lim tizimining asosi deb tan olingan.

«Sishu» (四书) quyidagi kitoblarni o‘z ichiga oladi:

1. «大学» Dàxué (Buyuk ta’limot)
2. «中庸» Zhōngyōng (Bilim o‘chog‘i)
3. «论语» Lùnyǔ (Suhbat va mulohazalar)
4. «孟子» Mèngzǐ (Meng-zi)

«Ujing» (五经)²⁶ quyidagi kitoblardan iborat:

- 1) «诗» Shī (She‘rlar);
- 2) «书» Shū (Tarix);
- 3) «礼» Lǐ (Marosimlar);
- 4) «易» Yì (O‘zgarishlar kitobi);
- 5) «春秋» Chūnqiū (Bahor va Kuzlar).

Bulardan tashqari quyidagi to‘rt asar ham 13 muqaddas devon tarkibiga kiritilgan:

- 1) «左传» Zuǒzhuàn (Zo Chyuming solnomasi);
- 2) «公羊传» Gōngyángzhuàn (Gongyang solnomasi);
- 3) «穀梁传» Gǔliángzhuàn (Gulyang solnomasi);
- 4) «尔雅» ěryǎ («Erya» lug‘ati).

«Dasyue»

-
2. 《周礼》 (m.a. XI-III asr)
 3. 《诗经》 (m.a. X-V asr)
 4. 《孝经》 (m.a. VIII-V asr)
 5. 《尚书》 (m.a. VI-V asr)
 6. 《左传》 (m.a. VI-V asr)
 7. 《论语》 (m.a. V asr)
 8. 《公羊传》 (m.a. V-III asr)
 9. 《谷梁传》 (m.a. V-III)
 10. 《仪礼》 (m.a. V-III asr)
 11. 《尔雅》 (m.a. V-II asr)
 12. 《礼记》 (m.a. IV-I asr)
 13. 《孟子》 (m.a. III asr)

²⁴ «Сишу» номланиши Сонг даврида (960-1270), «Ужинг» эса Хан даврида (м.а.206-эра миз 220) юзага келди.

²⁵ 8,40

²⁶ Олтинчи муқаддас китоб – 乐经 (Yuèjīng) – Мусиқа китоби. Маълумотларга кўра, м.а. 3 аср охирида Чин Шихуанг қатағонлари пайтида йўқолиб кетган.

«Dasyue» to‘qqiz muqaddas kitobdan biri bo‘lib, dastlab «Li» (礼) tarkibiga kirgan.²⁷ Taxminan Chin va Xan sulolalari arafasida (M.a.III-milodiy IIIasri) konfusiys hunoslar tomonidan yozilgan.

Manbalarga ko‘ra, bu kitobni Zengzi²⁸ yozgan. “Dasyue” 3 ta bo‘limdan iborat: bir jing (经) va ikki juan (传).

Song sulolasi davrida (960-1270) «Dasyue» «Lijing»dan yozib olingan. O‘sha davrda «Dasyue», «Lunyuy», «Meng-zi» hamda «Chjungyung» bilan bir qatorda o‘qitilgan. Janubiy Song (1127-1270) davri imperatori Chunsi²⁹ hukmronligi davrida Chjusi³⁰ «To‘rt devon devoni»ni yaratib, «Dasyue», «Chjungyung», «Lunyuy», «Meng-zi»ni birgalikda «Sishu» (To‘rt devon) deb ataydi.

«Chjungyung»

9 muqaddas kitobdan biri. Dastlab «Liszi» tarkibiga kirgan. An‘anaga ko‘ra, Kurashuvchi podsholiklar davrida (M.a.403-221) Zisi³¹ tomonidan yozilgan. Zamonaviy olimlarning fikricha, “Chjungyung” Chin davrida (M.a. 221-207) Meng-zi maktabi nomayondalari tomonidan tuzilgan. “Chjungyung”da o‘sha davrdagi ilm-fan taraqqiyotiga mos holda axloq qoidalari va tabiat qoidalari yoritilgan. Song sulolasi (960-1270) davriga kelib, u «Dasyue», «Lunyuy», «Meng-zi» bilan birgalikda «Sishu» deb nomlana boshladi.

«Lunyuy»

«Lunyuy» ham to‘qqiz kitobdan biri bo‘lib, Konfusiyl fikr-mulohazalarining to‘plamidir. 20 bo‘lim, 492 banddan iborat. Konfusiyl shogirdlari tomonidan Konfusiylning to‘g‘ridan-to‘g‘ri nutqi hamda ularning eshitganlari asosida tartibga solinib, yozilgan. Unda Konfusiylning suhbatlari, shogirdlarining savollariga javoblar hamda ular orasidagi bahs-munozaralar aks ettirilgan. Bu kitob 80 yil davomida yozilgan, ilk bor m.a. 4000 yilda paydo bo‘lgan.³²

Janubiy Song sulolasi imperatori Chunsi davrida (1174-1189) Chjusi uni «Dasyue», «Chjungyun» va «Meng-zi» bilan birlashtirib, «To‘rt devon» deb nomlaydi.

«Meng-zi»

«Meng-zi» to‘qqiz kitobdan biri bo‘lib, Kurashuvchi podsholiklar (m.a. 403-221) hukmronligining o‘rtalarida Meng-zi va uning shogirdlari Van Chjang (万章), Gong Songchou (公孙丑) va boshqalar tomonidan yozilgan. «Meng-zi»da Qadimgi Xitoy buyuk faylasufi Meng-zining³³ qarashlari aks etgan. «Xan kitobi» ning “Adabiyot va san‘at” bo‘limida (汉书:艺文志) «Meng-zi»ning 11 bobi kiritilgan bo‘lib, hozirgi kungacha 4 bobi saqlanib qolgan. An‘anaga ko‘ra, bulardan tashqari «Meng-zining begona kitobi» nomli to‘rt kitobi ham bor. Bu kitob hozirgacha yetib kelmagan.³⁴

²⁷ 22,682

²⁸ 曾子 (m.a.505-436) – Чунцю сулоласи даврида яшаган, Конфуций (孔夫子) шогирдларидан бири. Йирик мутафаккир олим. Давомчилари томонидан “зонгшэнг” (宗圣) - “авлиё” номи берилган. (Сихай, 4-жилд 2669-б)

²⁹ Чунси (淳熙) 1174-1189 йилларда ҳукмронлик қилган.

³⁰ Чжуси (朱熹) – (1130 - 1200) Хитой файласуфи ва тарихчиси, неоконфуцийчилик таълимоти асосчиларидан бири. (Сихай, 4-жилд 2812-б)

³¹ Зиси (子思) - (М.ав. 483-402) Чжанго даври файласуфи. Асл исми – 孔伋 (Kǒngjí), Конфуций набираси ҳисобланади. (Сихай, 4-жилд 2847-б)

³² 12,46

³³ Асл исми Мэнг Кэ (孟轲), (м.а. 372-289) яшаган қадимги Хитой файласуфи. (Сихай, 2-жилд 1460-б)

³⁴ Бугунги кунда «Мэнгзи бегона китоби» (孟子外书)нинг Минг Таоши томонидан ёзилган сохта нусхаси мавжуд. (22,683)

Kitobda Meng-zi va shogirdlarining hayotdagi turli vaziyatlarda; siyosat, ta'lim, falsafa sohalarida fikr va mulohazalari berilgan. Janubiy Song imperatori Chunsi hukmronligi (1174-1189) davrida Chjusi uni va «Lunyuy», «Dasyue» va «Chjungyung»ni birlashtirib, «Sishu» ga aylantirgan.

«Shijing»

«Shijing» (She'rlar devoni) – to'qqiz muqaddas kitobdan biri. M.a. XI-VII asrlarda shakllanib, VI-V asrlarda Konfusiyl tomonidan tahrir qilinib, to'plam sifatida nashr etilgan. 3000dan ortiq xalq qo'shiqlarini o'z ichiga olgan. Eng dastlabki she'r va qo'shiqlar to'plami hisoblanadi. Xalq, saroy va ibodat bilan bog'liq she'riyatni o'z ichiga oladi. Qadimda «Shi» deb nomlangan, konfusiylshunoslarning muqaddas devoni sirasiga kiradi. Hammasi bo'lib 305 bo'limdan iborat. «Shijing» quyidagi katta uch qismga bo'linadi:

1. «Feng» (风 Urflar)
2. «Ya» (雅 Odalar)
3. «Song» (颂 Qo'shiqlar)

«Feng» tarkibiga 15 ta Gofeng (国风 Davlat urflari); «Ya» tarkibiga «Daya» (大雅 Katta Ya) va «Syaoya» (小雅 Kichik Ya); «Song» tarkibiga «ChjouSong» (周颂), «LuSong» (鲁颂) va «ShangSong» (商颂) kiradi.

Shensi, Shansi, Xenan, Shandong va Xubey provinsiyalari hududlarida yaratilgan, deb taxmin qilinadi.

«Shujing»

«Shujing» («Naqlar devoni» yoki «Tarix devoni»). Boshqacha nomlanishi – «Shangshu» (尚书). Unda eng qadimgi, ya'ni m.a. XXIV-VIII asrlar tarixi aks ettirilgan. An'anaga ko'ra, Konfusiyl tomonidan m.a.V asrda yozilgan. Chin Shixuang(m.a.259-210)³⁵ tomonidan m.a. 213 yilda yondirib tashlangan, m.a. 178 yilda esa bu asarni yoddan bilgan mashhur olim Fu Sheng tomonidan qisman tiklangan.

«Shangshu»

«Shangshu» («Tarix devoni»)ning yana bir nomi «Shu» va «Shujing»dir. «Shangshu» 9 muqaddas kitobdan biri hisoblanadi. Bu kitobda Xitoydagi qadimiy tarixiy xujjatlar va qadimda mashhur bo'lgan kitoblarning to'plami berilgan. An'anaga ko'ra, Konfusiyl tomonidan tahrir qilingan. Aslida esa ayrim qismlari, jumladan, «Yaodyan» (尧典), «Gaotaomou» (皋陶谟), «YuyGong» (禹贡), «Xongfan» (洪范) kabilar konfusiylshunos olimlar tomonidan to'ldirilgan. «Shangshu»ning qadimgi va zamonaviy tilda yozilgan nusxalari mavjud.³⁶

«Shangshu»ning zamonaviy nusxasi

28 bobdan iborat. Ma'lumotlarga ko'ra, Konfusiyl tomonidan tuzilgan, lekin «Yaodyan», «Gaotaomou», «YuyGong», «Xungfan» kabi boblarning barchasi keyinchalik konfusiylshunoslar tomonidan to'ldirilgan. G'arbiy Xan sulolasi davrida³⁷ eng dastlabki nusxasi Fu Sheng tomonidan yozib qoldirilgan, ierogliflar lishu³⁸ husnixat turida yozilgan.

«Shangshu»ning qadimgi nusxasi

³⁵ 秦始皇帝 Асл исми – Инг Чженг (嬴政). Чин сулоласи асосчиси. Хукмронлик йиллари - м.а. 246 - 210 йиллар. (Сихай, 3-жилд 1700-б)

³⁶ 22,683

³⁷ М.а. 206 – эрамининг 25 йиллари

³⁸ 隶书 Лишу – 4 асосий хуснихат услубларидан бири. Расмий ёзув. Ўзига хослиги – иероглифларнинг квадрат кўринишида бўлиши.

Yana bir nomi «Ishu» (逸书) bo'lib, «Shangshu»ning turlaridan biridir. «Xanshu»da yozilishicha, Xan davri imperatori Udi³⁹ hukmronligining oxirgi yillarida Lyuyuy degan odam Konfusiylashagan xonadonning devoridan bu kitobni topib olgan. «Shangshu»ning qadimgi nusxasi zamonaviy nusxasiga qaraganda 16 bobga ko'proq. Buning sababi Chin va Xan davridan oldin foydalanilgan «Guven» (古文⁴⁰)da yozilganidir. Sharqiy Xan sulolasi olimi Dulinning⁴¹ ta'kidlashicha, Zeng Dechi (曾得漆)ning kitobi «Qadimgi Shangshu»ning asl nusxalaridan biridir. Barcha mumtoz konfusiylashunos olimlar buni asl nusxa sifatida tan olishgan, zamonaviy konfusiylashunoslardan Veyyuan (魏源)⁴², Gongzi Chjen (龚自珍)⁴³, Kang Yuvey (康有为)⁴⁴ va boshqalar bu nusxani qalbaki deb hisoblashadi.

«Li» («礼») 3 qismdan iborat:

1. «Ili» («仪礼»⁴⁵)
2. «Chjouli» («周礼»)
3. «Liszi» («礼记»)⁴⁶

«Liji»

«Liji» (礼记) - «Marosimlar» yoki «Nizomlar» haqidagi qaydlar. M.a. IV-I asrlar davomida turli mualliflar tomonidan yozilgan. Turli marosimlar va jamiyatda o'zini tutish qoidalari haqida bayon qilingan. «Liji»ni bilmagan kishi hech qanday lavozimga tayinlanishi mumkin bo'lmagan va madaniyatli hisoblanmagan. Keyinchalik neokonfusiylashunoslar davrida (XII asr) «To'rt devon» (四书) muallifi Chju Si unga «Liji»ning ikki bo'limi: «Chjungyung» (中庸) va «Da syue» (大学)ni kiritgan.

«Ijing»

«Ijing» (易经)ning yana bir nomi – «Chjouli», qisqartirilgan nomi – «I». «O'zgarishlar kitobi» deb ham ataladi. To'qqiz muqaddas kitobdan biri. G'arbiy Chjou sulolasi davrida (m.a. XI-VIII asr) yozilgan deb taxmin qilinadi. Tarkibida «Jing» (经) va «Juan» (传) ikki bo'lim aks etgan. «Jing» asosan 64 ta trigramma⁴⁷ va 384 izohdan iborat. Har bir izoh va trigrammaga sharh ilova qilinadi, ular fol ochish uchun ishlatilgan.

Qadimgi an'anaga ko'ra, Fusi⁴⁸ trigrammani chizadi, Venvang⁴⁹ esa ularga izoh beradi. Bu kitobning ilk ko'rinishi In davlatining tugatilishi va Chjou sulolasi arafasida yaratilgan. «Juan» (

³⁹ 汉武帝 (м.а.156-87) – Ғарбий Хан сулоласи императори. Хукмронлик йиллари – м.а.140-87.

⁴⁰ Қадимги Ин ёзуви. Хитой ёзувининг энг қадимги кўриниши бўлиб, тошбақа косаси ва ҳайвонлар суякларида акс эттирилган (жягувен). Улар оркали қадимги одамлар турли маъбуд, аجدодлар руҳига мурожаат қилишган, фол очишган

⁴¹ 杜林 (?-47) - Шарқий Хан даври таниқли абабиётшунос олими. Асл исми – Бошан (伯山) (Сихай, 1-жилд 478-б)

⁴² Вэйюан (1794-1857)

⁴³ Гонгзи Чжен (1792-1841)

⁴⁴ Кангю Вей (1858-1927)

⁴⁵ Бу асарни Конфуций яратган деб тахмин қилинади.

⁴⁶ 8,40

⁴⁷ 卦 guà – триграмма. Учта яо (爻)дан иборат алоҳида белги. www.wikipedia.org

⁴⁸ 伏羲 Fúxī – Хитойнинг энг биринчи афсонавий императори, Шарқ хукмдори. Паоси (庖牺), Тайхао (太昊) деб ҳам аталган. Афсоналарга кўра, инсон бошли ва аждаҳо Тангали мавжудот тарзида тасвирланган. Конфуцийшунослик ҳисоби бўйича м.а. 2852-2737 йиллари (ҳаммаси бўлиб 115 йил) хукмронлик қилган. Унинг турмуш ўртоғи – маъбуда Нюйва. (Сихай, 1-жилд 599-б)

传) bo‘limi «Jing»ga berilgan ilk izoh hisoblanadi, 10 bo‘limdan iborat, shu sababli umumiy nomi «O‘nlik» (^{shí yì} «十翼»)dir. Ilk manbalarga ko‘ra, bu kitobni Konfusiylar yaratgan. Hozirgi zamon olimlarining izlanishlariga ko‘ra, bu kitob Kurashuvchi podsholiklar davri oxirgi yillari yoki Chin va Xan sulolalari arafasida konfusiylar olimlar tomonidan yozilgan. “Chjoui” ilk Xan davrida uning ikki xil qo‘lyozma nusxasi bo‘lgan.



Fusi trigramma va toshbaqa bilan birga
(伏羲坐像)

«Chunchyu»

«Chunchyu» (春秋) – Qadimgi Xitoyning ensiklopedik yodgorligi. Lu mamlakati (鲁国) yilnomasi bo‘lib, Xitoyda ilk yaratilgan solnoma asar hisoblanadi. M.a.III asrda Chin podsholigi davrida yaratilgan. Xitoy tarixi va falsafasi bo‘yicha qimmatbaho manba hisoblanadi.⁵⁰

«Chūnqīū» dagi matnlar o‘ta ixchamlashtirilganligi sababli (matn hajmi 16257 ieroglif), bularga izohlar uning «左传» (Zuǒzhuàn), «公羊传» (Gōngyángzhuán), «穀梁传» (Gǔliángzhuán) nomli bo‘limlarida berib o‘tilgan.

«Zojuan»

«Zojuan» (左传) («Zo Chyuming solnomasi») Ma’lumotlarga ko‘ra, Zo Chyuming (左丘明)⁵¹ tomonidan yozilgan. Asarda m.a. 722-468 yillardagi voqealar tafsiloti berilgan. Asar matnlari esa asosan m.a. IV asrda tuzilgan, keyinchalik qayta to‘ldirilgan va tahrir qilingan. Shundan keyin «Zojuan» konfusiylar olimlar tomonidan muqaddas kitoblardan biri,

⁴⁹ 文王 Wénwáng (周文王 Zhōu Wén Wáng – Ўқимишлилар Қироли) Туғилганда берилган номи - Чжоу Зичан. М.а. XII асрда яшаб ўтган. Чжоу вилояти (удел) ҳокими бўлган. Афсонага кўра, Хитойда интелегенцияни бошлаб берган инсон. (Сихай, 4-жилд 2221-б)

⁵⁰ 8,39

⁵¹ Цзо Цюминг –Чунцю (м.а. 722-481) даврида яшаган тарихшунос олим. Анъанага кўра, иккала кўзи ожиз бўлган. Конфуций шогирдларидан бири, ҳамда унинг замондоши. (Сихай, Шанхай, 2008, 4-том 2878 бет)

ya'ni «春秋» (Chunchyu)⁵² kitobiga sharh deb tan olingan va konfusiysunoslar manbalaridan biriga aylandi.

«Gongyang juan»

«Gongyang juan» (公羊传) yoki «Chunchyu Gongyang juan», «Gongyang Chunchyu» («Gongyang Gao solnomasi») – konfusiysunos olimlarning muqaddas devonidan biri. «Chunchyu» kitobiga sharh bo'lib, Kurashuvchi podsholiklar davrida (m.a. 403-221) Gongyang Gao⁵³ tomonidan yozilgan. Dastlab faqat og'zaki tarzda tarqatilgan, Xan sulolasi (m.a.206-milodiy 220) boshlariga kelib kitob shakliga aylantirilgan. Lu Ingong⁵⁴ hukmronligining 14-yilidan boshlab (m.a.722y), to Lu Aygong⁵⁵ hukmronligining 14-yiligacha (m.a.481y) bo'lgan tarixiy jarayondagi voqealar tafsilotlari bayon etilgan.

«Gulyang juan»

«Gulyang juan» (穀梁传) yoki «Chunchyu Gulyang juan», «Gulyang Chunchyu» («Gulyang Chi solnomasi») – bu ham konfusiysunos olimlarning muqaddas devonidan biri. Kurashuvchi podsholiklar davrida (m.a. 403-221) Gulyang Chi⁵⁶ tomonidan yozilgan. Dastlab faqat og'zaki tarzda tarqatilgan, G'arbiy Xan sulolasi (m.a.206-milodiy 25) davriga kelib kitob shakliga aylantirilgan. Lu Ingong hukmronligining 14-yilidan boshlab (m.a.722y), to Lu Aygong hukmronligining 14-yiligacha (m.a.481y) bo'lgan tarixiy jarayondagi voqealar tafsilotlari bayon etilgan. Kitobdagi sharhlar savol-javob ko'rinishida bo'lib, «Chunchyu»ning "prinsipial mohiyati"ni ochib berishga qaratilgan. Mazmunan «Gongyang juan» sharhiga yaqin.

«Erya»

«Erya» (尔雅) – Xitoy tarixida ilk yaratilgan izohli lug'at bo'lib, u bir necha yuz yilliklar davomida ko'plab olimlar tomonidan ishlanib kelingan.⁵⁷ Taxminan m.a. V-II asrda yozilgan. Zamonaviy nusxasi 19 bo'lim, 4300 so'zdan iborat. Mazkur leksikografik asarda so'zlar tematik guruhlarga ajratib beriladi. Masalan: tog'ga oid so'zlar, samoga oid so'zlar, suvga oid so'zlar va h.k.

«Erya» asari Tang va Song sulolalari⁵⁸ davriga kelib, konfusiysunos olimlarning 13 muqaddas kitobidan biriga aylandi. «Erya» lug'ati Xitoy xalqiga qoldirilgan bebaho madaniy boylik hisoblanadi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. «To'rt muqaddas devon» (四书) va «Besh muqaddas to'plam» (五经)
2. Xitoy ierogliflari soni haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish.
3. Xitoy ieroglifi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish.
4. Taoven xusnixatlari haqida tushunchalar hosil qilish.
5. Jaguven xusnixati bo'yicha ilmiy tushunchalarga ega bo'lish.
6. Shoven jiezi lug'atida keltirilgan ierogliflar sonini o'rganish.

Amaliy mashg'ulot uchun savollar

⁵² Қадимги Лу подшолиги солномаси (м.а. 722-479 йиллар)

⁵³ 公羊高 Gōng Yánggāo – Курашувчи подшоликлар даври (м.а.V-III аср) Чи мамлакати ёзувчиси. Анъанага кўра, Зися (Конфуций набираси)нинг шогирди. (Сихай, 1-жилд 683-б)

⁵⁴ 鲁隐公

⁵⁵ 鲁哀公

⁵⁶ 穀梁赤 Gǔ Liángchì - Курашувчи подшоликлар даври (м.а.V-III аср) Лу мамлакати олими. Анъанага кўра, Зися (Конфуций набираси)нинг шогирди. (Сихай, 1-жилд 708-б)

⁵⁷ 32,509

⁵⁸ Танг 唐 (618-907), Сонг 宋 (960-1279)

1. "Yuy pyan" (余篇) lugʻati va "Kangshi zidyan" (康熙字典点) lugʻatida keltirilgan ierogliflar soni haqida maʼlum tushunchalarni hosil qilish.
2. "Jungxua da zidyan" (中华大字典) va "Xanyuy da zidyan" (汉语大字典) lugʻatlar ierogliflar soni haqida statistik maʼlumotlarga ega boʻlish.
3. Ierogliflarning koʻpayib borish sabablari xususida aniq tasavvurni paydo qilish.
4. Xitoy tarixida ierogliflarni koʻpayishiga qarshi olib borilgan rasmiy hujjatlar haqida maʼlumotlarni toʻplash.
5. Ierogliflar soni boʻyicha yozilgan tarixiy manbalarni oʻrganish.
6. Buddizm adabiyotidan. "Orzular duri" matni.

Mustaqil taʼlim uchun savol va topshiriqlar

1. Ieroglifik yozuvning paydo boʻlishi.
2. Ieroglifik yozuvning son jihatdan koʻpayib borishi.
3. Ieroglifik yozuvning takomillashuvi masalalari.
4. "Taoven" (陶文) xusnixati va undagi ierogliflar soni.
5. "Jagoven" (阡古文) xusnixati va undagi ierogliflar soni.
6. Ieroglifik yozuv tarixida "Shoven jiezi" (首问戒子) lugʻatining oʻrni.

3 MAVZU. QADIMGI XITOIY TILINING LEKSIK TUZILISHI

Darsning oʻquv maqsadi: «Sho ven sze zi» (说文解字) lugʻati, "Tōngjiāzì" hodisasi:

Tovushdoshlar almashinuvi, Shengmudoshlar almashinuvi, Qofiyadosh boʻgʻinlar almashinuvi, Soʻz maʼnosining oʻzgarishi, soʻz maʼnosining kengayishi, soʻz maʼnosining torayishi, soʻz maʼnosining koʻchishi haqida maʼlumotga ega boʻlish.

Tayanch tushunchalar: «Sho ven sze szi», 通假字 tōngjiāzì, 古今字 gǔjīnzì,) 同源字 tóngyuánzì, 连绵字 liánmiánzì, soʻzlar moslashuvi.

Chjao Kechinning «Qadimgi xitoy tili leksikologiyasi» (古代汉语词汇学) kitobi 15-betida yozilishicha: "Xitoy yozuvi – belgili yozuv turiga kiradi. Har bir ieroglif maʼlum bir shakl, oʻqilish va maʼnoga ega. Aytish mumkinki, nazariy jihatdan, ieroglif soʻzga teng boʻlishi mumkin."

Milodiy 121 yilida Syuy Shen⁵⁹ «Sho ven sze szi» (说文解字)⁶⁰ lugʻatini tuzadi.

Olim 10000ga yaqin ierogliflarni oʻrganib chiqib, ieroglif shakli asosida uning maʼnosi va kelib chiqishini tushuntirdi. «Sho ven sze zi» – Qadimgi Xitoyda yaratilgan eng yirik filologik asar hisoblanadi. Bu lugʻatda soʻzning faqatgina bitta maʼnosi keltiriladi, yaʼni asl maʼnosi (本义).

Demak, bu leksikografik asar Xitoyda yaratilgan eng dastlabki lugʻat koʻrinishi, desak xato boʻlmaydi. Albatta «Sho ven sze zi» lugʻatida qayd qilingan soʻz maʼnolari xatoliklardan holi emas. Oʻsha paytlarda tushunchalar koʻp, ierogliflar esa kam boʻlgan. Baʼzi tushunchalarga nisbatan alohida ierogliflar kashf qilinmagan bir paytda, shu tushunchani ifodalash uchun boshqa ierogliflardan foydalanilgan. Masalan: «Sho ven sze zi»

⁵⁹ 许慎 Xǔshèn (58—147) Шаркий Хан даври иероглифшунос, тилшунос, адабиётшунос олими. (Сихай, 4-жилд 2413-б)

⁶⁰ "Сўзлар таҳлили ва белгилар изоҳи". Унда 10000га яқин иероглиф 540та калит (部) бўйича тизимга келтирилиб, таҳлил қилинган. (Сихай, 3-жилд 1977-б)

lug‘atida “易” (yì – oson) ieroglifi tushunchasini ifodalash uchun “蜥蜴” (xīyì – kaltakesak) tasviriy-rasm turkumiga (象形字 xiàngxíngzì) tegishli ieroglifdan foydalanilgan.

Qadimgi xitoy tili 2-shaxs olmoshi dastlab “女” (nǚ – ayol) ieroglifi bilan ifodalangan. Keyinchalik suv kaliti⁶¹ bilan yoziladigan “汝” (rǔ)ga o‘zgardi. Oxir-oqibat zamonaviy shakl, ya’ni 你(nǐ) tarzida shakllandi.



«Sho ven sze zi» (说文解字) lug‘ati

Asrlar mobaynida ieroglifning ma’nolari ko‘paydi, shakl hamda ma’no bir-biridan ajraldi, ieroglif va so‘z har xil ko‘rinishga keldi. Ierogliflarning rivojlanishi va o‘zgarishi oqibatida leksik tizimda ham o‘zgarishlar yuzaga keldi.

Bu esa o‘z navbatida qadimgi xitoy tili leksikasida quyidagi to‘rt hodisani keltirib chiqardi:

- 1) 通假字 tōngjiǎzì – o‘zlashtirilgan ierogliflar (公^{gōng} o‘rniga 功^{gōng}, 果^{guǒ} o‘rniga 敢^{gǎn});
- 2) 古今字 gùjīnzì – qadimgi zamonaviy ierogliflar (莫^{mò} va 暮^{mù}, 两^{liǎng} va 辆^{liàng}, 原^{yuán} va 源^{yuán}, 要^{yào} va 腰^{yāo});
- 3) 同源字 tóngyuánzì – qardosh ierogliflar⁶² (浓^{nóng} va 衣^{nóng}, 张^{zhāng} va 涨^{zhàng});
- 4) 连绵字 liánmiánzì – juft (birikmali) ierogliflar⁶³ (玲珑^{línglóng}, 参差^{cēncī}, 蜈蚣^{wúgōng}, 妯娌^{zhóulǐ}, 匆匆^{cōngcōng}, 津津^{jīnjīn}).⁶⁴

“Tōngjiǎzì” hodisasi

Syu Shen «Sodda yozuv va murakkab belgilar sharhi» “Syuy” (叙) bo‘limida yozadi: “本无其字，依声托事，令长是也”. (Běn wú qí zì, yī shēng tuō shì, lìng zhǎng shì yě.) – Aslida bu hodisani anglatuvchi yozuv (ieroglif) mavjud emas, shuning uchun bu so‘zga

⁶¹ “Бихуа, яъни нукта ва чизиқлар – иероглифларни ташкил қилувчи энг кичик бирликдир, калит эса бихуалардан ташкил топган каттароқ бирликдир”. (5,74)

⁶² Дублет, яъни ўқилиши ўхшаш ёки яқин, маъноси ўхшаш ва келиб чиқиши бир бўлган иероглифлар. Бир хил тушунчани касб этувчи иероглифлар. (29,261)

⁶³ Икки бўғинли, ажралмас сўзлар. Улар бир хил товушли (匆匆 cōngcōng), ўхшаш товушли (玲珑 línglóng), ва ҳар хил товушли (蜈蚣 wúgōng) уч кўринишга эга.

⁶⁴ 16,16

tovushdosh yoki o'xshash tovushli boshqa ieroglifni olib, u yordamida aloqador so'z ifodalangan.⁶⁵

Tōngjiǎzì (通假字)⁶⁶ – qadimgi yozma tilda ba'zi ierogliflarni yozish jarayonida ularning o'rniga shu ierogliflar bilan talaffuzi bir xil yoki o'xshash bo'lgan boshqa ieroglifni yozish. Qadimgi yozma tilda tovushi bir xil yoki o'xshash bo'lgan ierogliflar boshlang'ich ieroglifni o'rniga ishlatilishi, bir xil tovushli so'zlar yoki yaqin tovushli so'zlar yozma belgilari orasidagi almashinish hodisasidir.

Masalan, “蚤” zǎo (burga) ieroglifidan foydalanib “早” (zǎo) ya'ni “tong” ma'nosi ifodalangan. Bu yerda “蚤” qarzga olingan yoki o'zlashtirilgan ieroglif deb ataladi; almashilgan “早” esa boshlang'ich ieroglif deyiladi.⁶⁷

Tōngjièzi usulining quyidagi turlari mavjud:

1) **Tovushdoshlar almashinuvi** (o'zlashtirilgan so'z va boshlang'ich so'z bir xil o'qiladi). Masalan “蚤” zǎo orqali “早” ni ifodalash; 堂 táng (joy) orqali 棠 táng (familiya) ni ifodalash;

2) **Shengmudoshlar almashinuvi** (o'zlashtirilgan va boshlang'ich so'z yunmusi har xil, lekin shengmusi o'xshash⁶⁸). Masalan, “培” péi (tarbiyalamoq) orqali “憑” píng (suyanmoq, asoslanmoq) ma'nosini ifodalash; “果” guǒ (meva) orqali “敢” gǎn (jur'at qilmoq) ni ifodalash;

3) **Qofiyadosh bo'g'inlar almashinuvi** (o'zlashtirilgan va boshlang'ich so'z shengmusi har xil, lekin yunmusi o'xshash). Masalan, “伶” líng (san'atkor) orqali “伸” shēn (chiqarmoq) ma'nosi, “崇” chóng (e'zozlamoq) orqali “终” zhōng (oxirat) ma'nosi ifodalanishi.

Bunday so'zlar qadimgi yozma tilda ko'p uchraydi, ammo keyingi davrga borib asta-sekin kamaygan. Zamonaviy xitoy tilida umuman uchramaydi.

2-2. So'z ma'nosining o'zgarishi

Xitoy tilidagi so'zlarning qadimgi va zamonaviy ma'no tushunchalari.

Qadimgi xitoy tilida shunday so'zlar borki, ular hozirgi kunga qadar ma'nosi o'zgarmagan. Misol uchun, 人 rén – odam, 大 dà – katta, 小 xiǎo – kichik, 飞 fēi – uchmoq va hokazo, bu xitoy tilining asosiy lug'at boyligidir. Ba'zi so'zlar qadimda mavjud, ba'zi hodisalarning yo'qolishi va nomi o'zgarishi sababli, hozirga kelib allaqachon muomaladan chiqib ketgan, masalan, “甬” yǒng (Chjeszyan provinsiyasi, Ninbo shahrining qadimdagi nomlanishi), “诸侯” zhūhóu (knyazlar, feodallar) kabilar. Bu hodisa **so'zlar moslashuvi** deb ataladi. Ba'zi so'zlar esa qadimda va hozirda ishlatilib, biroq so'z ma'nosi o'zgarishga uchragan, shuning uchun agar ularni zamonaviy xitoy tiliga asoslanib tarjima qilsak, ba'zi xatoliklar kelib chiqishi muqarrar. So'z ma'nolari o'zgarishini tahlil qilib chiqib, quyidagi xususiyatlarni ajratdik:

⁶⁵ 16,230

⁶⁶ “Tōngjièzi” (通借字) деб ҳам аталади.

⁶⁷ 21,113

⁶⁸ Хитой тилида бўғин иккига бўлинади: 1. Шенгму (声母) – бўғин бошида келувчи ундош товуш. 2. Юнму

(韵母) – бўғиннинг шенгмудан кейинги бўлаги.

1) so‘z ma’nosining kengayishi.

1. “江” jiāng

Qadimgi xitoy tilida Changjyan – Yanzi (长江 Chángjiāng) daryosini ifodalagan. Masalan, «Chunchyu» (春秋) asarida yozilishicha: “楚人有涉江者。”⁶⁹ Shǔ rén yǒu shè jiāng zhě (Chu mamlakatida bir odam qayiqqa o‘tirib, Yanzi (Chanjyan) daryosidan suzib o‘tdi).

Zamonaviy xitoy tilida “江” keng ma’noda daryo va daryolar ma’nosida qo‘llaniladi.

2. “脸” liǎn

Qadimgi xitoy tilida chehraning yonoq suyaklari qismi (颧骨部分 quángǔ bùfen) ma’nosini anglatgan. Masalan, «Po Chjen-zi» (破阵子 pòzhènzǐ)⁷⁰ asarida keltiriladi: “笑从双脸生”. Xiào cóng shuāng liǎn shēng (Uning ikki yonog‘idan tabassum taralardi)

Hozirgi paytda “脸” so‘zi ma’nosi kengayib, chehra (面部 miànbù) ma’nosida keng qo‘llaniladi.⁷¹

3. “响” xiǎng

Qadimgi xitoy tilida aks-sado (回声 huíshēng) ma’nosini ifodalagan. Masalan, «Shuyjing chju» (水经注)⁷² nomli asarda quyidagi satrlarni o‘qishimiz mumkin: “常有高猿长啸，属引凄异，空谷传响，哀转久绝”. Sháng yǒu gāo yuán cháng xiào, shǔ yǐn qī yì, kōng gǔ chuánxiǎng, āi zhuǎn jiǔ jué (Bu yerda maymunning qichqirishi tez-tez eshitilib turadi, tovushi juda o‘tkir va g‘amgin, Kong tog‘lari orasida aks-sadoni eshitish mumkin, bu ma’yus ohang ancha vaqtgacha davom etadi).

Zamonaviy xitoy tilida “响” keng ma’noda tovush (声音 shēngyīn) ma’nosini anglatadi.⁷³

2) so‘z ma’nosining torayishi.

1. “金” jīn

Qadimgi xitoy tilida barcha metallarning (金属 jīnshǔ) nomlanishini bergan. «Syun-zi»ning “Ta’lim-tarbiya nazariyasi” bo‘limida (荀子·劝学)⁷⁴ shunday deyiladi: “金就砺则利”. Jīn jiù lì zé lì (“Metallni chax toshida chaxlasa, u o‘tkir bo‘ladi”).⁷⁵

⁶⁹ 21, 485

⁷⁰ Шимолий Сонг сулоласи (960-1127) даврида яшаган Хитой шоири Ян Шу 晏殊 (991-1055) томонидан ёзилган. (32,2467)

⁷¹ 34, 972

⁷² Шимолий Вэй сулоласи (386-557) географшунос олими, ёзувчиси Ли Даюан 酈道元 (Тахминан 470-527) қаламига мансуб асар. (Сихай, 2-жилд 1272-б). «Шуйжинг чжу» (Сувлар тўғрисидаги китоб) – энг қадимги географик асарлардан бири. Хитой сув тизимлари (дарёлар) ҳақида ёзилган.

⁷³ 34,1712

⁷⁴ «Xúnzǐ» (荀子) – Чжанго даври таникли мутаффакири, файласуфи, педагоги Сюн-зи (Тахминан м.а.313—238) қаламига мансуб фалсафий асар. (32,2435)

⁷⁵ 34, 799.

Zamonaviy xitoy tilida oltin (黄金 huángjīn) ma'nosida ishlatiladi.

2. “宫” gōng - qadimgi xitoy tilida uy-joy, xonadon (房屋 fángwū) ma'nosini anglatgan. Masalan, «Chjango se» (战国策)⁷⁶ asarida yozilishicha: “父母闻之，青宫除道”. Fùmǔ wén zhī, qīng gōng chú dào. (Uning ota-onasi bu xabarni eshitgach, xonadon hamda hovlini tartibga keltirishdi.) Zamonaviy xitoy tilida 宫殿 gōngdiàn , ya'ni saroy ma'nosida ishlatiladi.⁷⁷

3. “臭” xiù

Qadimgi xitoy tilida xid, is (各种气味 gèzhǒng qìwèi) ma'nosini anglatgan. Masalan,

(1) «Ijing» (易经): “同心之言，其臭如兰”. Tóng xīn zhī yán, qí xiù rú lán. (Rost gap go'yoki xushbo'y orxideya kabi yoqimlidir.)⁷⁸

(2) Dufu (712-770)⁷⁹ she'ridan misol keltiramiz:

朱门酒肉臭 Zhū mén jiǔ ròu xiù,

路有冻死骨 Lù yǒu dòng sǐ gǔ.

Boy uyidan go'shtu sharob hidi taralar,
Yo'l bo'yida muzlab qotgan suyak murdalar.

Zamonaviy xitoy tilida “臭” yoqimsiz xidli, badbo'y ma'nosini bildirib, sifat so'z turkumiga oid va ko'picha chòu tarzida o'qiladi.

3 so'z ma'nosining ko'chishi.

1. “去” qù

Qadimgi xitoy tilida “离去” líqù (tashlab ketmoq, tark etmoq) ma'nosini bildirgan. Misol uchun, «Shijing»ning “Veyfeng Shoshu” bo'limida (诗经•魏风•硕鼠) yozilishicha: “逝将去女，适彼乐土”. Shì jiāng qù nǚ, shì bǐ lè tǔ (“Men qasam ichib aytamanki, seni tashlab, obod yerlarga ko'chib ketaman”)⁸⁰.

Zamonaviy xitoy tilida “往” wǎng, ya'ni bormoq ma'nosini ifodalaydi.

2. “涕” tì

Qadimda “眼泪” yǎnlèi (ko'z yoshlari) ma'nosini anglatgan. Masalan,

«Zojuan» (左传) da yozilishicha: “藏叔入，哭甚哀，多涕”. Záng shū rù, kū shèn āi, duō tì. (Zang amaki kirib keldi, u juda g'amgin edi, ko'zlaridan daryo-daryo yosh oqardi.)⁸¹

Zamonaviy xitoy tilida 鼻涕 bítì (burun suyugligi) ma'nosida keladi.

3. “盗” dào

Qadimgi xitoy tilida o'g'ri (小偷 xiǎotōu), o'g'irlamoq (偷窃 tōuqiè) ma'nolarini bildirgan. Masalan, «Zojuan» da hikoya qilinadi: “窃人之财，犹谓之盗”. Qiè rén zhī cái, yóu wèi zhī dào. (Birovlarning boyligini o'g'irlydigan odam o'g'ri deyiladi.)⁸²

⁷⁶ «Курашувчи подшоликлар» солномасида ушбу давр (м.а. Vаср-221й) воқеалари акс этган. (32,2678)

⁷⁷ 34,473

⁷⁸ 22,267

⁷⁹ 杜甫 Dùfǔ – Танг даври (唐代) таниқли шоири. Асл исми Зимей (子美)

⁸⁰ 22,378

⁸¹ 22,566

⁸² 22,527

Hozir qaroqchi, bosqinchi (强盗 qiángdào) ma'nosida qo'llaniladi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Ierogilifik yozuv tarixida "Shoven jiezi" (首问戒子) lug'atining o'rni.
2. Tōngjiǎzì (通假字) deganda nimani tushunasiz, misollar keltiring.
3. 古今字 gǔjīnzì deganda nimani tushunasiz, misollar keltiring.
4. 同源字 tóngyuánzì deganda nimani tushunasiz, misollar keltiring.
5. 连绵字 liánmiánzì deganda nimani tushunasiz, misollar keltiring.

Amaliy mashg'ulot vazifa va savollari:

1. Buddizm adabiyotidan. "To'qqiz ranngli jayron" matni.
2. Matnni grammatik tahlilini amalga oshiring, Tōngjiǎzì (通假字) hodisasi qo'llanilishiga ahamiyat bering.

Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar

1. "Yuy pyan" (余篇) lug'ati haqida ma'lumot bering..
2. "Kangshi zidyan" (康熙字典点) lug'atining tarixiy ahamiyati haqida ma'lumot bering.
3. "Jungxua da zidyan" (中华大字典) lug'ati haqida ma'lumot bering .
4. "Xanyuy da zidyan" (汉语大字典) lug'ati haqida ma'lumot bering.

4 MAVZU. Venyanda polisemiya hodisasi (Ko'p ma'noli so'zlarning leksik-semantik tahlili)

Darsning o'quv maqsadi: “予” ieroglifi, “骑” ieroglifi, “数” ieroglifi, “说” ierogliflarning semantikasi. Qadimgi xitoy tilida tutgan o'rni va grammatik vazifalari, ehtirom va kamtarlikni bildiruvchi so'zlar haqida ma'lumotga ega bo'lish.

Tayanch tushunchalar: polisemiya, leksik-semantik tahlil, ehtirom va kamtarlik so'zlari.

Xitoy tilida bir so'z ko'pincha bir qancha ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Ba'zi paytda polisemiyaga uchragan so'zlarning o'qilishi ham turlicha bo'ladi. Bu holat qadimgi xitoy tilida nisbatan ko'p uchraydi.⁸³

1. “予” ieroglifi:

1) yú - “men”;

«Feng Vanchjen» (冯婉贞 féngwǎnzhēn)⁸⁴ asaridan quyidagi iqtibosni keltiramiz:

“瞻予马首可也。” Zhān yú mǎ shǒu kě yě - “Mening otimning harakatlariga qara” (ma'nosi “Mendan aslo ko'zingni uzma, buyruqlarimni bajar”).

2) yǔ - “bermoq”.

«Tarixnoma» “Linsyang Ju faoliyati”⁸⁵ bo'limida (史记·蔺相如列传 shǐjì • Lìn Xiàngǒu lièzhuàn) yozilishicha:

⁸³ Ушбу параграфда келтирилган барча мисоллар “Тудай ханюй сидян” (古代汉语词典 – Қадимги хитой тили луғати), Нанкин (南京) 2007 дан олинган.

⁸⁴ Чинг (清) даври (1644-1911) шоири Сюйке (徐珂 1869-1928) томонидан ёзилган асар.

“欲予秦，秦城恐不可得” Yù yǔ qín, qín chéng kǒng bù kě dé (“Biz o‘ylaymizki, Chinlar bizdan talab qilgan nefritni ularga topshirgan taqdirda ham, ular o‘z va’dasi ustidan chiqmay, bizga shaharni qaytarib berishmaydi”.)



“Shiji” (Tarixnoma)ning kirish qismi

2. “骑” ieroglifi:

1) qí - “minmoq”;

«Tarixnoma» (史记) da hikoya qilinishicha:

“吴骑此马五岁，所当无敌” Wú qí cǐ mǎ wǔ suì, suǒ dāng wú dí (“Mana 5 yildirki, barcha janglarda bu ot mening ajralmas do‘stim bo‘lib kelgan, aynan shu otim tufayli shu paytgacha yengilish nimaligini bilmayman”)

2) jì - “otliq askar”.

«Tarixnoma» “Syangyuy tarjimai holi” (史记·项羽本纪) bo‘limida yozilishicha:

“乃令骑下马步行”。Nǎi lìng jì xià mǎ bù xíng. (“Buyruq beraman, otliq askarlar otidan tushib, piyoda harakatlansin”.)

3. “数” ieroglifi:

1) shù – “noaniq miqdor”;

2) shǔ - “sanamoq”;

«Tarixnoma» “Chenshe shijya” (陈涉世家) bo‘limida yozilishicha:

“楚兵数千人为聚者，不可胜数”。Chǔ bīng shù qiān rén wéi jù zhě, bù kě shèng shù (“Qo‘zg‘olon ko‘targan bir necha ming Chu askarlari to‘da hosil qilishdi, bu holatda ularni hisoblab chiqish juda ham qiyin edi”)

Bu gapda birinchisi “数” shù o‘qiladi, keyingisi esa shǔ.

3) shuò - “ko‘p marotaba”.

⁸⁵ “Шижи” (Тарихнома) – Хан сулоласи 汉代 (м.а. 206-эрамизнинг 220) тарихшунос олими Сима Чян (司马迁 Sīmǎ Qiān Тахминан м.а.145 (135)-90) каламига мансуб асар. М.а. 109-91 йиллар давомида ёзилган бу китобда яримфсонавий Сариқ император 黄帝 (м.а.2600)дан то Хан сулоласи давригача бўлган тарих акс этган. 5 боб, 130 бўлимдан иборат. Бу боблар қуйидагилар: 1. Бенжи (本纪 běn-jì) – ҳукмдорлар таржимаи ҳоли (12 бўлим). 2. Ши-жя (世家 shì-jia) – оқсуяк ва амалдорлар таржимаи ҳоли (30 бўлим). 3. Ле-жуан (列传 liè-zhuàn) – буюк шахслар таржимаи ҳоли (Лао-зи, Мо-зи, Сюн-зи) (70 бўлим). 4. Шу (书 shū) – маросимлар, мусиқа, иқтисод каби ўша давр долзарб мавзулари (8 бўлим). 5. Бяо (表 biǎo) – хронологик жадваллар (10 бўлим).

«Uchpodsholik»⁸⁶ kitobining “U davlati hukmdorlari” bo‘limida (三国志·吴书) yozilishicha: “数犯边境”。Shù fàn biān jìng (“U davlatining chegarasiga ko‘p marotaba noqonuniy bostirib kirishgan”)

4. “说” ieroglifi:

1) shuō - “darak bermoq, tushuntirmoq”;

«Syun-zi» “Chjengming” (荀子·证明) bo‘limida yoziladi:

“说不喻然后辨”。Shuō bú yù rán hòu biàn (“Tushuntirganda ham tushunmagan bo‘lsa, isbot keltirib haqiqatni ochib berish lozim”) 。

2) shuì - “ko‘ndirmoq”;

«Kurashuvchi shohliklar» (战国策 zhànguó cè) da hikoya qilinadi:

“触龙说赵太后”。Chùlóng shuì zhào tài hòu (“Chulong qirolichani ko‘ndirdi”) 。

3) yuè - “hursand”.

«urushqoq davlatlar» (战国策) da yozilishicha:

“秦王不说”。Qín wáng bú yuè (“Chin knyazi g‘amgin ko‘rinardi”.)

Ko‘pgina hollarda bitta ieroglifning turlicha o‘qilishi faqatgina ohang har xilligida aks etadi, masalan “予” yú va yǔ bo‘lib o‘qiladi. Lekin shunday holatlar ham borki, bunda shengmu har xilligi kuzatiladi, masalan “骑” qí hamda jì o‘qiladi; yoki yunmulari har xil, masalan “数” shù va shuò ikki hil o‘qiladi. Shuningdek shengmu va yunmusi har xil bo‘lgan so‘zlar ham bor: “说” shuō va yuè o‘qiladi.

Bundan tashqari, ba’zi so‘zlar garchi ko‘p ma’nolarga ega bo‘lsa-da, ammo o‘qilishi o‘zgarmaydi. Masalan: “因” yīn fe’l bo‘lib kelganda “an’anani davom ettirmoq” ma’nosini bildiradi; ravish bo‘lganda esa “sababli” ma’nosini bildiradi; old ko‘makchi bo‘lib kelganida “tufayli” ma’nosini anglatadi, ammo hamma vaqt yīn bo‘lib o‘qiladi.

Yuqorida keltirilgan o‘qilishi bir xil, biroq ma’nosi har xil bo‘lgan so‘zlar ma’nosini aniqlashda qadimgi va zamonaviy xitoy tilida anglatgan ma’nolariga ahamiyat berish zarur, lug‘at bilan ishlaganda ham venyan hamda bayxua tillariga asoslanib har tomonlama mos bo‘lgan ma’noni tanlash maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz.

Ehtirom va kamtarlikni bildiruvchi so‘zlar

Qadimgi xitoy tilida o‘zgalarni atash uchun mo‘ljallangan so‘zlar guruhi – ehtirom so‘zlari (敬称 jìngchēng yoki 尊称 zūnchēng) deb ataladi. Inson o‘z-o‘zini atash uchun qo‘llaydigan so‘zlar guruhi esa – kamtarlik so‘zlari (谦称 qiānchēng) deyiladi. Bu ikki guruh so‘zlari qadimda keng ishlatilgan, lekin keyinchalik ancha kamaygan.⁸⁷

⁸⁶ «Sānguózhì» (三国志) – Ғарбий Жин (西晋 265-316) сулоласи тарихшунос олими Ченшоу (陈寿 233-297) томонидан ёзилган. 65 бўлимдан иборат бўлиб, Учподшолик – Вэй (魏), Шу (蜀) ва У (吴) мамлакатлари тарихига бағишланган. (32,1799)

⁸⁷ 18,119

Ehtirom so‘zlari Xitoy tilida 敬称 jìngchēng (ba’zida 敬语 jìngyǔ) deb ataladi. Bunday so‘zlar o‘zgalarga nisbatan qo‘llaniladi. Qadimgi xitoy tilida 2-shaxs kishilik olmoshi “汝” rǔ, “尔” ěr bo‘lgan, 3-shaxs kishilik olmoshlari “彼” bǐ, “其” qí, “之” zhī kabilar bo‘lgan.

Biroq hurmat, iltifotni ifodalaganda ko‘pincha ehtirom so‘zlaridan foydalanilgan. Bunda hurmat quyidagicha ifodalangan:

- 1) hukmdorga: “王” wáng – qirol;
“君” jūn – hukmdor;
“陛下” bìxià – janobi oliylari.
- 2) yuqori lavozim egalariga⁸⁸:
“将军” jiāngjūn – qo‘mondon;
“大夫” dàifu – vazir va boshqalar;
“卿” qīng – amaldor;
“大夫”⁸⁹ dàfu – ziyoli, ulamolar.
- 3) yoshi kattaroq va obro‘-e’tiborli odamlarga:
“夫子” fūzi – er;
“先生” xiānshēng – janob.
- 4) oddiy odamlarga: “子” zǐ.⁹⁰

Kimsani atashning yana bir usuli bu – hurmatni ifodalovchi ravishlardan foydalanish, ya’ni fe’ldan oldin hurmat-ehtirom bildiruvchi sifatlashlar (epitet) qo‘llanilgan. Bulardan ko‘p uchraydiganlari quyidagilar: “敬” jìng – sharafiga ega bo‘lmoq; “谨” jǐn – ehtirom ila. Masalan:

«Tarixnoma» ning “Chenshe shijya” (史记·陈涉世家) bo‘limida yozilishicha: “敬受命”.
Jìng shòu mìng (Buyrug‘ingizni qabul qilish baxtiga muyassarman).

«Tarixnoma» ning “Syangyuy tarjimai holi” (史记·项羽本纪) bo‘limida: “谨诺”
Jǐnnuò ! (Labbay!).

Bundan tashqari “请” qǐng – iltimos, “幸” xìng – umid qilmoq, “辱” rǔ – xorlamoq, yerga urmoq, “惠” huì – saxovat ko‘rsatmoq kabi so‘zlar hurmat ma’nosini kuchaytirishda xizmat qilgan.

“请” o‘zgalardan biror ishni qilishga ruhsat so‘ralganda ishlatilgan. “幸”, “惠” qarama-qarshi tomondan ezgulik, rozilik olmoqni ifodalaydi. “辱” esa kamsitishni eshitmoq, ranjimoqni ifodalaydi.

Kamtarlikni bildiruvchi so‘zlar shuningdek (谦称 qiānchēng) kamtarin atamalar deb ham ataladi. Ular inson o‘z-o‘zini ifodalaganida ishlatilgan.

⁸⁸ Юқори лавозимни эгаллаган шахсларга нисбатан уларнинг лавозим номлари ишлатилган.

⁸⁹ Хитойда Бахор ва Куз (Чуньцю эр.авв 770-476) даврида жамият ижтимоий қатламларига бўлинган бўлиб, оқсуяклар синфига кировчи 3 қатламдан бири - 大夫 бўлган. (诸侯 чжухоу (княз) →大夫 дафу (уламо) →士 ши (зиёли)). Замонавий хитой тилида 大夫 dàifu ўқилиб, “шифокор” маъносида қўлланилади.

⁹⁰ 子 қадимда эркакларга нисбатан ишлатилган эҳтиром сўзи, ўзбек тилидаги –жон суффиксига тўғри келади

Odatda yoshi ulug‘ insonlar yoki tengdoshlar bilan murojaatda kamtarlikni bildiruvchi so‘zlardan ko‘p foydalanilgan. Quyidagi usullar orqali ifodalangan:

Birinchi usul: 1-shaxs kishilik olmoshlari o‘rniga kamtarlikni ifodalovchi maxsus atamalarni qo‘yish. Masalan:

a) hukmdor o‘zini “寡人” guǎrén – biz, “孤” gū – yolg‘iz, g‘arib kabi nomlar bilan atagan.

b) hukmdorga nisbatan yoshi ulug‘ insonlar yoki uning tengdoshlari o‘zini “臣” chén – sizning qulingiz, “愚” yú – tentak, “仆” pú – xizmatkoringiz, “小人” xiǎorén – pastkash, “鄙人” bǐrén – qulingiz deb atashgan. Ba’zi birlar o‘zini ismi bilan ham atashgan.

Ikkinchi usul: kamtarlikni bildiruvchi ravishlardan foydalanish, ya’ni fe’ldan oldin kamtarlikni ifodalovchi maxsus so‘zlarni ishlatish, ko‘pincha “窃” qiè – pinhona, “敢” gǎn – jur’at etmoq. “窃” pinhona fikrni ifodalaydi, bu fikr noto‘g‘ri bo‘lishi ham mumkin.

Masalan, Li Sining (?-M.a.208)⁹¹ «Jyanchju keshu» (谏逐客书) asarida yozishicha:

“臣闻史议逐客卿，窃以为过矣”。 Shén wén shǐ yì zhú kè qīng, qiè yǐ wéi guò yǐ.

(Eshitishimcha, saroy ayonlari muxojirlarni mamlakatdan chiqarib yuborishni taklif qilishibdi, mening (pinhona) fikrimcha, bunday chora qo‘llash noto‘g‘ri) .

“敢” gǎn – o‘z munosabatining erkinligini bildiradi. Masalan, «Zojuan»ning “Ingong”⁹² hukmronligining birinchi yili” (左传•隐公元年) bo‘limida yozilishicha:

“敢问何谓也”。 Gǎn wèn hé wèi yě (So‘rashga ijozat bersangiz, bu nima degani?)⁹³.

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Xitoy tilida polisemiya hodisasiga misollar keltiring va izohlang
2. Qadimgi xitoy tilida qaysi so‘z turkumlari, qaysi ierogliflarda polisemiya hodisasi yaqqol ko‘zga tashlanadi?
3. Qadimgi xitoy tili matnlarida qanday ehtirom va kamtarlik ma’nosidagi so‘zlarni uchratish mumkin?

Amaliy mashg‘ulot vazifa va savollari:

1. Gan Bao. “Ruhlarni izlash qadnomalari” matni
2. Matnni grammatik tahlilini amalga oshiring, polisemiya hodisasi qo‘llanilishiga ahamiyat bering.

Mustaqil ta’lim uchun savol va topshiriqlar

1. V-asrda yaratilgan “To‘rt ohang notasi” va zamonaviy ohangning o‘xshash va farqli tomonlari.
2. Sun Min haqida ma’lumotlar yig‘ish va tarjima qilish.

5 MAVZU. Venyan tilida murojaat shakllarida 多义词

Darsning o‘quv maqsadi: Murojaat shakllarini tanlashda ob’ektiv omillar: ijtimoiy kelib chiqish, yosh, so‘zlovchi va tinglovchining jinsi; ham sub’ektiv omillar: so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan yondashuvi (neytral hurmat, yuqori darajadagi hurmat, ataylab insonni g‘ururiga, nafsoniyatiga tegish, insonni kamsitish, hafa qilish) ga amal qilinishi shakllari. O‘zini atash shakllari (suhbat jarayonida) haqida ma’lumotga ega bo‘lish.

⁹¹ 李斯 Lǐ Sī – Чин даври давлат арбоби, Чин Шихуангнинг биринчи вазири. (32,1252)

⁹² 隱公 Yǐngōng (722-712) Чунцю даври, Лу подшолигида (魯, хозирги Шандонг) хукмронлик қилган.

⁹³ 22,486

Tayanch tushunchalar: murojaat shakllari, ob'ektiv omil, neytral darajadagi hurmat, o'zini atash shakllari.

Qadimgi xitoy tilida bitilgan matnlarning o'ziga xos xususiyatlarini yaqqol ko'rsatuvchi ifoda shakllari - murojaat so'zlaridir. Qadimgi Venyan tilida murojaatning ifoda shakllari xilma-xil va hozirgi xitoy tiliga nisbatan ancha ko'p bo'lganligi ilmiy asarlarda keltiriladi.⁹⁴

Murojaat shakllarini tanlashda ko'plab ham ob'ektiv omillar: ijtimoiy kelib chiqish, yosh, so'zlovchi va tinglovchining jinsi; ham sub'ektiv omillar: so'zlovchining tinglovchiga nisbatan yondashuvi (neytral, hurmat, yuqori darajadagi hurmat, ataylab insonni g'ururiga, nafsoniyatiga tegish, insonni kamsitish, hafa qilish) ga amal qilingan. Shu munosabat ila, sub'ektiv omillardan kelib chiqib, murojaatning neytral, hurmat, kamsitish shakllari mavjud bo'lgan. Bir xil shakldagi ibora, murojaat so'zi har hil vaziyatlarda ham hurmat ham hurmatsizlik tarzida, hattoki kamsitish shaklida qabul qilinishi mumkin bo'lgan. Masalan, 汝⁹⁵ ru *sen* murojaat shakli lavozimi bir xil insonga yoki yoshroq insonga nisbatan qo'llanilishi neytral murojaat sifatida qabul qilingan, ushbu murojaat shaklining lavozimi yuqoriroq insonga nisbatan qo'llanilishi esa kamsitish, bepisandlik ma'nosini bildirgan. Agar inson suhbat davomida o'zini yoshlikdagi ismi bilan atab o'zga kishi bilan gaplashsa – bu so'zlashuvning hurmat kategoriyasini bildirgan, lekin shu vaqtning o'zida suhbat qurayotgan insonni ismi bilan chaqirish yuqori darajadagi hurmatsizlik belgisi hisoblangan. Shuning uchun ham qadimgi Venyan tilida bitilgan matnlarni tarjima qilishda avvalombor so'zlashuv shakli, so'zlashuv vaziyati haqida tushuncha bo'lishi shart – darajasi teng lavozimdagi insonlar suhbatimi, quyi daraja lavozimidagi inson yuqori daraja lavozimdagi insonga qarata murojaat qilinayaptimi, yoki anksincha, bu sohadagi ma'lumotlar tarjima jarayonida birlamchi omillar sifatida gavdalanadi. Kishilik olmoshlaridan tashqari murojaat shakllari ma'nosida lavozim, unvon, qarindoshlik munosabatlarini bildiruvchi so'zlar ham qo'llanilgan.

Inson so'zlashuv jarayonida o'zini atash uchun ishlatiladigan shakllar ham turlicha bo'lgan: masalan, atoqli otlar va ayrim o'ziga hos ot so'z turkumidagi so'zlardan keng foydalanilgan: 臣⁹⁶ chen *xizmatchi*, qo'l ostidagi kishi, 亲⁹⁷ qie *kanizak*, 僕⁹⁸ pu *faqir, xizmatkor* va h. Ba'zi murojaat shakllari universal xarakterda bo'lgan. Masalan, inson har qanday vaziyatda o'zini kishilik olmoshi bilan atashi urf bo'lgan. Ba'zi murojaat shakllari faqat ma'lum bir jamiyat guruhi doirasida qo'llanilgan. Masalan, faqatgina knyaz o'zini 寡人 *gua ren man*, *yolg'iz man*; imperator o'zini 朕⁹⁹ zhen *Tanho Men* kabi so'zlar bilan atashi mumkin bo'lgan. Ba'zi bir sifatning murojaat shaklida birikib kelishi murojaatning hurmat darajasini yanada oshirgan (大 *da buyuk*, 明 *ming ziyoli*). O'zini atashga qaratilgan so'zlar ko'pincha kamsitish xarakterga ega bo'lgan sifat bilan ishlatilgan: 遇 *yu aqlsiz*, 不肖 *hech narsaga yaramaydigan*. Bu kabi sifatlar murojaat shakli o'rnida yoki suhbat jarayonida so'zlovchining o'zini o'zi nomlashi uchun xizmat qilgan va ko'pincha bunday murojaat shakllarida ot so'z turkumidagi so'zlar tushirib qoldirilgan.

O'zini atash shakllari (suhbat jarayonida). Har qanday inson boshqa-bir inson bilan so'zlashganda o'zini 五 *wu men*, 我 *wo men*, 子 *zi sen* kabi kishilik olmoshlari bilan atagan. Bu so'zlashuvning neytral shakllari hisoblangan. Hurmat ma'nosidagi so'zlashuvda so'zlovchi

⁹⁴ 简明唐诗本。- 北京、1990.- 97 页

⁹⁵ (书) 你。现代汉语词典，2002 年，1076 页

⁹⁶ 官使对皇帝上书或说话的自称。现代汉语词典，2002 年，152 页

⁹⁷ 古时女子谦称自己。现代汉语词典，2002 年，1023 页

⁹⁸ 古时男子谦称自己。现代汉语词典，2002 年，987 页

⁹⁹ “我”专用做皇帝自称。现代汉语词典，2002 年，1601 页

odatda o‘zini yoshlikdagi ismi bilan yoki “hurmatni ifodalovchi” ot so‘z turkumidagi so‘zlar bilan atagan 臣¹⁰⁰ chen *menkim*, *Sizning qulingiz*. Bunda tinglovchining qaysi lavozimda ekanligi ahamiyatsiz edi.

Ayol kishi lavozim jihatdan o‘zidan yuqori va hattoki teng mansabdagi kishi bilan so‘zlashganda o‘zini 亲¹⁰¹ qie *kanizak* deb aytgan – bu shakl hurmat kategoriyasidagi shakl bo‘lgan. Imperator o‘zini 朕¹⁰² zhen *Tanho* so‘zi bilan atagan.

Har qanday kishi so‘zlashuvda o‘zini 小人 xiaoren *kichik odam* yoki o‘qimagan, oddiy fuqaro so‘zi bilan atagan (antonim sifatida 君子 junzi *ziyoli, yuqori madaniyatli* so‘zi ishlatilgan). O‘zini atash so‘zlarining aksariyati kamsitish ma’nosiga ega bo‘lgan. Masalan, 不才 bucai *iqtidorsiz*, 不佞 buning *aqlsiz*, 贱 jian *zoti past*.

Murojaat shakllarining neytral turlariga 汝 ru *sen*, 若 ruo *sen*, 而 kabi kishilik olmoshlari, qadimgi Venyan tilida ot so‘z turkumiga oid 子 zi *sen* so‘zi keng qo‘llanilgan. Ikkinchi shaxsni ifodalashda qo‘llaniladigan kishilik olmoshlari o‘rniga ham 子 zi bemalol ishlatilavergan. Lekin o‘zidan yuqori mansabdagi inson bilan so‘zlashuvda o‘sha insonni kishilik olmoshi bilan atash o‘ta hurmatsizlik hisoblangan. Hurmat ma’nosida insonni uning lavozimi bilan atash, darajasi, unvoni ma’nosidagi so‘zlarni qo‘llash odat tusiga kirgan (王 wang *knyaz*, 公子 gongzi *shahzoda*, 将军 jiangjun *general*, 太子 taizi *merosho‘r*, 相 xiang *maslahatchi, vazir* va b.). Shogirdga nisbatan 弟子 dizi so‘zi, mehmonga nisbatan 客 ke, 先生 xiansheng *janob* ma’nosida (oldin tug‘ilgan), ustozga 夫子 fuzi deb murojaat etilgan. Ohirgi ikki shakl ustoz bilan muomalada ishlatilgan. Yoshi ulug‘ kishilarga nisbatan 叟 sou *qariya* so‘zi ishlatilgan. Turmushga chiqqan ayolga nisbatan 妇 fu *rafiqa* so‘zi qo‘llanilgan. Keng tarqalgan hurmat ma’nosidagi murojaat shakli sifatida 君 jun *janob*, o‘ta hurmat ma’nosida 足下 zuxia *oyoq ostidagi* so‘zi qo‘llanilgan.

Ko‘rinib turibdiki, qadimgi Xitoy Venyan tilida murojaat shakllari va o‘zini atash shakllari hilma-xilligi kuzatiladi. Biron-bir murojaat shaklini tanlashda so‘zlashuvchilarning yoshi, jinsi, so‘zlashuvning payti, vaziyati kabi ob‘ektiv, so‘zlashuvchi va tinglovchining bir-biriga munosabati kabi sub‘ektiv omillar ta’sir ko‘rsatishini inobatga olsak, talabalarda qadimgi Venyan tilidagi matnlarni to‘g‘ri tarjima qilish ko‘nikmasini to‘g‘ri shakllantirish vazifasi nihoyatda dolzarbdir.

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Qadimgi xitoy tilida murojaat shakllari
2. Neytral hurmatni bildiruvchi so‘zlar haqida, yuqori hurmat so‘zlari va o‘zini atash so‘zlariga misollar keltiring.
3. Venyan tilida matnlarni tarjima qilishda murojaat shakllarining xilma-xilligi qay vositalarda aks topadi?

Amaliy mashg‘ulot vazifa va savollari:

1. Lyu I-sin. “Zamondoshlar haqida yangi kitob” matni

¹⁰⁰ 官使对皇帝上书或说话的自称。现代汉语词典，2002年，152页

¹⁰¹ 古时女子谦称自己。现代汉语词典，2002年，1023页

¹⁰² “我”专用做皇帝自称。现代汉语词典，2002年，1601页

2. Matnni grammatik tahlilini amalga oshiring, polisemiya hodisasi qo'llanilishiga ahamiyat bering.

Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar

1. Ding Du va Li Zhaolarning xitoy fonologiyasidagi o'rni haqida ma'lumot yig'ish.
2. Qadimgi va zamonaviy xitoy tilida hurmat kategoriyasi mavzusida referat tayyorlash.

6 MAVZU. QADIMGI XITOIY TILIDA MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARI

Darsning o'quv maqsadi: Ot – 名词 míngcí, Fe'l – 动词 dòngcí, Sifat – 形容词 xíngróngcí, Son – 数量词 shùliàngcí, Olmosh – 代词 dàicí, *Yordamchi so'z turkumlari:* Ravish – 副词 fùcí, Ko'makchi – 介词 jiècí, bog'lovchi – 连词 liáncí, Yordamchi so'zlar – 助词 zhùcí, Yuklama – 语气词 yǔqìcí, Undov so'zlar – 叹词 tàncí haqida ma'lumotga ega bo'lish. Qadimgi xitoy tili matnlarida mustaqil va yordamchi so'z turkumlarni ajrata bilish ko'nikmasini hosil qilish.

Tayanch tushunchalar: 名词 míngcí, 动词 dòngcí, 形容词 xíngróngcí, 数量词 shùliàngcí, 代词 dàicí, 副词 fùcí, 介词 jiècí, 连词 liáncí, 助词 zhùcí, – 语气词 yǔqìcí, 叹词 tàncí.

Tildagi so'zlarning umumiy grammatik ma'no va vazifalariga ko'ra ma'lum guruhlariga bo'linishi **so'z turkumlari** deb yuritiladi.

Qadimgi xitoy tilida ham so'z turkumlari ikkiga bo'lingan: mustaqil so'z turkumlari (实词 shící) va yordamchi so'z turkumlari (虚词 xūcí).

Xitoy tilida aniq bir (real) ma'no ifoda etuvchi so'zlarga **mustaqil so'z turkumlari** deyiladi.¹⁰³ Qadimgi xitoy tilidagi mustaqil so'z turkumlari 5 guruhga bo'lingan:

1. Ot – 名词 míngcí.
- 2 Fe'l – 动词 dòngcí.
3. Sifat – 形容词 xíngróngcí.
4. Son – 数量词 shùliàngcí.
5. Olmosh – 代词 dàicí.¹⁰⁴

Yordamchi so'z turkumlari – yakka holda ma'no anglatmaydigan, gap bo'lagi bo'la olmaydigan, grammatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladigan so'zlardir. Ular mustaqil so'zlar va ayrim gaplar orasidagi munosabatni anglatishga xizmat qiladi, so'zga va gapning mazmuniga turli qo'shimcha ma'nolar qo'shadi. Qadimgi xitoy tilidagi yordamchi so'z turkumlari 6 guruhga bo'lingan:

1. Ravish – 副词 fùcí.
2. Ko'makchi – 介词 jiècí.
3. Bog'lovchi – 连词 liáncí.
4. Yordamchi so'zlar – 助词 zhùcí.
5. Yuklama – 语气词 yǔqìcí.
6. Undov so'zlar – 叹词 tàncí.¹⁰⁵

¹⁰³ 18,14

¹⁰⁴ 18,14

Ko‘rishimiz mumkinki, qadimgi xitoy tilida son va hisob so‘zlar bir turkumga kiritilgan. Zamonaviy xitoy tilida esa ular alohida so‘z turkumlari hisoblanadi. Ravish so‘z turkumi qadimgi xitoy tilida yordamchi so‘z turkumi bo‘lgan, hozir esa mustaqil so‘z turkumiga aylangan.

1-§. *Ot so‘z turkumi*

Xitoy tilshunoslarining fikricha, inson, narsa-buyum, vaqt, joy nomini bildiruvchi so‘zlar turkumi **ot** deyiladi.¹⁰⁶ Qadimgi xitoy tilidagi otlarga quyidagilar misol bo‘la oladi:

孔子 kǒngzǐ – Konfusiy;

孟子 mèngzǐ – Meng-zi;

民 mín – xalq;

人 rén – odam;

天下 tiānxià – Osmon osti (Xitoy);

君子 jūnzǐ – oliyjanob inson;

江 jiāng – Yanzi daryosi;

河 hé – Xuangxe daryosi;

东 dōng – Sharq;

南 nán – Janub;

西 xī – G‘arb;

北 běi – Shimol;

牛 niú – sigir;

羊 yáng – qo‘y;

车 chē – arava.¹⁰⁷

Qadimgi xitoy tilidagi ot so‘z turkumi grammatik vazifalari zamonaviy xitoy tili bilan deyarli o‘xshash. Gapda ega, to‘ldiruvchi, aniqllovchi bo‘lib kelgan. Zamonaviy xitoy tilidan farqli tomoni – ba’zida hol gap bo‘lagi vazifasini bajargan, fe‘l o‘rnida qo‘llanilgan. Quyida ushbu hodisalarni tahlilini o‘tkazamiz:

I. Ot hol vazifasida Qadimgi xitoy tilida ot quyidagi o‘rinlarda hol bo‘lib kelgan¹⁰⁸:

(1) *Qiyoslash ma’nosini bildirganda* Ot orqali kimsa yoki narsa-buyumning ish-harakat belgisi, uslubi hamda holati tasvirlanadi. Bunda ot “像。。。一样” xiàng ... yíyàng, “像。。。似的” xiàng ... shìde (... -ga o‘xshab) ma’nosini beradi.

«Lyaochjay g‘aroyibotlari» “Bo‘ri hikoyasi” bo‘limida (聊斋志异•狼 Liáozhāi zhìyì • láng)¹⁰⁹ hikoya qilinishicha:

“其一犬坐于前”. Qí yī quǎn zuò yú qián (Bo‘ri go‘yo it kabi tizzasida o‘tirar edi).

¹⁰⁵ 18,14

¹⁰⁶ 18,14

¹⁰⁷ 18,14

¹⁰⁸ 21,116

¹⁰⁹ Чинг даври (清 1644-1911) Таниқли новеллашунос ёзувчиси Пу Сонглин (蒲松齡 Pú Sōnglíng 1640-1715) қаламига мансуб асар. Ляочжай тахаллуси остида ижод қилган бу ёзувчи 400 дан ортиқ новеллалар яратган. «Ляочжай ғаройиботлари» сюжети турли фантастик воқеаларга лимо-лим.

Bu gapda 犬 quǎn (it) ot soʻz turkumiga oid, gapda hol vazifasini bajargan. Qiyoslash maʼnosini bildirgan.



Pu Songlin (1640-1715)

(2) Ish-harakatning uslubi, holatini bildirganda

«Tarixnoma» ning “Syangyuy tarjimai holi” (史记·项羽本纪 shǐjì• Xiàngyǔ běnjì) boʻlimida yozilishicha:

“吴得兄事之” Wú dé xiōng shì zhī (Men unga xuddi akasi kabi gʻamxoʻrlik qilishim kerak).

Bu gapda “兄” (xiōng – aka) hol vazifasini bajargan ot boʻlib, “事” (shì – gʻamxoʻrlik qilmoq) feʼlining holatini bildirmoqda. “Akasidek gʻamxoʻrlik qilmoq” tarzida tarjima qilinadi.

(3) Jihoz va joy nomini bildirganda

«Yuygun togʻni surdi» hikoyasida (愚公移山 Yúgōng yíshān):

“用箕畚把土石运到渤海边上”. Yòng jībēn bǎ tǔ shí yùndào bóhǎi biān shang (U hokandozdan foydalanib toshlarni dengiz qirgʻogʻiga oborib tashladi) .

“箕畚” (jībēn – xokandoz) oti hol boʻlib kelgan, ishlatilgan jihozni ifodalaydi. Gapda hol vazifasini bajargan.

Ot hol boʻlib keladigan bu holatda, qadimgi xitoy tilidan zamonaviy xitoy tiliga tarjima qilganimizda eng yaxshisi otdan oldin “用” (yòng – foydalanmoq), “拿” (ná – olmoq) yoki “在” (zài - da, joylashmoq) kabi soʻzlarni qoʻshish kerak. Ot hol vazifasini bajarganda hech kanday alohida koʻrsatkich mavjud emas, asosiysi ikkala til maʼnosidan kelib chiqqan holda oʻrganishimiz lozim.

II. Otning feʼl oʻrnida kelishi. Qadimgi xitoy tilida koʻpgina otlar feʼl sifatida ishlatilib, gapda kesim vazifasini bajarishi mumkin boʻlgan. Ot feʼl vazifasini bajarganda, otning maʼnosi butunlay yoʻqolmaydi, balki qoʻshimcha maʼno qoʻshiladi.

«Zojuan» “Saoguy munozarasi” (左传·曹刿论战 zuǒzhuàn•Cáo guì lùnzhàn) boʻlimida:

“齐人三鼓”. Qí rén sān gǔ (Chi askarlari uch marotaba doʻmbira chalishdi) .¹¹⁰

“鼓” (gǔ – doʻmbira) oti feʼl sifatida ishlatilgan, “doʻmbiraga urmoq” maʼnosini beradi, kesim vazifasini bajargan.

Otning qoʻllanilish usullari

- Ot feʼl oʻrnida kelganida, oʻzidan keyin toʻldiruvchini oladi.¹¹¹ Masalan:

¹¹⁰ 22,495

¹¹¹ 21,117

1) «Tarixnoma» “Syangyuy tarjimai holi” bo‘limi (史记•项羽本纪 shǐjì• Xiàngyǔ běnjì): “先破秦入咸阳者王之”. Xiān pò qín rù xián yáng zhě wáng zhī (Avval Chin qo‘shiniga xujum qilib, Syanyangni bu yerga olib kelamiz, keyin esa uni taxtga o‘tqizamiz).

“王” (wáng – qirol): ot so‘z turkumiga kiradi, bu gapda “之” to‘ldiruvchisidan oldin kelib, “qirol qilmoq, taxtga o‘tqizmoq” ma’nosini beradi. “王之” - “uni taxtga o‘tqizish” deb tarjima qilinadi.

● Ot fe‘l ma’nosini bildirganda, o‘zidan keyin to‘ldiruvchi olib, sub’ektiv “hisoblamoq” ma’nosini bildiradi. Masalan:

«Syun-zi» “Fu” bo‘limida (荀子•赋 Xúnzǐ • fù):

“友风而子雨”. Yǒu fēng ér zǐ yǔ (Shimolni o‘z do‘stim, yomg‘irni esa farzandim deb bilaman).

“友” yǒu (do‘st) “子” zǐ (farzand) asli ot so‘z turkumiga oid, bu gapda fe‘l ma’nosini ifodalagan: “... do‘st deb bilmoq”, “farzand deb hisoblamoq” deb tarjima qilinadi.¹¹²

III. Yo‘nalish otlarining ishlatilishi. Qadimgi xitoy tilida, yo‘nalish otlari odatda quyidagi hollarda ishlatilgan:

1) odatda boshqa otlar bilan birga qo‘llaniladi (shuningdek “之”, “以” kabi so‘zlar orqali yasaladi), bunda joy nomini ifodalaydi. Zamonaviy xitoy tili bilan o‘xshash. Masalan:

(1) «Mulan she’ri» (木兰诗 Mùlánshī)¹¹³ da yoziladi:

“东市买骏马”. Dōngshì mǎi jùn mǎ (Sharqiy bozorda yaxshi ot sotiladi).

“东” dōng (sharq) yo‘nalishni bildiruvchi ot “市” shì (bozor) bilan birikib, joy nomini bildirgan.

2) fe‘ldan oldin kelib, bu ish-harakat qilingan joy yoki yo‘nalishni ko‘rsatadi.

«Uzun ma’yus kuy» (长恨歌 sháng hèn gē) she’rida¹¹⁴:

“上穷碧落下(穷)黄泉”. Shàng qióng bì luò xià (qióng) huáng quán (Yuqoriga chiqsang osmonni ko‘rsan, pastga tushsang yer ostiga duch kelasan).

Bu gapda “上” shàng, “下” xià so‘zlari “穷” qióng (tugamoq, nihoyasiga yetmoq) fe‘lining yo‘nalishini ko‘rsatmoqda.

3) “于” yú (old ko‘makchisi) ni fe‘ldan keyin qo‘yib, joylashuvni bildirish mumkin.

«Lyaochjay g‘aroyibotlari» “Bo‘ri hikoyasi” bo‘limida (聊斋志异•狼 Liáozhāi zhiyì • láng):

“其一犬坐于前”. Qí yī quǎn zuò yú qián. (Bitta bo‘ri go‘yo it kabi old tomonda o‘tirardi).

“于” (old ko‘makchi) va “前” (ot) birikib, “old tomonda” ma’nosini bildirgan. Gapda hol vazifasini bajargan.

IV. Vaqt otlarining qo‘llanilishi. Qadimgi xitoy tilida vaqt otlari 3 turga bo‘linadi:

(1) fe‘ldan oldin kelib, ish-harakat sodir bo‘lgan vaqtni ifodalaydi. Masalan: Li Dao Yuanning «Uch tog‘ darasi» (三峡 sānxiá):

¹¹² 18,19

¹¹³ Юэфу (Қадимги хитой халқ кўшиқлари) дан намуна

¹¹⁴ Бай Жюи (白居易 772-846) – Танг даври (唐 618-907) шоири қаламига мансуб асар. (Сихай 1-жилд 72-б)

“朝发白帝，暮到江陵”。Zhāo fā Báidi, mù dào Jiānglíng. (Biz ertalab Baydi shahridan chiqib ketib, kechqurun Jyanlingga yetib bordik.)¹¹⁵

Bu gapda ot so‘z turkumiga oid 朝 (ertalab), 暮 (kechqurun) 发 (yo‘lga chiqmoq), 到 (yetib bormoq) fe‘llariga bog‘lanib, gapda hol vazifasini bajargan.

(2) kun, oy, yil kabi so‘zlar fe‘ldan oldin ishlatilib, “har kuni” (每日 měiri, 日日 rìrì), “har oy” (每月 měiyuè, 月月 yuèyuè), “har yil” (每岁 měisui, 岁岁 suìsuì) degan ma’nolarni bildiradi.

Masalan: «Syun-zi»ning “Ta’lim-tarbiya nazariyasi” bo‘limida (荀子·劝学):

“君子博学而日参省乎己”。Jūnzǐ bó xué ér rì cān shěng hū jǐ. (Buyuk hukmdor ko‘pgina ilmlarni o‘rganadi hamda har kuni o‘z-o‘zini imtihon qiladi)¹¹⁶.

Bu gapda 日 rì (kun) oti “har kuni” ma’nosini anglatib, 参省 cān shěng (imtihon qilmoq) fe‘liga bog‘langan. Gapda vaqt holi bo‘lib kelgan.

(3) “日” rì (kun) so‘zi sifatdan oldin kelib, ish-harakatning rivojlanish jarayonini bildiradi. “一天比天” yì tiān bǐ tiān (kundan kunga, borgan sari) ma’nosini anglatadi.

«Uchpodsholik» “Chju Ge-Lyang” hikoyasi (三国志·诸葛亮传 sānguózhì·Zhūgěliàng zhuàn):

“于是与亮情好日密”。Yúshì yǔ liàng qíng hǎo rì mì. (Chju Ge-lyang va men o‘rtamizdagi do‘stlik kundan kunga ortib borardi)¹¹⁷.

Ushbu gapda 日 (kun) so‘zi 密 (yaqin) sifatidan oldin kelgan, “kundan kunga”, “borgan sari” ma’nosini bildirgan. Gapda hol vazifasini bajargan.

Fe‘l so‘z turkumi

Xitoy tilshunoslarining fikricha, inson yoki narsa-buyum ish-harakati, psixologik kechinmalari, rivojlanishi, o‘zgarishi va boshqa harakatni bildiruvchi so‘zlar **fe‘l** deyiladi.¹¹⁸ Qadimgi xitoy tilidagi fe‘l grammatik xususiyatlari va sintaktik vazifalari zamonaviy xitoy tili bilan o‘xshash. Gapda kesim, hol gap bo‘laklari vazifasini bajargan. Quyidagicha o‘ziga xosliklari mavjud:

I. *Fe‘l gapda hol bo‘lib kelishi.* Qadimgi xitoy tilida fe‘l gapda ko‘pincha hol vazifasini bajarib, ish-harakat holati yoki bajarilish usulini bildirgan. Bunda fe‘l kesimdan oldin joylashgan. Ko‘pincha ikki fe‘l orasiga “而” ér bog‘lovchisi qo‘yilgan.

«Syun-zi»ning “Ta’lim-tarbiya nazariyasi” bo‘limida (荀子·劝学):

“吾跂而望矣”。Wú qí ér wàng yǐ. (Men oyoq uchida turib, olislarga boqardim).

“跂” qí (oyoq uchida turmoq) fe‘li “望” wàng (nazar solmoq, qaramoq) fe‘lining holatini bildirib, gapda hol vazifasini bajargan.

II. *Fe‘lning gapda kesim bo‘lib kelishi.* Fe‘l gapda kesim vazifasini bajarganda, u ifoda etgan ish-harakat ega tomonidan bevosita bajarilmaydi, balki bu vazifa to‘ldiruvchiga yuklatiladi. Bunda fe‘lning orttirma nisbati¹¹⁹ yasaladi.

¹¹⁵ 34,2001

¹¹⁶ 34,1319

¹¹⁷ 34,1319

¹¹⁸ 18,50

¹¹⁹ Орттирма нисбатдаги феъллар иш-ҳаракатнинг бошқа бирор шахс ёки нарсა-буюм воситасида бажарилганлигини билдиради.

«Tarixnoma» “Syangyuy tarjimai holi” bo‘limi (史记·项羽本纪 shǐjì• Xiàngyǔ běnji):

“项伯杀人，臣活之”。Xiàngbó shā rén, chén huó zhī. (Syangbo odamlarni o‘ldirib, jinoyat qildi, men esa uni hayotini saqlab qoldim).

Bu gapda “活” (yashamoq, tirik bo‘lmoq) “之” (unga) to‘ldiruvchisi bilan birikib, “unga hayot baxsh etmoq” ma’nosini bildirgan.

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Qadimgi xitoy tilida mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari qanday farqlangan? Ularning turlarini aytib bering.
2. Qadimgi xitoy tilida ot va fe‘lning ifodalanishiga misollar keltiring.
3. Qadimgi xitoy tilida olmoshlar turlari haqida gapiring.
4. Qadimgi xitoy tilida son kategoriyasi qanday ifodalangan?

Amaliy mashg‘ulot vazifa va savollari:

1. Yan Syuan-Chji. “Loyan ibodatxonalari haqida” matni
2. Matnni grammatik tahlilini amalga oshiring, mustaqil va yordamchi so‘z turkumlariga ahamiyat bering.

Mustaqil ta’lim uchun savol va topshiriqlar

1. Dramaturg Zhu De Qing haqida ma’lumot yig‘ish
2. Qadimgi va zamonaviy xitoy tilida mustaqil so‘z turkumlarini solishtirish, yordamchi so‘z turkumlari mavzusida referat tayyorlash.

7 MAVZU. QADIMGI XITOIY TILIDA YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARI

Darsning o‘quv maqsadi: Sifat – 形容词 xíngróngcí, Son – 数量词 shùliàngcí, Olmosh – 代词 dàicí, *Yordamchi so‘z turkumlari:* Ravish – 副词 fùcí, Ko‘makchi – 介词 jiècí, bog‘lovchi – 连词 liáncí, Yordamchi so‘zlar – 助词 zhùcí, Yuklama – 语气词 yǔqìcí, Undov so‘zlar – 叹词 tànčí haqida ma’lumotga ega bo‘lish. Qadimgi xitoy tili matnlarida mustaqil va yordamchi so‘z turkumlarni ajrata bilish ko‘nikmasini hosil qilish.

Tayanch tushunchalar: 形容词 xíngróngcí, 数量词 shùliàngcí, 代词 dàicí, 副词 fùcí, 介词 jiècí, 连词 liáncí, 助词 zhùcí, – 语气词 yǔqìcí, 叹词 tànčí.

Sifat so‘z turkumi

Xitoy tilshunoslarining fikricha, inson yoki narsa-buyumning shakli, xususiyati va u ish-harakatining holatini bildiruvchi so‘zlar **sifat** deyiladi.¹²⁰ Ularga quyidagilar misol bo‘la oladi:

大 dà – katta;

小 xiǎo – kichik;

长 cháng – uzun;

短 duǎn – kalta;

高 gāo – baland;

低 dī – past;

红 hóng – qizil;

白 bái – oq;

富 fù – boy;

贵 guì – qimmat;

美 měi – nafis;

恶 è – xunuk;

从容 cóngróng – sekin;

仓皇 cānghuáng – xovliqqan;¹²¹

Venyandagi sifat grammatik va sintaktik xususiyatlari jihatidan zamonaviy xitoy tili (bayxua)dagi sifat bilan deyarli bir xil. Gapda asosan aniqlovchi, hol, kesim bo‘lib kelgan. Ba’zida ega va to‘ldiruvchi bo‘lib kelishi ham mumkin bo‘lgan, ammo bunday sifatlar sifatlik xususiyatlarini allaqachon yo‘qotgan, otlashgan sifatga aylangan. Quyida bu holatni ko‘rib chiqamiz:

I. Sifatning otlashish hodisasi. Qadimgi xitoy tilida sifat gapda ega va to‘ldiruvchi bo‘lib kelishi mumkin bo‘lgan, ya’ni sifat otlashish xususiyatiga ega bo‘lgan.¹²²

«Zojuan» “Nang Gong hukmronligining 19-yili” (左传·襄公十九年 zuǒzhuan·Nānggōng shíjiǔ nián):

“大母侵小”. Dà wú qīn xiǎo. (Katta mamlakat kichik mamlakatni bosib olishi kerak emas.)

“大”, “小”: asli sifatlar, ammo bu gapda “katta mamlakat”, “kichik mamlakat” ma’nosida kelgan, “侵” (bosib olmoq) fe’lining egasi va to‘ldiruvchisi bo‘lib kelgan.

II. Sifatning fe’llashish hodisasi. Qadimgi xitoy tilida sifatning fe’llashish hodisasi ko‘p uchraydi. Bunda sifat o‘zidan keyin to‘ldiruvchi oladi.

Sao Saoning¹²³ «Chjitun tyanling»(置屯田令 zhìtúntiánlìng) asarida:

“夫定国之术, 在于强兵足食”. Fū dìng guó zhī shù, zài yú qiáng bīng zú shí.¹²⁴ (Mamlakatda tinchlik-barqarorlikni o‘rnatish uchun, qurolli kuchlarni yanada kuchaytirish, xalqni esa oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘la ta’minlash lozim.)

“强” (qudratli, kuchli), “足” (yetarli) sifatleri bu gapda “使。。。强盛” shǐ。。。 qiángshèng – “kuchaytirmoq”, “使。。。充足” shǐ。。。 chōngzú – “etarli darajada ta’minlamoq” ma’nolarini bildirgan. Demak, sifat ma’nosi fe’lga o‘zgargan.

Cifat gapda fe’l vazifasini bajarib, o‘zidan keyin to‘ldiruvchini olganda, ega tomonidan to‘ldiruvchini sifat ifoda etgan xususiyatga egaligi sub’ektiv ravishda e’tirof etiladi.

Masalan: Tao Chyanning¹²⁵ «Shaftoli guli bitiklari» (桃花源记 táohuā yuánjì):

¹²¹ 18,65

¹²² 21,119

¹²³ Цао Цао (曹操 Cáocāo 155—220) – Учподшолик даври давлат арбоби, саркардаси, шоир, харбий маҳорат ҳақидаги асарлар муаллифи. М.а. III аср бошига қадар Хан даври (м.а.206-эрамиз 220) ҳукмдори ва бу сулолани тугатган шахс сифатида тарихга кирган. (Сихай 1-жилд 212-б)

¹²⁴ 18,1230

“渔人甚异之”。Yú rén shèn yì zhī. (Baliqchiga bu holat juda g‘alati tuyuldi.)¹²⁶

“异” (g‘alati) so‘zi asli sifat bo‘lib, bu gapda ma‘nosi fe’lga ko‘chishini kuzatamiz: “认为。。。异” rènwéi。。。yì – “biror holatni g‘alati deb hisoblamoq” ma‘nosini anglatadi.

Son

Xitoy tilshunoslarining fikricha, narsa-buyum yoki ish-harakatning sanog‘ini bildiruvchi so‘zlar **son** deb ataladi. Venyandagi son so‘z turkumi **son** va **hisob so‘zlarni** o‘z ichiga olgan.¹²⁷

Son

Qadimgi xitoy tilidagi sonning qo‘llanilishi zamonaviy xitoy tilidan farq qiladi, quyidagi xususiyatlarga ega:

I. Gapda aniqlovchi, hol vazifasini bajargan, bunda odatda hisob so‘z ishlatilmagan.

1. Son+Ot

«Yuygun tog‘ni surdi» hikoyasida (愚公移山 Yúgōng yíshān):

“太山王屋二山”. Tàishān Wángwū èr shān. (Tayshan va Vangu bu ikki tog‘.)

“二” èr (ikki): son bo‘lib, “山” shān (tog‘) otini aniqlab kelgan, gapda aniqlovchi vazifasini bajargan.¹²⁸

2. Son+Fe’l

«Uchpodsholik» “Chju Ge-Lyang hikoyasi” (三国志·诸葛亮传 sānguózhì·Zhūgēliàng zhuán) bo‘limida:

“由是先主遂诸亮，凡三往，乃见”。Yóu shì xiān zhǔ suì Zhūliàng, fán sān wǎng, nǎi jiàn. (Shu sababli Chju Ge-lyang huzuriga xammasi bo‘lib uch marta tashrif buyurdim, shundagina uni ko‘rish baxtiga muyassar bo‘ldim.)

“三” (uch) son so‘z turkumi, “往” (bormoq) fe’lini xolatini bildirmoqda, gapda hol vazifasini bajargan.

II. Son predmetning sanog‘ini bildirganda, ba’zida otdan keyin joylashgan.

Ot+Son

Vey Syue-I¹²⁹ «Xe chjouji» (核舟记):

“通计一舟，为人五，为窗八”。Tōngjì yī zhōu, wéi rén wǔ, wéi chuāng bā. (Bitta qayiqda hammasi bo‘lib beshta odam, sakkizta deraza bor.)

“一” (bir) soni otdan oldin kelgan, “五” (besh), “八” (sakkiz) esa aksincha otdan keyin kelgan.

III. Kasr, chama, noaniq sonlar ifodalanishi zamonaviy xitoy tiidan farq qiladi:

¹²⁵ Тао Чян (陶潜 365-427) – Шаркий Жин даври (317-420) шоири. Тао Юан-минг (陶渊明 táo yuānmíng) тахаллуси билан кўпроқ машхур. 160 та шеъри бизгача етиб келган. Шеърларида бир қатор ахлокий масалаларни кўтарган. (Сихай, 3-жилд 2074-б)

¹²⁶ 34,1852

¹²⁷ 18,84 Замонавий хитой тилида ҳисоб сўзлар алоҳида сўз туркуми ҳисобланади.

¹²⁸ 21,120

¹²⁹ 魏学洢 Wèi Xuéyī (Тахминан 1596-1625) – Минг (1368-1644) даври Таниқли ёзувчиси. (32,2214-б)

a) Kasr son

1) Maxraj+Surat=Kasr son

«Tarixnoma» ning “Chenshe shijia” (史记•陈涉世家) bo‘limida:

“而戍死者固十六七”. Ēr xū sǐ zhě gù shí liù qī. (Chegara posbonlaridan halok bo‘lganlar soni 10 dan 6, 7ni tashkil qiladi¹³⁰.)

b) Chama son odatda “可” kě, “所” suǒ, “许” xǔ so‘zlari orqali yasaladi.

2) “可” (“所”, “许”)+ Son=Chama son.

«Xan kitobi» “Qirol Chjang hikoyasi” (汉书•王章传) bo‘limida:

“年可十二”. Nián kě shí èr. (U chamasi 12 yoshlarda edi.)

s) Noaniq son

Qadimgi xitoy tilidagi son ba’zida shakl jihatdan aniq son bo‘lsa-da, aslida noaniq bo‘lishi ham mumkin bo‘lgan. Odatda “三” (3), “九” (9), “百” (100), “千” (1000), “万” (10000) singari sonlar shular sirasiga kirgan. Shuning uchun ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin emas, balki “ko‘p” tarzida tarjima qilinadi.

Masalan: «Lunyuy»:

“季文子三思后行”. Jì Wénzǐ sān sī hòu xíng. (Ji Venzi har bir ishni yetti o‘ylab, keyin kesadi.)¹³¹

IV. *Sonning fe’llashishi.*

Masalan: «Tarixnoma» “Chin Shi-xuang faoliyati” (史记•秦始皇本纪) bo‘limida:

“古时, 天下散乱, 莫之能一”. Gǔshí, tiānxià sǎnlùn, mò zhī néng yī. (Qadim zamonlarda Xitoyda tartibsizlik va parokandalik hukm surardi, hech kim bu davlatni birlashtirish uddasidan chiqolmadi.)

Bu gapda “一”: “bir” ma’nosini beruvchi son, “统一” tǒngyī (birlashtirmoq) fe’l ma’nosini bildirgan.

5§. Hisob so‘zlar

Qadimgi xitoy tilidagi hisob so‘zlar zamonaviy xitoy tiliga nisbatan kamroq ishlatilgan, biroq ularning mavjudligini hech kim inkor qilolmaydi. Hozirgi zamon xitoy tiliga o‘xshab qadimgi xitoy tilining hisob so‘zlari ham ikki katta guruhga bo‘linishi mumkin:

1. 名量词 míngliàngcí (物量词 wùliàngcí) – nom hisob so‘zlari;

2. 动量词 dòngliàngcí – harakat hisob so‘zlari;¹³²

Nom hisob so‘zlari – ot so‘z turkumi bilan qo‘llanadigan hisob so‘zlar (dona, sop va h.k.).

Harakat hisob so‘zlari – fe’l so‘z turkumi bilan qo‘llanadigan hisob so‘zlar (marta, mahal va h.k.).

Qadimgi xitoy tilidagi hisob so‘zlar son bilan birikib, son hisob so‘zlarini hosil qilgan. Quyidagi ikki modelni ko‘rib chiqaylik:

1) Son+Hisob co‘z+Ot

¹³⁰ 60-70% га тўғри келади.

¹³¹ 22,50

¹³² 4,24

“吾不能为五斗米而折腰”. Wú bùnéng wéi wǔ dòu mǐ ér zhéyāo. (5 dou¹³³ guruch uchun ular oldida o‘zimni bunchalik yerga urmayman.)¹³⁴

2) Ot+Son+Hisob so‘z

“我持白璧一双，欲献项王”. Wǒ chí bái bì yì shuāng, yù xiàn Xiàng wáng. (O‘zim bilan bir juft nefrit toshini olib keldim, Syang qiroliga taqdim etmoqchiman.)¹³⁵

Venyanda quyidagi hisob so‘zlar ko‘p uchraydi: “钧”^{jūn}¹³⁶, “仞”^{rèn}¹³⁷, “钟”^{zhōng}¹³⁸, “镒”^{yì}¹³⁹, “斗”^{dòu}¹⁴⁰. Ular zamonaviy xitoy tilida allaqachon muomaladan chiqqan.¹⁴¹

Olmosh

Ot, sifat, son, ravish o‘rnida qo‘llanadigan so‘z turkumi **olmosh** deyiladi. Uning asosiy vazifasi nutqdagi takrorlanishlarni oldini olish, uni lo‘nda va sodda bo‘lishini ta‘minlash. Qadimgi xitoy tilidagi olmoshlar uch turga bo‘linadi.¹⁴²

- 1) kishilik olmoshlari (称代词 chēng dàicí)
- 2) ko‘rsatish olmoshlari (指示代词 zhǐshì dàicí)
- 3) so‘roq olmoshlari (疑问代词 yíwèn dàicí)

I. Kishilik olmoshlari – shaxsni bildiradigan olmoshlar, ya‘ni ushbu olmoshlar faqatgina otlarni o‘rnida qo‘llaniladi. Kishilik olmoshlari o‘z o‘rnida birinchi shaxs olmoshlari, ikkinchi shaxs olmoshlari va uchinchi shaxs olmoshlariga bo‘linadi.

Birinchi shaxs kishilik olmoshlari Venyanda quyidalar birinchi shaxs olmoshlari hisoblangan:

- 1) “余” yú;
- 2) “予” yú;
- 3) “我” wǒ;
- 4) “吾” wú;
- 5) “朕” zhèn;
- 6) “印” àng;
- 7) “台” yí.

Odatda “予”, “余”¹⁴³ va “我” gapda ega, to‘ldiruvchi va aniqlovchi bo‘lib kelgan.

¹³³ Қадимги Хитойда ишлатилган оғирлик бирлиги, 1 доу 10 литрга тенг келади.

¹³⁴ «Пу китоби» “Тао Цян ҳикояси” бўлими (普书•陶潜传 pǔshū•Táo Qián zhuàn)

¹³⁵ «Тарихнома» “Сянгуой таржимаи холи” бўлими (史记•项羽本纪 shǐjì• Xiàngyǔ běnjì)

¹³⁶ Қадимги оғирлик бирлиги, 15 килограммга тенг.

¹³⁷ Узунлик бирлиги, 8 (7) чи (1 чи=10 цун= 32см); 2,5 метр га тенг.

¹³⁸ Хажм бирлиги, 640 литрга тенг.

¹³⁹ Оғирлик бирлиги, 1000 грамм, яъни 1кг (20 лянг)га тенг.

¹⁴⁰ Хажм бирлиги, 10 литрга тенг.

¹⁴¹ Бу ҳисоб сўзларнинг маъноси “Гудай ханюй сидян” (古代汉语词典 – Қадимги хитой тили луғати)дан олинди.

¹⁴² 18,106

¹⁴³ “予” ҳамда “余” қадимги хитой тилида бир хил талаффуз қилинган, лекин ҳар хил ёзилган ва бир хил ишлатилган. Баъзи манбаларда “予” («Шангшу 尚书»), айримларида эса “余” («Зожуан 左传») дан фойдаланилган.

(1) 我非爱其财而易之以羊. Wǒ fēi ài qí cái ér yì zhī yǐ yáng. – Men boylik orttirish maqsadida buni qo‘yga almashtirayotganim yo‘q. («Meng-zi» “Lyangxoy vang shang” bo‘limi)¹⁴⁴

(2) 尔为尔，我为我。Ěr wéi ěr, wǒ wéi wǒ. – Sen – bu sen, men – bu men. («Meng-zi» “Gong Song choushang” bo‘limi)¹⁴⁵

Birinchi misolda “我” olmoshi gapda ega vazifasini bajargan, ikkinchi misolda avval kelgan 我 – ega, keyingisi esa – kesim bo‘lib, “men” ma’nosini bildiradi.

吾 birinchi shaxs kishilik olmoshi Dastlabki Chin (221-207) davri xitoy tilida gapda ega va aniqlovchi vazifasini bajara olgan. Bundan tashqari bo‘lishsiz gaplarda to‘ldiruvchi vazifasini bajargan, gapdagi tartibi fe‘ldan oldin bo‘lgan.

(3) 吾妻之美我者私. Wú qī zhī měi wǒ zhě sī. – Rafiqam meni qaddi-qomati kelishgan deb o‘ylaydi, meni juda yaxshi ko‘radi. («Kurashuvchi shohliklar» “Chi strategiyasi” bo‘limi)¹⁴⁶

Uchinchi misoldagi 吾 olmoshi “妻” (rafiqa, ot so‘z turkumi)ning aniqlovchisi vazifasini bajargan, “mening” tarzida tarjima qilinadi.

“朕” kishilik olmoshi Dastlabki Chin davrida asosan gapda aniqlovchi va ega vazifasini bajargan.

(4) 朕皇考曰伯庸. Zhèn huáng kǎo yuē bó yōng. – Mening rahmatli otamni ismi Bo Yung edi. (Chyu Yuan «Lisao»)¹⁴⁷

To‘rtinchi misolda 朕 olmoshi “皇考” (raxmatli ota, ot)ni aniqlab, gapda aniqlovchi vazifasini bajargan. Tarjimasi - “mening”.

“台” olmoshi ko‘pincha gapda ega va aniqlovchi vazifasini bajargan.

(5) 朝夕纳诲，以辅台德. Zhāo xī nà huì, yǐ fǔ yí dé. – Butun kunimni ilm o‘rgatishga bag‘ishlayman, davlat boshqaruvi muommolarini bartaraf etish – men uchun eng oqilona vazifadir. («Shangshu» “Shoming shang” bo‘limi)¹⁴⁸

Beshinchi gapda 台 kishilik olmoshi “德” (axloq, ot)ni aniqlab, gapda aniqlovchi vazifasini bajargan. Tarjimasi – “mening”.

“印” birinchi shaxs kishilik olmoshi ko‘pchilik hollarda gapda ega vazifasini bajargan.

(6) 人涉印否，印须我友. Rén shè áng fǒu, áng xū wǒ yǒu. – Boshqalar daryoning narigi qirg‘og‘iga o‘tishdi, men esa o‘tmadim, sababi men do‘stimni kutishim kerak edi. («Shijing» “Beyfeng” bo‘limi)¹⁴⁹

Oltinchi gapdagi ikkala 印 olmoshi ham gapda ega vazifasini bajargan, “men” tarzida tarjima qilinadi.

Qadimgi xitoy tilida “台” va “印” nisbatan kam ishlatilgan. Qadimgi tarixiy manbalarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, bu so‘zlarning tarjimasiga alohida ahamiyat berishimiz kerak.

¹⁴⁴ 22,122

¹⁴⁵ 22,141

¹⁴⁶ 34,1648

¹⁴⁷ 34,2011

¹⁴⁸ 34,1843

¹⁴⁹ 34,17

Ikkinchi shaxs kishilik olmoshlari. Venyanda ikkinchi shaxs kishilik olmoshlaridan ko‘pincha quyidagilar ishlatilgan:

- 1) “女” nǚ (“汝” rǔ);
- 2) “尔” ěr;
- 3) “若” ruò;
- 4) “乃” nǎi;
- 5) “而” ér.

Ushbu ikkinchi shaxs olmoshlari ham o‘z o‘rnida ikki guruhga bo‘linadi:

Birinchi guruh “女” (“汝”), “尔”, “若” bu 3 ta olmosh gapda ega, to‘ldiruvchi va aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin.

(1) 居, 吾语女。 Jū wú yǔ nǚ. – (Sen) Biroz o‘tirib tur, men senga hammasini gapirib beraman. («Lunyuy» “Yangxo” bo‘limi)¹⁵⁰

Birinchi gapda 女 olmoshi “语” (gapirib bermoq, fe‘l)ning to‘ldiruvchisi bo‘lib kelgan, tarjimasi – “senga”.

(2) 若虽长大, 好带刀剑, 中情怯耳。 Ruò suī zhǎng dà, hǎo dài dāojiàn, zhōng qíng qiè ěr. – Garchand sen bo‘ying baland, qaddi-qomating kelishgan yigit bo‘lsang-da, o‘zing bilan doim qurol olib yurasan, aslida sen qo‘rqoqsan. («Tarixnoma» “Inxou tarjimai holi” bo‘limi)¹⁵¹

Ikkinchi gapdagi 若 olmoshi ham gapda ega vazifasini bajarib, “sen” tarzida tarjima qilinadi.

Ikkinchi guruh “乃”, “而” olmoshlari gapda asosan aniqlovchi, ba’zi paytlarda ega vazifasini bajargan, to‘ldiruvchi bo‘lmagan.

(3) 若归, 试私从容问而父。 Ruò guī, shì sī cóngróng wèn ér fù. – Sen uyga qaytgach, bu haqda sekin otangdan so‘rab ko‘r. («Tarixnoma» “Sao Syanggo tarjimai holi” bo‘limi)¹⁵²

Uchinchi gapda 而 “父” (ota, ot so‘z tur.) dan oldin kelib, aniqlovchi vazifasini bajargan. Tarjimasi – “sening”.

Uchinchi shaxs kishilik olmoshlari. Qadimgi xitoy tilida uchinchi shaxs olmoshlaridan ko‘pincha quyidagilar ishlatilgan:

- 1) “其” qí;
- 2) “之” zhī;
- 3) “厥” jué;
- 4) “彼” bǐ.

Kishilik olmoshlarning ko‘plik shakli Zamonaviy xitoy tilida kishilik olmoshlarining birlik va ko‘plik shakllari mavjud va ular shakl jihatidan har xil:

- 1) birlik shakli: 我 wǒ, 你 nǐ, 他 tā;
- 2) ko‘plik shakli: 我们 wǒmen, 你们 nǐmen, 他们 tāmen.

¹⁵⁰ 22,99

¹⁵¹ 34,1338

¹⁵² 22,111

Qadimgi xitoy tilida esa kishilik olmoshlarining birlik va ko‘plik shakllari farqlanmagan. U holda ko‘plik va birlikdagi ma’noni qanday ajratish mumkin degan savol tug‘iladi. Buning ikki yo‘li bor:

a) matn bo‘yicha. Ya’ni venyan matni tarjimasi qoidalariga binoan, bu gapdan oldingi gaplarni tahlil qilish orqali to‘g‘ri ma’no chiqariladi;

b) ayrim ko‘plikni bildiruvchi so‘zlar orqali. Xan sulolasi (M.a. 206-milodiy 220)dan keyingi davrlarda, venyanda kishilik olmoshlari bilan birga qo‘llanib, ko‘plik ma’nosini bildiruvchi quyidagi so‘zlarni uchratishimiz mumkin:

bèi cáo shǔ děng chái
“辈”, “曹”, “属”, “等”, “侪”

Bu so‘zlar mustaqil leksik ma’noga ega, shuning uchun ularni ko‘plik qo‘shimchasi deb bo‘lmaydi, zamonaviy xitoy tilidagi “们” (men-kimsalarga nisbatan ko‘plik suffiksi) dan farq qiladi. Ular “bir guruh, bir turkum” degan ma’nolarni bildirib, aniq matn tarkibida olmoshlarning ko‘plik ma’nosini yasaydi.

«Zojuan» “Jao Gong hukmronligining 24 yili” (左传·昭公二十四年) bo‘limidan¹⁵³ quyidagi misolni keltiramiz:

“吾侪何知焉？” Wú chái hé zhī yān? (Biz buni qaerdan bilamiz?)

Qadimgi yozma manbalarni ko‘zdan kechirayotganimizda, quyidagilarni ko‘plikdagi kishilik olmoshlari deb qabul qilishimiz kerak:

wǒ bèi wǒ shǔ wú shǔ wú chái
“biz” – 我辈, 我属, 吾属, 吾侪;

ruò cáo rǔ cáo gōngděng ruò shǔ
“siz” – 若曹, 汝曹, 公等, 若属;

bǐ děng
“ular” – 彼等.¹⁵⁴

II. Ko‘rsatish olmoshlari. narsa-buyum, kimsani ko‘rsatish uchun ishlatiladigan olmoshlardir. Qadimgi xitoy tilida ko‘rsatish olmoshlari o‘z o‘rnida 5 guruhga bo‘lingan:

1. Yaqinni ko‘rsatuvchi olmoshlar (近指)
2. Uzoqni ko‘rsatuvchi olmoshlar (远指)
3. Gumon olmoshlari (虚指)
4. Bo‘lishsizlik olmoshlari (无指)
5. Belgilash olmoshlari (旁指)

1. Venyanda asosan “是” “此” “斯” “兹” “之” yaqin masofani ko‘rsatuvchi olmoshlar bo‘lib, “bu”; “bu yer”; “bu yerda”; “bunday” kabi tarjima qilingan.

● 之子于归, 宜其室家。 Zhī zǐ yú guī, yí qí shì jiā. – Bunday qiz turmushga chiqsa, borgan xonadonini baxtli qiladi. («Shijing» “Jounan” bo‘limi)¹⁵⁵

2. Venyanda asosan “夫” “彼” “其” olmoshlari uzoq masofani ko‘rsatuvchi olmoshlar sifatida qo‘llanilgan, “ana u”, “ana u yer”, “unday” kabi ma’nolarni anglatgan.

¹⁵³ 22,604

¹⁵⁴ 34,126

¹⁵⁵ 22,357

3. Qadimgi xitoy tilida asosan “^{mǒu}某”, “^{huò}或” bu ikki gumon olmoshlari ishlatilgan bo‘lib, “**kimdir**”, “**nimadir**” kabi ma’nolarni anglatgan. “^{mǒu}某” gapda aniqlovchi va ega, “^{huò}或” esa asosan ega vazifasini bajara olgan.

● 项燕为楚将，数有功，爱士卒，楚人怜之。或以为死，或以为亡。Xiàngyàn wèi chǔ jiāng, shuò yǒu gōng, àishìzú, chǔ rén lián zhī. huò yǐ wéi sǐ, huò yǐ wéi wáng. – Syangyan Chu davlatining buyuk sarkardasi bo‘lib, ko‘p marotaba qahramonlik ko‘rsatgan, askarlarni himoya qilgan, Chu xalqi uni qadrlaydi. Ba’zilar u uchun xalok bo‘lgan, ba’zilar esa qochib ketishgan. («Tarixnoma» “Chenshe shijya”)¹⁵⁶

4. Bo‘lishsizlik olmoshlaridan qadimgi venyanda “^{mò}莫” “^{wú}无” ishlatilgan. “**Hech kim**”, “**hech narsa**” tarzida tarjima qilinadi.

● 子曰：“莫我知也夫！”Zǐ yuē: “mò wǒ zhī yě fū!” – Konfusiy dedi: “Hech kim meni tushunmaydi!” («Lunyuy» “Syanven” bo‘limi)¹⁵⁷

5. Qadimgi xitoy tilida belgilash olmoshi vazifasini asosan “^{tā}他” olmoshi bajargan. Dastlab “^{tā}他” kishilik olmoshi emas, balki belgilash ma’nosini bildiruvchi olmosh sifatida qo‘llanilgan. “**Boshqa**”, “**boshqalar**” tarzida tarjima qilinadi.

● 无他故焉。Wú tā gù yān. – Bu yerda boshqa sabab yo‘q. («Syun-zi» “Vang chji” bo‘limi)¹⁵⁸

III. So‘roq olmoshlari biror kimsa, narsa-buyum, belgi yoki son haqidagi so‘roqni bildiradigan olmoshlardir. Qadimgi xitoy tilidagi so‘roq olmoshlari ikki turga bo‘lingan:

- 2) kishi haqidagi so‘roq olmoshlar;
- 3) narsa-buyum haqidagi so‘roq olmoshlar.

Venyanda kishi haqidagi so‘roqni yasash uchun asosan “^{shuí}谁”, “^{shú}孰” ishlatilgan, “**kim**”, “**qay biri**” ma’nolarini anglatgan.

(1) 此谁也？Sǐ shuí yě? – Bu kim? («Kurashuvchi podsholiklar» “Chi strategiyasi”)

(2) 父与夫孰亲？Fù yǔ fū shú qīn? Ota bilan er qaysi biri yaqinroq? («Zojuan» “Xuan Gong hukmronligining 15 yili”)¹⁵⁹

Venyanda narsa-buyum haqidagi so‘roqni yasash uchun ko‘pincha “^{hé}何”, “^{hé}曷”, “^{hú}胡”, “^{xī}奚”, “^{ān}恶” wū, “^{shú}安”, “^{shú}孰” kabilar qo‘llanilgan. Quyida har birini alohida ko‘rib chiqamiz:

1. “何” (hé) narsa-buyum va joy nomi haqidagi so‘roqni bildirishi mumkin. Grammatik vazifalari:
 - a) to‘ldiruvchi (“qaerga”);
 - b) aniqlovchi (“qanday”);
 - v) hol (“qayday qilib”);
 - g) kesim (“nima uchun”).

¹⁵⁶ 34,682

¹⁵⁷ 22,87

¹⁵⁸ 18,140

¹⁵⁹ 34,1458

軫不之楚，何归乎？ Zhěn bú zhī chǔ, hé guī hū? – Jen Chu mamlakatiga bormas ekan, unda qaerga boradi? («Tarixnoma» “Jang I tarjimai holi” bo‘limi)¹⁶⁰

2. “曷” (hé) so‘roq olmoshi bo‘lib kelganida, asosan narsa-buyumni bildiradi. Uning grammatik vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) ega (“nima”);
- b) to‘ldiruvchi (fe‘l yoki predlogdan oldin keladi, “nimani”);
- v) hol (“nima uchun”, “qanday qilib”);
- g) aniqlovchi (“qaysi”, “qanday”).

庄王怒曰：“吾使子往视之，子曷为告之？” Zhuāng wáng nù yuē: “wú shǐ zǐ wǎng shì zhī, zǐ hé wéi gào zhī?” – Chu mamlakati qiroli Juang g‘azab ila dedi: “Men sizni Song mamlakatidagi ahvol haqida bilib kelish uchun jo‘natgandim, siz nima uchun ularga bizning ahvol haqida aytdingiz?” («Gongyang juan» “Syuan Gong hukmronligining 15 yili”)¹⁶¹.

3. “胡” (hú) so‘roq olmoshi asosan narsa-buyum haqidagi so‘roqni bildiradi. Grammatik vazifalari:

- a) hol (“nima uchun”, “qanday qilib”);
- b) to‘ldiruvchi (“nima”).

4. “安” (ān) so‘roq olmoshi qadimgi xitoy tilida ko‘pincha joy nomi haqidagi so‘roqni anglatgan, ba’zida narsa-buyumni ham bildirgan. Grammatik vazifalari:

- a) hol (“qanday qilib”, “nima uchun”);
- b) to‘ldiruvchi (“qaerda”, “nima”).

沛公安在？ Rèi gōng ān zài? – Peygong qaerda? («Tarixnoma» “Syangyuy tarjimai holi” bo‘limi)

5. “奚” (xī) odatda joy nomi va narsa-buyumni bildiruvchi so‘roq olmoshi bo‘lib, gapdagi grammatik vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) hol (“qanday qilib”, “nima uchun”);
- b) to‘ldiruvchi (“nima”).

6. “恶”¹⁶² (wū) odatda narsa-buyum, joy nomi, holatni bildiruvchi so‘roq olmoshi bo‘lib, grammatik vazifalari quyidagicha:

- a) hol (“qanday qilib”, “nima uchun”);
- b) to‘ldiruvchi (fe‘l yoki predlogdan oldin keladi, “nimani”).

敢问夫子恶乎长？ Gǎn wèn fūzǐ wū hū zhǎng? – Iltimos ayting-chi, ustoz qaysi sohani mukammal egallagan? («Meng-zi» “Gong Song choushang” bo‘limi)¹⁶³

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Qadimgi xitoy tilida mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari qanday farqlangan? Ularning turlarini aytib bering.
2. Qadimgi xitoy tilida ot va fe‘lning ifodalanishiga misollar keltiring.
3. Qadimgi xitoy tilida olmoshlar turlari haqida gapiring.
4. Qadimgi xitoy tilida son kategoriyasi qanday ifodalangan?

¹⁶⁰ 34,559

¹⁶¹ 34,567

¹⁶² Венинда “恶” кўп маъноли сўз бўлиб, 1) феъл (wù): “ёмон кўрмок”; 2) сифат (è): “ёмон”; 3) от (è): “ёмон одам”, “ёмонлик” 4) сўрок олмоши (wū) маъноларига эга.

¹⁶³ 22,136

Amaliy mashg'ulot vazifa va savollari:

1. Yan Syuan-Chji. "Loyan ibodatxonalari haqida" matni
2. Matnni grammatik tahlilini amalga oshiring, mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga ahamiyat bering.

Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar

1. Dramaturg Zhu De Qing haqida ma'lumot yig'ish
2. Qadimgi va zamonaviy xitoy tilida musatqil so'z turkumlarini solishtirish, yordamchi so'z turkumlari mavzusida referat tayyorlash.

8-Mavzu. Xitoy tilida ko'p talaffuzli iyerogliflar.

Darsning o'quv maqsadi: Talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil iyerogliflar; talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil iyerogliflar haqida ma'lumotga ega bo'lish.

Tayanch tushunchalar: talaffuz, ma'no, iyeroglif, "Duoyinzi" 多音字, omonimlar 同音词.

Xitoy tilida ko'p talaffuzli iyerogliflarni "duoyinzi"¹⁶⁴ (多音字) deb ataladi. "Duoyinzi" deganda xitoy tilshunoslari hozirgi zamonda xitoy jamiyatida qo'llanilayotgan anchagina tarkibni egallagan ko'rinishi (yozilishi) bir xil, o'qilishi (talaffuzi) bir-biridan farq qiladigan, shuning bilan birga, ma'no jihatdan o'xshamaydigan yoki yaqin bo'lgan iyerogliflarni ko'z oldiga keltiradilar.¹⁶⁵ Ko'p talaffuzli iyerogliflar muammosi tilshunos 沈 棣 (Shen Yan) tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, uning "小学多音多义字手册" (Boshlang'ich maktablar uchun ko'p talaffuzli, ko'p ma'noli so'zlar qo'llanmasi) kitobi mavjud. Bu qo'llanmada 270 ga yaqin ko'p talaffuzli iyerogliflar, ularning o'qilishi, ularning turli leksik birliklarning tarkibida qo'llanilishi shuningdek gaplarda ishlatilishi tahlil qilingan.

Masalan, "长" iyeroglifi shu ko'rinishda ikki xil talaffuzga ega, birinchi talaffuzida "cháng" deb o'qilib, "uzun" degan ma'noni anglatadi. Ikkinchi talaffuzda "jǎng" deb o'qilib, "o'smoq, rivojlanmoq" degan ma'nolarni anglatadi. "差" iyeroglifi esa to'rt xil tarzda talaffuz qilinadi. Birinchisida u "chā" (birinchi ohangda) kabi o'qilib, "ayirma, farq" degan ma'nolarni anglatadi. Ikkinchi talaffuzida "chà" (to'rtinchi ohangda) o'qilib "deyarli, ma'qul" degan ma'noda keladi. Uchinchi talaffuzida "chāi" deb o'qilib "safar, komandirovka" degan ma'nolarni bildiradi. To'rtinchi talaffuzida "cē" deb o'qilib, "asabiy, tajang" degan ma'nolarni ifoda etadi.

Xuddi shu kabi, "乐" iyeroglifi ikki xil talaffuzga egadir. Ulardan birinchisi "lè" deb o'qiladi va "xursand bo'lmoq, shodlanmoq" degan ma'nolarni bildiradi, shuningdek, bunday ko'rinishda o'qilganda aynan xursandchilik, shodlik va quvonch bilan bog'liq bo'lgan so'zarning tarkibida keladi. Ikkinchi o'qilishi esa to'rtinchi tondagi "yuè" bo'lib, bunday o'qilganda "乐" iyeroglifi "musiqa" ma'nosini anglatadi hamda musiqa, musiqiy asboblari va musiqiy atamalar tarkibida keladi.

Yana bir iyeroglif "看"ning ham ikki xil talaffuz usuli mavjud. Bular birinchi ohangdagi "kān" va to'rtinchi ohangdagi "kàn" dir. "kān" deb o'qilganda bir nechta ma'nolarni anglatadi, ya'ni "nazorat qilmoq, qarab turmoq, ko'z-quloq bo'lib turmoq", "qamoqqa olmoq, vaqtincha qamamoq" kabi. Ikkinchi talaffuzidek "kàn" deb o'qilganda esa "qaramoq, nazar solmoq", "o'qimoq, ko'rmoq", "kuzatmoq" kabi ma'nolarni anglatadi.

¹⁶⁴ Tilshunoslari «duoyinzi»ga "polifonar" deb nom berganlar, bu so'z yunoncha so'z bo'lib, "ko'p talaffuzli" degan ma'noni anglatadi. "俄汉对教语言学名词" (Xitoycha-ruscha lingvistik atamalar lug'ati), Pekin, 1962 yil, 85-bet

¹⁶⁵ Xitoy olimi Chen Shuan (陈玄) bu toifadagi iyerogliflarning soni mingtadan ortiq bo'lsa kerak deb ta'kidlaydi. "Hanzi yindu jule", Pekin, 1958 bet, 1 bet.

“扫” iyeroglifini olsak, u ikki xil talaffuzga ega. “sǎo” (uchinchi tonda) talaffuzi “uy supurmoq” degan ma’noni anglatadi. “sáo” (ikkinchi tonda) kabi talaffuz etilganda “supurgi” degan ma’noni anglatadi.

Yana bir iyeroglif “量” ham ikki xil ravishda o’qiladi. Birinchi talaffuzi ikkinchi ohangdagi “liáng” bo’lib, “o’lchamoq” ma’nosini anglatadi. Ikkinchi talaffuzi esa to’rtinchi ohangdagi “liàng” bo’lib, “miqdor, hajm, o’lchov” kabi ma’nolarni anglatadi. Keltirilgan navbatdagi ikki so’zda esa ohang morfologik vazifani, ya’ni so’z turkumini farqlash vazifasini bajarmoqda.

Yuqoridagi misollarda nafaqat so’zlarning o’qilishi balki ma’nosi ham o’zgarganligini ko’rishimiz mumkin. Demak, xitoy tilida muayyan bitta iyeroglif bir yoki undan ortiq talaffuzlarga ega bo’lishi, bundan tashqari bir yoki undan ma’nolarni ham anglatishi mumkin ekan. Shuning uchun ham, xitoy tilida so’zlaganda har bir so’zning ohangiga e’tibor bergan holda so’zlash maqsadga muvofiq bo’ladi. Aks holda, suhbatdoshlar o’rtasida turli xil tushunmovchiliklar kelib chiqish ehtimoli bor.

“Duoyinzi”ni xitoy iyeroglifshunoslari o’z navbatida ikki turga bo’ladilar:

1. Ko’p talaffuzli, ko’p ma’noli iyerogliflar “duoyin duoyizi” (多音多义字)¹⁶⁶ yoki “duoyin butong, yiyi ye butong” (读音不同，意义也不同-o’qilishi har xil, ma’nosi ham har xil).¹⁶⁷
2. Bir ma’noli ko’p talaffuzli “tongyi doinzi” (同义多音字)¹⁶⁸ yoki “duyin butong, yiyi xiangtong huo xiangjin” (读音不同，意义相同或相近 o’qilishi har xil, ma’nosi bir xil yoki bir-biriga yaqin iyerogliflar).¹⁶⁹

Muhim tomoni shundaki, biz ko’p talaffuzli so’zlar (多音字) ni omonimlar (同音词)dan farqlay bilishimiz lozim. Xitoy tilida omonim so’zlarning soni juda ko’p. Yer yuzidagi eng omonimik til deb hisoblanadi. *Omonim so’zlar* (同音词 tóngyīncí) - talaffuzi bir, ammo shakli har xil so’zlarga aytiladi. Bu ta’rifga qo’shimcha qilib shuni aytish kerakki, talaffuzi bir xil bo’lishi bilan birga etimologik ohangi ham bir xil bo’lishi kerak. Omonimlarning xususiyatlarini to’liq ko’rsatish uchun nafaqat etimologik tasnifini, balki struktura (bo’g’in hajmi) tasnifini ham berish kerak. Masalan:

“大车” (Dà chē) - Arava; ot; uy hayvonlari qo’shiladigan 2 yoki 4 g’ildirakli arava.

“大车” (Dà chē) - poezd mashinisti, kemada mexanizmlarni boshqaruvchi kishilarga nisbatan ishlatiladigan so’zning mulozamatli ko’rinishi.

“抽风” (Chōufēng) - Akashak (falaj) bo’lmoq; fe’l; oyoq-qo’l tomirlarining tortishib, akashak bo’lib qolishi, yuz asablarining falajligi alomati.

“抽风” (Chōufēng) - Tortib chiqarmoq; fe’l; muayyam moslama yordamida havoni so’rib, tortib chiqarishda ishlatiladi.

1.1. Talaffuzi har xil, ma’nosi ham har xil iyerogliflar. (读音不同，意义也不同)

¹⁶⁶ “汉字基础知识”(Xitoy iyerogliflari haqida asosiy bilimlar), Urumchi, 1996 yil, 50-bet

¹⁶⁷ “小学多音多义字手册”(Boshlang’ich maktablar uchun ko’p talaffuzli, ko’p ma’noli so’zlar qo’llanmasi), 沈梭, Pekin, 1990 yil, 2-bet

¹⁶⁸ “汉字基础知识”(Xitoy iyerogliflari haqida asosiy bilimlar), Urumchi, 1996 yil, 51-bet

¹⁶⁹ “小学多音多义字手册”(Boshlang’ich maktablar uchun ko’p talaffuzli, ko’p ma’noli so’zlar qo’llanmasi), 沈梭, Pekin, 1990 yil, 2, 3-bet

Bu atamaning mazmunini xitoy tilshunoslari bizga shunday ta'riflaydi: "Muayyan xitoy iyeroglifi ikki yoki undan ortiq talaffuzga ega bo'lsa va bu talaffuzlarning har biri o'z oldiga mustaqil ma'noni ifoda etsa, biz ularni o'qilishi har xil, ma'nosi ham har xil iyerogliflar deb ataymiz".

Ko'p talaffuzli ko'p ma'noli so'zlarda bitta iyeroglif turli xil talaffuzga ega bo'ladi, bunda talaffuz faqat etimologik ohang orqali farqlanibgina qolmay balki tovushla jihatdan ham farqlanishi mukindir. Masalan, "禁" iyeroglifining ikki xil o'qilishi mavjud: "jīn" va "jìn". Ko'rinib turibdiki, ular faqat etimologik ohang orqali farqlanmoqda, ya'ni birinchi talaffuzda birinchi ohangda o'qilsa, ikkinchi talaffuzda esa to'rtinchi ohangda o'qiladi. Bo'g'inlarning ikkalasi ham bir xil tovushlar: *j*, *i*, *n* dan tashkil topgan. Ma'no jihatdan esa turli xil ifodalanadi, ya'ni "jīn" deb o'qilganda "chidamoq, sabr qilmoq, dosh bermoq" kabi ma'nolarni ifodalasa, "jìn" deb talaffuz qilinganda esa "taqiqlamoq, man qilmoq, yo'l qo'ymaslik" kabi ma'nolarni ifodalanadi. Demak, etimologik ohang ma'no farqlash xususiyatiga ega ekan.

Yana bir iyeroglif "卡" esa biroz boshqacharoq tahlil qilinadi, chunki uning talaffuzlari bir-biridan nafaqat ohang jihatdan balki tovushlar jihatdan ham farqlanadi, ya'ni uning birinchi o'qilishi uchinchi ohangda "kǎ" deb o'qilsa, ikkinchi talaffuzi "qiǎ" deb o'qiladi. Ma'no jihatdan "kǎ" deb o'qilganda "yuk mashinasi, gruzovik", "kartochka", "kaloriya" kabi ma'nolarni ifodalaydi. "qiǎ" deb o'qilganda esa "tiqilib qolmoq, qadalib qolmoq", "to'g'nag'ich" kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Ko'rinib turibdiki, birinchi talaffuz "k" va "a" tovushlaridan, ikkinchi talaffuz esa "q", "i" va "a" tovushlaridan tashkil topgan. Xitoy tilida bunday iyerogliflar ko'plab uchraydi.

Masalan, "调" iyeroglifi "diào" deb o'qilganda "o'tkazmoq, ko'chirib o'tkazmoq" degan ma'noni anglatasa, uning ikkinchisi "tiào" deb o'qilishi "aralashtirmoq, tayyorlamoq" degan ma'nolarni anglatadi. Mazkur iyeroglif "diào" deb o'qilganda "调查" (diàochá; tekshiruv), "声调" (shēngdiào; ohang), "曲调" (qǔdiào; kuy, tarona,navo), "腔调" (qiāngdiào; talaffuz, intonatsiya) kabi so'zlarning tarkibida kelishi mumkin. "tiáo" deb o'qilganda esa "调整" (tiáojiǔ; to'g'rilamoq, tartibga solmoq), "调皮" (tiáopí; sho'xlik qilmoq, o'ynashmoq), "协调" (xiétiáo; muvofiqlashtirmoq, uyg'unlashtirmoq) kabi so'zlarning tarkibida keladi.¹⁷⁰

1.2. Talaffuzi har xil, ma'nosi bir xil yoki yaqin iyerogliflar.

(读音不同，意义相同或相近)

Xitoy tilida shunday iyerogliflar borki, ular u yoki u so'zlarni va so'z elementini ifodalaganda har xil talaffuzga ega bo'ladi, ammo bu hol ularning ma'nosini mutlaq o'zgarishiga olib kelmaydi. Ana shu turdagi iyerogliflarni o'qilishi har xil, ma'nosi bir xil yoki bir-biriga yaqin iyerogliflar deyiladi.

Ko'p talaffuzli bir yoki yaqin ma'noli so'zlarda ham bitta iyeroglif turli xil talaffuzga ega bo'ladi, bunda talaffuz faqat etimologik ohang orqali farqlanibgina qolmay balki tovushla jihatdan ham farqlanishi mukindir. Masalan, "难" iyeroglifining ikki xil o'qilishi mavjud: "nán" va "nàn". Ko'rinib turibdiki, ular faqat etimologik ohang orqali farqlanmoqda, ya'ni birinchi talaffuzda birinchi ohangda o'qilsa, ikkinchi talaffuzda esa to'rtinchi ohangda o'qiladi. Bo'g'inlarning ikkalasi ham bir xil tovushlar: "n", "a" va "n" dan tashkil topgan. Ma'no jihatdan esa bir biriga yaqin ma'nolarni ifodalaydi, ya'ni "nán" deb o'qilganda "og'ir, qiyin, mashaqqatli", "yoqimsiz, yaramas" kabi ma'nolar ifodalansa, "nàn" deb o'qilganda esa "baxtsizlik, qiyinchilik, mashaqqat, musibat" kabi ma'nolar ifodalanadi.

Yana bir iyeroglif "馱" esa biroz boshqacharoq tahlil qilinadi, chunki uning talaffuzlari bir-biridan nafaqat ohang jihatdan balki tovushlar jihatdan ham farqlanadi, ya'ni uning birinchi

¹⁷⁰ "汉字基础知识"(Xitoy iyerogliflari haqida asosiy bilimlar), Urumchi, 1996 yil, 51-bet

o'qilishi to'rtinchi ohangda “duò” deb o'qilsa, ikkinchi talaffuzi ikkinchi ohangda “tuó” deb o'qiladi. Ma'no jihatdan “duò” deb o'qilganda “yuk (hayvonlarga orilgan yuk)” kabi ma'nosini ifodalaydi. “tuó” deb o'qilganda esa “yuk tashimoq, ko'tarib yurmoq” kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Ko'rinib turibdiki, birinchi talaffuz “d”, “u” va “o” tovushlaridan, ikkinchi talaffuz esa “t”, “u” va “o” tovushlaridan tashkil topgan. Xitoy tilida bunday iyerogliflar ham ko'plab uchraydi.

Masalan: “剥” iyeroglifi yolg'iz ishlatilganda “bāo” deb o'qiladi va “shilmoq, talamoq” ma'nolarini bildiradi. Lekin u “bōxuē” deb o'qiladigan ikki bo'ginli so'z “剥削”da birinchi bo'g'in bo'lib kelib, endi u “bāo” emas, balki “bō” deb o'qilib ma'no tomondan “bāo” bilan bir xil yoki yaqin ma'noli iyeroglifga aylandi. Chunki “bāo” talaffuzda “shilmoq, talamoq” ma'nolarini bersa, “bō”da esa “ekspluatatsiya qilmoq” ma'nosini anglatmoqda.¹⁷¹

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Qadimgi xitoy tilida talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil iyerogliflarga misollar keltiring.
2. Qadimgi xitoy tilida talaffuzi har xil, ma'nosi bir xil yoki yaqin iyerogliflarga misollar keltiring.

Amaliy mashg'ulot vazifa va savollari:

1. Yuefu janridagi she'riyat namunalari. Tan davri xitoy tili. Byanven janri. “Budda xayoti” matni. Matnlarda talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil iyerogliflarning qo'llanilishi.
2. Matnni grammatik tahlilini amalga oshiring, talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil iyerogliflarning qo'llanilishiga ahamiyat bering.

Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar

1. Tan davri she'riyatidan namunalarni tarjima qilish: He Zhi Zhang, Wang Bo, Chen Zi Ang, Wang Hao Ran
2. Qadimgi she'rlarda talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil iyerogliflarning qo'llanilishi.

9-Mavzu. Talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil iyerogliflarga tahlil.

Darsning o'quv maqsadi: “h” tovushi bilan boshlanadigan talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil iyerogliflar tahlili: “还” iyeroglifi, “号” iyeroglifi, “和” iyeroglifi, “横” iyeroglifi. “j” tovushi bilan boshlanadigan talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil iyerogliflar tahlili: “间” iyeroglifi, “降” iyeroglifi, “角” iyeroglifi.

Tayanch tushunchalar: “还” iyeroglifi. “行” iyeroglifi. “号” iyeroglifi. “和” iyeroglifi “横” iyeroglifi. “间” iyeroglifi. “降” iyeroglifi. “角” iyeroglifi.

Mazkur bobda talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil ayrim iyerogliflar tahlil qilinadi. Ularning o'qilishi, shuningdek so'zlarning, so'z birikmalarining va gaplarning tarkibida kelishidagi muayyan farqlarga asosiy e'tibor qaratiladi. O'rganish oson bo'lishi uchun biz faqat “h” va “j” tovushidan boshlanuvchi iyerogliflarnigina tahlil qildik.

2.1. “h” tovushi bilan boshlanadigan talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil bo'lgan iyerogliflar tahlili

¹⁷¹“汉字基础知识”(Xitoy iyerogliflari haqida asosiy bilimlar), Urumchi, 1996 yil, 53-bet

“还” iyeroglifi.

“还” iyeroglifi ikki xil ko‘rinishda talaffuz qilinadi.¹⁷² Birinchi o‘qilishi “hái” bo‘lib, bunda “hali ham, hali”, “yana”, “hattoki” kabi ma‘nolarni anglatadi. Bunday o‘qilganda “还” iyeroglifi quyidagi so‘zlarning tarkibida kelib, bir qator ma‘nolarni anglatadi: “还是” (háishi) ikki bo‘g‘inli so‘zi “haliyam, baribir” kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Bu iyeroglifning ikkinchi o‘qilishi “huán” sifatida talaffuz qilinib, “qaytmoq; qaytarmoq” ma‘nolarini anglatadi. Bunday o‘qilganda “hai” iyeroglifini quyidagi so‘zlarda uchratishimiz mumkin: ikki bo‘g‘inli “还乡” (huánxiāng) so‘zi “vatanga qaytmoq” deb tarjima qilinadi; yana bir ikki bo‘g‘inli so‘z “还手” (huánshǒu) esa “zarbaga zarba bilan javob qaytarmoq” ma‘nosini bildiradi. “讨价还价” (tǎojiāhuánjiǎ) so‘z birikmasida ham mazkur iyeroglif “huán” tarzida o‘qiladi va bu so‘z birikmasi “savdolashmoq” degan ma‘noni anglatadi. Endi bu iyeroglifning ishlatilishini gapda ko‘rib chiqamiz:

公园里菊花开了，有黄的，有白的，还 (hái) 有红的。

(Gōngyuán lǐ júhuā kāile, yǒu huáng de, yǒu bái de, hái yǒu hóng de.)
Bog‘dagi xrizantema gullabdi, sariq, oq, yana qizil rangdagilari bor.

还(huán)我书，还我书，我要读书！

(Huán wǒ shū, huán wǒ shū, wǒ yào dúshū!)
Kitobimni qaytar, qaytar, men kitob o‘qimoqchiman!

Yuqoridagi gaplarning birinchisida “还” iyeroglifi “有” bilan birikma hosil qilib, “bundan tashqari, yana” ma‘nolarini anglatmoqda va gapda hol vazifasini bajarmoqda. Ikkinchi gapda esa “还” iyeroglifi buyruq maylidagi fe‘lni ifodalab, gapda kesim vazifasini bajarmoqda.

“行” iyeroglifi.

“行” iyeroglifning ham ikki xil o‘qilishi bor.¹⁷³ Ulardan birinchisi “háng” bo‘lib, “qator”, “kasb”, “idora, do‘kon” kabi bir qancha ma‘nolarni anglatadi. Bu iyeroglif “外行” (wàiháng) so‘zining tarkibida kelib, bu so‘z “bexabar, yetarlicha bilmaydigan” kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Shuningdek, “bank” ma‘nosini anglatuvchi “银行” (yínháng), “firma, savdo uyi” ma‘nolarini beruvchi “商行” (shāngháng), “o‘z ishining ustasi, mutaxassis” ma‘nolarida qo‘llaniluvchi “行家” (hángjia) kabi so‘zlarning tarkibida kelganda ham “háng” kabi o‘qiladi. Bu iyeroglifning ikkinchi o‘qilishi “xíng” bo‘lib, bunday talaffuz qilinganda “行” iyeroglifi “yurmoq, bormoq”, “qilmoq, harakat qilmoq”, “uddalamoq, eplamoq” kabi ma‘nolarni anglatadi. U quyidagi so‘zlarning tarkibida keladi: “ish-harakat, faoliyat” kabi ma‘nolarni anglatuvchi “行为” (xíngwéi) so‘zining birinchi bo‘g‘ini bo‘lib; “ro‘yobga chiqarmoq, hayotga tatbiq qilmoq” ma‘nolarini anglatuvchi “实行” (shíxíng) so‘zining ikkinchi bo‘g‘ini bo‘lib; “keng yoyilmoq, urf bo‘lmoq” kabi ma‘nolarni ifodalaydigan “风行” (fēngxíng) so‘zining ikkinchi bo‘g‘ini bo‘lib keladi. Bu iyeroglifning ishlatilishini quyidagi ayrim gaplarda ham ko‘rib chiqamiz:

井上菊花架，河边柳成行 (háng) 。 (“绿化祖国”)

(Jǐngshàng júhuā jià, hé biān liǔ chéngxíng. (“Lǜhuà zǔguó”))

¹⁷² “小学多音多义字手册”(Boshlang‘ich maktablar uchun ko‘p talaffuzli, ko‘p ma‘noli so‘zlar qo‘llanmasi), 沈嵎, Pekin, 1990 yil, 116-bet

¹⁷³ “小学多音多义字手册”(Boshlang‘ich maktablar uchun ko‘p talaffuzli, ko‘p ma‘noli so‘zlar qo‘llanmasi), 沈嵎, Pekin, 1990 yil, 118-bet

Yerda xrizantemalardan gilam to'shalgan, daryo bo'yida esa majnuntollar saflanib turardi. ("Vatanni ko'kalamzorlashtirish")

不要紧，只要你再给我增加点“营养”就行 (xíng)。 (“三人行”)

(Bùyào jǐn, jǐyào nǐ zài gěi wǒ zēngjiā diǎn “yíngyǎng” jiùxíng (xíng). (“Sān rén xíng”))

Hech qisi yo'q, faqat meni yana ozgina “parvarish” qilsangiz, bas. (“Yurayotgan uch kishi”)

Yuqorida keltirib o'tilgan ikkita gapning birinchisida “行” iyeroglifi “成行” so'zining tarkibida kelmoqda va “saflanmoq, saf tortmoq, qator hosil qilmoq” ma'nosini anglatmoqda va gapda kesim vazifasini bajarmoqda. Ikkinchi gapda esa modal so'z vazifasini bajarib yolg'iz holda ishlatilmoqda.

“号” iyeroglifi.

Yana bir iyeroglif “号” bo'lib, u ham ikki xil talaffuzga egadir.¹⁷⁴ Birinchi talaffuzda mazkur iyeroglif “háo” kabi o'qiladi. Bunday o'qilganda “uvlamoq, faryod qilmoq, ho'ngrab yig'lamoq” ma'nolarini ifodalaydi. Quyidagi so'zlarni tarkibida kelganda aynan shunday talaffuzda qo'llaniladi, masalan: “ho'ngramoq, bo'zlab yig'lamoq” ma'nolarida keluvchi “号哭” (háokū) so'zining birinchi bo'g'ini bo'lib kelganda; “avjiga olmoq, kuchaymoq (shamolga nisbatan)” ma'nosini bildiruvchi “怒号” (nùháo) so'zining ikkinchi bo'g'ini bo'lib kelganda; uch bo'g'inli “uchar olmaxon (zoologiya)” ma'nosini beruvchi “寒号鸟” (hánháoniǎo) so'zining ikkinchi bo'g'ini bo'lib kelganda birinchi talaffuzda o'qiladi. Ikkinchi o'qilishi esa “hào”, ya'ni to'rtinchi tonda o'qiladi va “nomlanish, atalish”, “belgi”, “raqam, tartib raqami” kabi ma'nolarni anglatadi. Bunday o'qilganda “号” iyeroglifi quyidagi so'zlarning tarkibida keladi: ikki bo'g'inli “符号” (fúhào) so'zining birinchi bo'g'ini sifatida kelib “shartli belgi” ma'nosini bildiradi; ikki bo'g'inli “信号” (xínghào) so'zining ham birinchi bo'g'ini bo'lib keladi va “signal” ma'nosini anglatadi; “gorn chaluvchi, karnaychi” ma'nolarini anglatuvchi ikki bo'g'inli “号手” (hàoshǒu) so'zining birinchi bo'g'ini bo'lib keladi; shuningdek “发号施令” (fāhàoshīlìng) iborasining tarkibida kelganda ham to'rtinchi ohangda “hao” deb o'qiladi va bu ibora “buyruqbozlik bilan shug'ullanmoq” degan ma'noda qo'llaniladi. Endi bu iyeroglifning gaplarda ishlatilishini ko'rib chiqamiz:

可怜的寒号(háo)鸟在半夜里冻死了。 (“寒号鸟”)

(Kělián de hán hào (háo) niǎo zài bànyè lǐ dòng sǐle. (“Hán hào niǎo”))

Bechora uchar olmaxon yarim kechadi muzlab nobud bo'libdi. (“Uchar olmaxon”)

宝石岛观察通讯站的信号(hào)兵，姓高，刚从黑龙江探亲回来。 (“彩色的翅膀”)

(Bǎoshí dǎo guānchá tōngxùn zhàn de xínghào (hào) bīng, xìng gāo, gāng cóng hēilóngjiāng tànqīn huílái. (“Cǎisè de chibǎng”))

Gemia orolining pochta-kuzatuv bo'limining familiyasi Gao bo'lgan signal beruvchisi hozirgina Heilongjiangdan qarindoshlaridan xabar olib keldi. (“Rang-barang qanotlar”)

Yuqoridagi gaplarning birinchisida “hao” iyeroglifi “hanhaoniao” so'zining tarkibida kelgan va gapda ega vazifasini bajarmoqda. Ikkinchi gapda esa “xinhaobing” so'zining tarkibida kelib, gapda ega vazifasini bajarmoqda.

“和” iyeroglifi.

Olti xil talaffuzga ega bo'lgan “和” iyeroglifini tahlil qiladigan bo'lsak,¹⁷⁵ uning birinchi talaffuzi ikkinchi ohangdagi “hé” bo'lib, bunday o'qilganda “va, bilan”, “xushmuomalalik,

¹⁷⁴ “小学多音多义字手册”(Boshlang'ich maktablar uchun ko'p talaffuzli, ko'p ma'noli so'zlar qo'llanmasi), 沈嵛, Pekin, 1990 yil, 120-bet

¹⁷⁵ “小学多音多义字手册”(Boshlang'ich maktablar uchun ko'p talaffuzli, ko'p ma'noli so'zlar qo'llanmasi), 沈嵛, Pekin, 1990 yil, 124-bet

ochiqko'ngillik" kabi bir qator ma'nolarni anglatadi va quyidagi so'zlarning tarkibida keladi: "iliq" ma'nosini bildiruvchi ikki bo'ginli "温和" (wēnhé) so'zining ikkinchi bo'g'ini bo'lib kelganda; "xushmuomala, ochiqko'ngil" kabi ma'nolarga ega bo'lgan ikki bo'g'inli "和善" (héshàn) so'zining birinchi bo'g'ini bo'lib kelganda; "murosali kelishuv, murosali suhbat" kabi ma'nolarni anglatuvchi "和谈" (hétán) so'zining birinchi bo'g'ini sifatida kelganda aynan "hé" sifatida talaffuz qilinadi. Bundan tashqari "xayrixohlik qiluvchi, xayrixoh" kabi ma'nolarda ishlatiluvchi "和风细雨" (héfēngxìyǔ) iborasi tarkibida ham "hé" deb o'qiladi. Iyeroglifning ikkinchi o'qilishi to'rtinchi ohangda "hè" bo'lib, bunday o'qilganda "jo'r bo'lib ashula aytmoq, ashulaga qo'shilmoq" degan ma'nolarni anglatadi. Uni quyidagi so'z birikmasi tarkibida uchratishimiz mumkin: "你唱我和" (nǐchàngwǒhé), ya'ni "siz kuylang, men jo'r bo'laman"; shuningdek, "随声附和" (suíshēngfùhé) iborasida to'rtinchi bo'g'in bo'lib kelib "birovning gapini ma'qullamoq" ma'nosini bildiradi. "和" iyeroglifining uchinchi xil o'qilishi ikkinchi ohangdagi "hú" bo'lib, bunday o'qilganda "yutqizmoq" ma'nosini anglatadi, bunday talaffuzdagi "和" iyeroglifining ishlatilish doirasi ancha tor bo'lib, ko'proq qadimgi xitoy tiliga xosdir. Iyeroglifning uchinchi xil o'qilishi ikkinchi ohangdagi "huó" bo'lib, "和面" (huómian) so'zining tarkibida kelganda "xamirni qorimoq" ma'nosini, "和泥" (huóní) so'zining tarkibida kelganda esa "loyni pishitmoq" ma'nosini anglatadi. Iyeroglifning beshinchi o'qilishi to'rtinchi ohangdagi "huò" bo'lib, "和药" (huòyào) va "和食" (huòshí) kabi so'zlarning tarkibida qo'llaniladi, hamda mos ravishda "dori aralashtirmoq" va "ovqatni aralashtirmoq" ma'nolarini bildiradi. "和" iyeroglifining oltinchi xil talaffuzi neytral tonga ega bo'lib, "huo" deb o'qiladi. Bunda mazkur iyeroglif ikki bo'g'inli so'zlarning faqat ikkinchi bo'g'ini bo'lib kela oladi. Masalan: "iliq, ilitmoq" ma'nolarini bildiruvchi "暖和" (nuǎnhuo) soz'i; "aralashtirmoq", "chuvalashtirmoq" kabi ma'nolarni anglatuvchi 搅和 (jiǎohuo) so'zlarning tarkibida aynan oltinchi talaffuzida o'qilishini ko'rishimiz mumkin. Endi esa bu iyeroglifning gaplarda ishlatilishini tahlil qilamiz:

小山羊和(hé)小牛一同吃青草。(“小山羊”)

(Xiǎo shānyáng hé (hé) xiǎo niú yītóng chī qīngcǎo. ("Xiǎo shānyáng"))

Uloqcha va buzoqcha birgalikda o'tlarni yeyishdi. ("Uloqcha")

我拿着食槽去和(huò)食，心想：多喂它们一点儿吧，好让它们多下几个蛋。(“今天我喂鸡”)

(Wǒ nǎzhe shí cáo qù hé (huò) shí, xīn xiǎng: Duō wèi tāmen yīdiǎn er ba, hǎo ràng tāmen duō xià jǐ gè dàn. ("Jīntiān wǒ wèi jī"))

Men oxurchani olib ovqat tayyorlashga ketar ekanman, ko'nglimda o'yladim: "Ularga ko'proq tuxum berishlari uchun ko'proq ovqat beraman". ("Men bugun tovuq boqaman")

他醒过来，觉得很暖和(huo)，就把身子挺一挺。(“一粒种子”)

(Tā xǐng guòlái, juéde hěn nuǎnhuo (huo), jiù bǎ shēnzi tǐng yī tǐng. ("Yī lì jǒngzǐ"))

U uyg'ongach ilqlikni his qildi, darrov qaddini rostladi. ("Bir dona urug'")

Yuqorida keltirilgan uchta gapdan birinchisida "和" iyeroglifi morfologik jihatdan bog'ovchi hisoblanadi. Sintaktik jihatdan gapda uyushiq bo'laklarni bog'lashga xizmat qilmoqda. Ikkinchi gapda esa "和" iyeroglifi "和食" (huòshí) so'zining tarkibida kelmoqda va "ovqat tayyorlamoq" ma'nosini bildirmoqda. Gapda esa murakkab kesim takibida kelmoqda, ya'ni "去和食" – "ovqat tayyorlashga ketdim". Uchinchi gapda esa "和" iyeroglifi "暖和" (nuǎnhuo) sifatining tarkibida kelib, "iliq" degan ma'noni anglatmoqda, gapda to'ldiruvchi vazifasini bajarmoqda.

“横” iyeroglifi.

Yana bir ikki xil talaffuzga ega bo'lgan iyeroglif “横” bo'lib,¹⁷⁶ uning birinchisi o'qilishi quyidagichadir: “héng”. Ikkinchi ohangda “héng” deb o'qilganda quyidagi so'zlarda mazkur iyeroglifni uchratishimiz mumkin: “har holda” degan ma'noni anglatuvchi ikki bo'g'inli “横竖” (héngshù) so'zining birinchi bo'g'ini sifatida; “tartibsiz, alg'ov-dalg'ov, aralash-quralash” ma'nolarida qo'llaniladigan “横七竖八” (héngqīshùbā) birikmasining birinchi bo'g'ini sifatida; “transparent, lavha, mato” kabi ma'nolarni bildirib keluvchi ikki bo'g'inli “横幅” (héngfú) so'zining birinchi bo'g'ini sifatida mazkur iyeroglifning birinchi talaffuzda o'qilishini ko'rishimiz mumkin. Iyeroglifning ikkinchi o'qilishi to'rtinchi ohangdagi “hèng” bo'lib, yolg'iz o'zi ishlatilganda “daga'l, qo'rs, qo'pol, surbet” kabi ma'nolarni anglatadi. Quyidagi so'zlarda aynan shu talaffuzda o'qilishini uchratamiz: “fojiaiviy o'lim” ma'nosini anglatuvchi ikki bo'g'inli “横死” (hèngsǐ) so'zining birinchi bo'g'ini bo'lib kelganda; “haddan oshgan, uchiga chiqqan, ashaddiy” ma'nolarini bildiruvchi “强横” (qiángèng) so'zining ikkinchi bo'g'ini bo'lib kelganda; “o'zboshimcha, boshqani gapiga kirmaydigan” kabi ma'nolarini anglatuvchi “专横” (juānhèng) so'zining ikkinchi bo'g'ini bo'lib kelganda va hokazo.

1931 年，日本帝国主义蛮横(hèng)无理，强占了我国的东北三省。

(1931 Nián, rìběn dìguó jǔyì mánhèng wúlǐ, qiángjiànle wǒguó de dōngběi sānshěng.)

1931 yilda mustabid yapon imperializmi Vatanimizning shimoli sharqidagi uchta provinsiyani istilo qildi.

横(héng)竿又往上升高了两公分，这个高度已经超过了我们学校的最高记录了。(“跳高”)

(Héng gān yòu wǎng shàngshēng gāole liǎng gōngfēn, jège gāodù yǐjīng chāoguòle wǒmen xuéxiào de zuìgāo jìlùle. (“Tiàogāo”))

Planka yana ikki santimetrlarga ko'tarildi, bu balandlik maktabimizning eng yuqori rekordidan oshib ketgandi. (“Balandlikka sakrash”)

Yuqoridagi namunalardagi “横” iyeroglifini tahlil qiladigan bo'lsak, birinchi gapda “变横无理” (bianhengwuli) birikmasining tarkibida kelib to'rtinchi ohangda o'qiladi, bu birikma “mustabid” ma'nosini anglatib, gapda aniqlovchi vazifasini bajarmoqda. Ikkinchi gapda esa “heng” iyeroglifi “横竿” (hénggān) so'zining tarkibida kelib ikkinchi ohangda talaffuz qilinadi, ma'nosi “planka (balandlikka sakrash sport turida ishlatiladigan uzun cho'p)” bo'lib gapda ega vazifasini bajarmoqda.

2.2. “j” tovushi bilan boshlanadigan talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil bo'lgan iyerogliflarning tahlili

“间” iyeroglifi.

“间” iyeroglifi ikki xil talaffuzga ega iyeroglif hisoblanadi.¹⁷⁷ Uning birinchisi o'qilishi “jiān” bo'lib, birinchi tonda o'qiladi. Bunday o'qilganda iyeroglif “orasida, o'rtasida, ichida”,

¹⁷⁶ “小学多音多义字手册”(Boshlang'ich maktablar uchun ko'p talaffuzli, ko'p ma'noli so'zlar qo'llanmasi), 沈嵎, Pekin, 1990 yil, 128-bet

¹⁷⁷ “小学多音多义字手册”(Boshlang'ich maktablar uchun ko'p talaffuzli, ko'p ma'noli so'zlar qo'llanmasi), 沈嵎, Pekin, 1990 yil, 140-bet

“xona, bo'lma, uy” ma'nolarini anglatishi mumkindir. Mazkur quyidagi so'zlarning tarkibida kelganida aynan shunday talaffuzga ega bo'ladi: “o'rtasida, markazida” degan ma'nolarni anglatadigan ikki bo'g'inli “中间” (zhōngjiān) so'zining ikkinchi bo'g'ini bo'lib kelganida; “xalqona, xalq ichida” ma'nolarini anglatuvchi ikki bo'ginli “民间” (mínjiān) so'zining ikkinchi bo'g'ini bo'lib kelganda; “vaqt, davr, muddat” kabi ma'nolarni ifodalovchi ikki bo'g'inli “期间” (qíjiān) so'zining ikkinchi bo'g'ini bo'lib kelganda va hokazo. Bunday misollardan ko'rinib turibdiki, “间” iyeroglifi birinchi ohangda o'qilganida ko'pincha so'zlarning oxirgi bo'g'ini bo'lib kelar ekan. Iyeroglifning ikkinchi talaffuzi to'rtinchi ohangdagi “jiàn” kabi o'qiladi va “”ikki hodisa o'rtasidagi masofa, ikki hodisa o'rtasidagi vaqt davri” va “yagan qilmoq, siyraklashtirmoq” kabi ma'nolarni anglatishi mumkin. Quyidagi gaplarda “间” iyeroglifi aynan to'rtinchi ohangda o'qiladi: ikki bo'g'inli “bilvosita, egri yo'l bilan” kabi ma'nolarni bildiradigan “间接” (jiànjiē) so'zining birinchi bo'g'ini bo'lib kelganida; “oraliqdagi masofa, oraliq” ma'nolarini bildiruvchi ikki bo'g'inli “间隙” (jiànxi) so'zining birinchi bo'g'ini bo'lib kelganida va hokazo. Iyeroglifning gapda ishtirok etishiga e'tibor qaratamiz:

小书法家伍卫，天天练字，从不间断(jiàn)断。

(Xiǎo shūfǎ jiā wu wèi, tiāntiān liàn zì, cóng bù jiànduàn.)

Kichkina xattot Wuwei har kuni iyerogliflarni yozishni mashq qilardi, hech ham tanaffus qilmasdi.

课间(jiān)活动真是丰富多彩。(“课间十分钟”)

(Kè jiān huódòng zhēnshì fēngfù duōcǎi. (“Kè jiān shí fēnzhōng”))

Tanaffuslardagi mashg'ulotlar rostdan ham turli-tumandir. (“O'n daqiqalik tanaffus”)

Yuqorida keltirilgan ikkita gapning birinchisida “间” iyeroglifi “间断” (jianduan) so'zining tarkibida kelib “tanaffus, tanaffus qilmoq” ma'nosini anglatmoqda va gapda kesim vazifasini bajarmoqda. Bu so'zning tarkibida “间” iyeroglifi “jiàn” tarzida o'qiladi. Ikkinchi gapda “间” iyeroglifi “课间” so'zining tarkibida kelib “tanaffus (darslar o'rtasidagi tanaffus)” degan ma'noni anglatmoqda va mazkur gapda eganing aniqlovchisi vazifasini bajarmoqda. Bunday ishlatilganda “间” iyeroglifi birinchi ohangda “jiān” kabi talaffuz qilinadi.

“降” iyeroglifi.

Mazkur iyeroglif ham ikki xil talaffuzga egadir.¹⁷⁸ Ulardan birinchisi, to'rtinchi ohangdagi “jiàng” bo'lib, iyeroglif shunday o'qilganda “tushmoq, yiqilmoq, qo'nmoq”, “pasaymoq, pasaytirmoq” kabi ma'nolarni bildiradi. Masalan, “降落” (jiàngluò) so'zi aynan shunday ma'nolarni anglatadi. Shuningdek, ikki bo'g'inli “降雨” (jiàngyǔ) so'zi “yomg'ir yog'moq” ma'nosini; ikki bo'g'inli “降价” (jiàngjià) so'zi “narxlarini pasaytirmoq” ma'nosini; ikki bo'g'inli “降温” (jiàngwēn) so'zi “haroratni pasaytirmoq” ma'nolarini anglatadi. So'z birikmasi misolida qaraydigan bo'lsak, “夜幕降临” (yèmùjiànglín) turg'un birikmasining ma'nosi “tun cho'kish” bo'lib, bu birikmada ham “降” iyeroglifi to'rtinchi ohangda “jiàng” kabi o'qiladi. Mazkur iyeroglifning ikkinchi xil talaffuzi ikkinchi ohangdagi “xiáng” kabi o'qiladi va “taslim bo'lmoq, topshirilmoq”, “uddalamoq, uddasidan chiqmoq, eplamoq” kabi ma'nolarni anglatadi. Bunday talaffuz qilinganda mazkur iyeroglifni quyidagi so'zlar tarkibida uchratishimiz mumkindir: “bo'ysunmoq, itoat etmoq, taslim bo'lmoq” kabi ma'nolarni

¹⁷⁸ “小学多音多义字手册”(Boshlang'ich maktablar uchun ko'p talaffuzli, ko'p ma'noli so'zlar qo'llanmasi), 沈嵎, Pekin, 1990 yil, 142-bet

anglatuvchi ikki bo'g'inli “**降服**” (xiángfú) so'zining birinchi bo'g'ini bo'lib kelganda; “taslimchilik, jur'atsizlik” ma'nolariga ega bo'lgan ikki bo'g'inli “**投降**” (tóuxiáng) so'zining ikkinchi bo'g'ini bo'lib kelganda va hokazo hollarda. Bu iyeroglifning gaplarda ishlatilish xususiyatiga e'tibor bering:

蒲公英妈妈准备了降(jiàng)落伞，把它送给了自己的娃娃。(“植物妈妈有办法”)

(Púgōngyīng māmā zhǔnbèile jiàngluòsǎn, bǎ tā sòng gěile zìjǐ de wáwá. (“Zhíwù māmā yǒu bànfǎ”))

Qoqigulning onasi parashyut tayyorladi, uni o'zining bolasiga sovg'a qildi. (“O'simliklar onasida yechim bor”)

他愿意脱离东吴，带兵士和粮草。投降(xiáng)曹操。(“赤壁之战”)

(Tā yuànyì tuōlí dōng wú, dài bīngshì hé liángcǎo. Tóuxiáng cáocāo. (“Chìbì zhī zhàn”))

U Dongwuni tark etib, askarlar, oziq-ovqat va yem-xashak olib keldi. Caocaoga taslim bo'ldi. (“Chibidagi jang”)

Yuqoridagi gaplarning birinchisida “**降**” iyeroglifi “jiàng” tarzida o'qiladi. Ushbu gapda mazkur iyeroglif “**降落伞**” (jiàngluòsǎn) so'zining birinchi bo'g'ini bo'lib kelmoqda va “parashyut” parashyut ma'nosini anglatib, gapda to'ldiruvchi vazifasini bajarib kelmoqda. Ikkinchi gapda “**降**” iyeroglifi “xiáng” tarzida talaffuz qilinadi. Bu gapda “**投降**” so'zining tarkibida kelib, “taslim bo'lmoq” ma'nosini anglatmoqda va gapda kesim vazifasini bajarmoqda.

“角” iyeroglifi.

“**角**” iyeroglifi uchinchi ohangdagi “jiǎo” va ikkinchi ohangdagi “jué” kabi ikkita talaffuzga egadir.¹⁷⁹ Uning anglatadigan ma'nolari turli-tumandir, shu sababli mazkur iyeroglif nafat polifon, balki o'z navbatida polisema hisoblanadi. Uning birinchi talaffuzi “jiǎo” quyidagi bir qancha ma'nolarni ifodalaydi: “shox(hayvon shoxi)”, “burun (geografik atama)”, “burchak” kabi. Quyidagi so'zlarda iyeroglifning aynan shunday o'qilishini kuzatishimiz mumkin: “buqa shoxi” ma'nosini anglatuvchi ikki bo'g'inli “**牛角**” (niújiǎo) so'zining ikkinchi bo'g'ini bo'lib kelganda; “urush, janjal, nizo” ma'nolarini anglatuvchi ikki bo'g'inli “**口角**” (kǒujiǎo) so'zining ikkinchi bo'g'ini bo'lib kelganda; “shimoli-sharqiy burun” ma'nosiga ega bo'lgan uch bo'g'inli geografik atama “**东北角**” (dōngběijiǎo) so'zining uchinchi bo'g'ini bo'lib kelganda va hokazo hollarda. Iyeroglifning ikkinchi o'qilishi ikkinchi ohangda “jué” kabi talaffuz qilinadi va “rol, personaj, qahramon”, “artist, akter, aktrisa” kabi ma'nolarga egadir. “rol, personaj” kabi ma'nolarni anglatadigan “**角色**” (juésè) so'zining birinchi bo'g'ini bo'lib kelganda, “bosh qahramon” ma'nosini anglatadigan ikki bo'g'inli “**主角**” (zhǔjué) so'zining ikkinchi bo'g'ini bo'lib kelganda bu iyeroglif aynan “jué” kabi o'qiladi. Bu iyeroglifning gapdagi xususiyatlarini ham tahlil qilib chiqamiz:

只有我才是文章的主角，没有我，话就说的没完没了。(“标点符号的吵闹”)

(Zhǐyǒu wǒ cái shì wénzhāng de zhǔjué, méiyǒu wǒ, huà jiù shuō de méiwán méiliǎo. (“Biāodiǎn fúhào de chǎonào”))

Faqat men matnning bosh qahramoniman, agar men bo'lmasam, gap tugallanmay qoladi. (“Tinish belgilari jangi”)

每当夜幕降临的时候，八角楼上的灯就亮了。(“八角楼上”)

(Měi dāng yèmù jiànglín de shíhou, bājiǎo lóu shàng de dēng jiù liàngle. (“Bājiǎo lóu shàng”))

¹⁷⁹ “小学多音多义字手册”(Boshlang'ich maktablar uchun ko'p talaffuzli, ko'p ma'noli so'zlar qo'llanmasi), 沈桢, Pekin, 1990 yil, 148-bet

Har safar tun cho'kayotgan paytda sakkiz burchakli uyning chirog'i yonadi. ("Sakkiz burchakli uy")

“角” iyeroglifining ishlatilishi yuqoridagi gaplarda yaqqol ifodalangan bo'lib, mazkur iyeroglif birinchi gapdagi namunada ikkinchi ohangda “jué” tarzida talaffuz qilinadi. Mazkur gapda “jiao” iyeroglifi “主角” (zhujue) so'zining ikkinchi bo'g'ini bo'lib kelmoqda, bu so'z “bosh qahramon, bosh rol” ma'nolarini bildirib mazkur gapda murakkab ot-kesim vazifasini bajarib kelmoqda. Ikkinchi gapda esa “角” iyeroglifini “八角” (bajiao) so'zining tarkibida ko'rishimiz mumkin. Bu so'z “sakkiz burchakli” ma'nosini anglatadi va gapda aniqllovchi vazifasini bajarmoqda.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. “h” tovushi bilan boshlanadigan talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil bo'lgan iyerogliflar tahlilini amalga oshiring
2. “j” tovushi bilan boshlanadigan talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil bo'lgan iyerogliflarning tahlilini amalga oshiring

Amaliy mashg'ulot vazifa va savollari:

1. Lin-Szi Lu. Yuylu tilining ayrim xususiyatlari. Matnda talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil ierogliflarning qo'llanilishi.
2. Sun davri xitoy tili. “Yuylu Chju Si” matni. Matnda talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil ierogliflarning qo'llanilishi.
3. Matnni grammatik tahlilini amalga oshiring, talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil ierogliflarning qo'llanilishiga ahamiyat bering.

Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar

1. Tan davri she'riyatidan namunalarni tarjima qilish: Du Fu, Zhang Duan, Bai Ju Yi
2. Qadimgi she'rlarda talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil ierogliflarning qo'llanilishi.

10 Mavzu. Talaffuzi har xil ma'nolari bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan iyerogliflarning tahlili

Darsning o'quv maqsadi: “b” tovushi bilan boshlanadigan talaffuzi har xil, ma'nolari bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan ierogliflarning tahlili: “把” ieroglifi, “耙” ieroglifi, “背” ierogliflarning tahlili, ular ishtirokidagi misollarni tahlil qilish, talaffuzi har xil, ma'nosi bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lishi haqida misollar yordamida ma'lumotga ega bo'lish.

“d” tovushi bilan boshlanadigan talaffuzi har xil, ma'nolari bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan ierogliflarning tahlili: “弹” ieroglifi, “倒” ieroglifi, “钉” ieroglifi ishtirokidagi misollarni tahlil qilish, talaffuzi har xil, ma'nosi bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lishi haqida misollar yordamida ma'lumotga ega bo'lish.

Tayanch tushunchalar: “把” ieroglifi, “耙” ieroglifi, “背” ieroglifi, “弹” ieroglifi, “倒” ieroglifi, “钉” ieroglifi.

“b” tovushi bilan boshlanadigan talaffuzi har xil ma'nosi bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan iyerogliflarning tahlili

“把” ieroglifi.

“把” iyeroglifi ikki xil talaffuzga ega hisoblanadi.¹⁸⁰ Ulardan birinchisi to’rtinchi ohangda “bà” kabi o’qilib, ko’pincha “dasta, sop. tutqich” ma’nosida qo’llaniladi. Bunday o’qilganda “把” iyeroglifini quyidagi so’zlarning tarkibida uchratishimiz mumkin: “门把儿” (mén bàr) so’zining ikkinchi bo’g’ini bo’lib kelib, “eshik dastasi, eshik tutqichi” degan ma’noni anglatadi; “刀把子” (dāobàzi) degan uch bo’g’inli so’zning ham ikkinchi bo’g’ini bo’lib kelib, “pichoq sopi” degan ma’noni bildiradi; “壶把儿” (húbàr) so’zining ham ikkinchi bo’g’ini bo’lib keladi va “choynak dastasi” ma’nosini anglatadi. Yuqoridagi misollardan ko’rinib turibdiki, “把” iyeroglifi to’rtinchi ohangda talaffuz qilinganda faqat ot so’z turkumiga mansub bo’lar ekan. Endi esa mazkur iyeroglifning ikkinchi talaffuzini ko’rib chiqsak. “把” iyeroglifining ikkinchi talaffuzi uchinchi ohangda “bǎ” kabi o’qiladi va “ushlamoq, tutmoq”, “ko’rsatmoq (qo’l bilan)” kabi ma’nolarni anglatadi, ya’ni bunday o’qilganda ko’pincha fe’l bo’lib kelishini kuzatishimiz mumkin. Quyidagi so’zlar va so’z birikmalari tarkibida kelganida “把” iyeroglifi aynan uchinchi ohangda o’qiladi: “mash’ala” ma’nosini anglatadigan ikki bo’g’inli “火把” (huǒbǎ) so’zining ikkinchi bo’g’ini bo’lib kelganda; “arava shotisi, (velosipedning) ruli” kabi ma’nolarda ishlatiladigan “车把” (chēbǎ) so’zining ikkinchi bo’g’ini bo’lib kelganda; “himoya qilmoq, asramoq” ma’nolarida qo’llaniluvchi ikki bo’g’inli “把守” (bǎshǒu) so’zining bi9rinchi bo’g’ini bo’lib kelganda. Shuningdek, aynan shunday o’qilganda “ba” iyeroglifi hisob so’zi vazifasini ham bajarishi mumkin. Masalan: “一把刀” (yībǎdāo) – bitta pichoq; “一把椅子” (yībǎyǐzi) – bitta stul; “一把伞” (yībǎsǎn) – bitta soyabon va hokazo. “把” iyeroglifini quyidagi gaplardagi ishlatilishiga e’tibor bering:

我们连忙挖了一个坑，把(bǎ)木牌竖好。(“不要从这儿走”)

Biz tezlik bilan bitta chuqur qazib taxta doskalarni qo’yib qo’ydik. (“Bu yerdan yurish kerak emas”)

(Wǒmen liánmáng wǎle yīgè kēng, bǎ mù pái shù hǎo. (“Bùyào cóng jè’er zǒu”))

他臂戴红袖章，腰挎大刀，刀把(bà)上飘着红绸。(“望着远方”)

(Tā bì dài hóng xiùjāng, yāo kuà dàdāo, dāobà shàng piāojiē hóng chóu. (“Wàngjiē yuǎnfāng”))

Uning yelkasida qizil yenglar hilpirab turar, belida katta pichoq osilgan, pichog’ining sopida qizil shoyi mato parchasi osilib turardi. (“Uzoqqa intilib”)

Yuqoridagi ikki gapdan birinchisida “把” iyeroglifi yordamchi so’z vazifasini bajarib kelmoqda, bu so’z o’zbek tilidagi “-ni” tushum kelishigi qo’shimchasiga to’g’ri keladi. Shu sababdan “把” dan keyin kelgan so’z odatda tushum kelishigida bo’ladi va gapda vositali to’ldiruvchi vazifasini bajaradi. Bunday vazifani bajarganda “把” iyeroglifi uchinchi ohangda “bǎ” tarzida o’qiladi. Ikkinchi gapdagi “把” ning ishlatilgan holati “刀把” (daoba) so’zining tarkibida bo’lib, bu so’z “pichoqning sopi” degan ma’noni anglatadi va gapda aniqlovchi vazifasida kelmoqda. Bu so’zning rakibida kelganda “把” iyeroglifi “bà” deb o’qiladi.

“耙” iyeroglifi.

Mazkur iyeroglif ham ikki xil ko’rinishga ega.¹⁸¹ Bu iyeroglifning talaffuzi nafaqat ohangda balki, talaffuzda ishtirok etayotgan tovushlar bilan ham faqrlanadi. Uning birinchi

¹⁸⁰ “小学多音多义字手册”(Boshlang’ich maktablar uchun ko’p talaffuzli, ko’p ma’noli so’zlar qo’llanmasi), 沈嵎, Pekin, 1990 yil, 8-bet

¹⁸¹ “小学多音多义字手册”(Boshlang’ich maktablar uchun ko’p talaffuzli, ko’p ma’noli so’zlar qo’llanmasi), 沈嵎, Pekin, 1990 yil, 9-bet

talaffuzi to'rtinchi ohangdagi "bà" kabi o'qiladi va "mola, sixmola" yoki "mola bosmoq" ma'nolarini ifodalaydi. Quyidagi so'zlar tarkibida kelganda "耙" iyeroglifi aynan shu talaffuzda o'qiladi: "tishli sixmola" ma'nosini anglatadigan uch bo'g'inli "钉齿耙" (dīngchǐbà) so'zining uchinchi bo'g'ini bo'lib kelganda; "diskli sixmola" ma'nosini bildiradigan uch bo'g'inli "圆盘耙" (yuánpánbà) so'zining uchinchi bo'g'ini bo'lib kelganda; "mexanik sixmola" ma'nosida qo'llaniluvchi "耙土机" (bàtǔjī) so'zining esa birinchi bo'g'ini bo'lib kelganda va hokazo. "耙" iyeroglifining ikkinchi o'qilishi "pá" bo'lib, ikkinchi ohang bilan talaffuz qilinadi. Yolg'iz kelganda "xaskash" yoki "xaskash bilan kuramoq" ma'nolarini anglatadi. "taxta xaskash" degan ma'noni bildiruvchi ikki bo'g'inli "木耙" (mùpá) so'zining ikkinchi bo'g'ini bo'lib kelganda; "xaskash (ko'pincha temir xaskash)" ma'nosini ifodalovchi ikki bo'g'inli "钉耙" (dīngpá) so'zining ikkinchi bo'g'ini bo'lib kelganda mazkur iyeroglif "pá" deb o'qiladi. Yuqoridagi misollardan kelib chiqadigan bo'lsak, bu iyeroglif asosan ish qurollari atamalarini hosil qilishda qo'llanilar ekan. Endi esa mazkur iyeroglifning gaplarda qo'llanilishini tahlil qilamiz:

这块地已经耙(bà)过两遍了。

(Jè kuài dì yǐjīng bàguò liǎng biànlè.)

Bu bir parcha yerga allaqachon ikki marta mola bosildi.

我把谷子耙(pá)开晒晒。

(Wǒ bǎ gǔzi pá kāi shài shài.)

Men tariqni oftobda quritish uchun yoyib qo'ydim.

Yuqoridagi gaplardan birinchisida "耙" iyeroglifi to'rtinchi ohangda "bà" kabi talaffuz qilinadi, mazkur gapda "耙" iyeroglifi mustaqil fe'l bo'lib kelib, "mola bosmoq" ma'nosini anglatmoqda va gapda kesim vazifasini bajarmoqda. Ikkinchi gapda kelgan "把" iyeroglifi esa ikkinchi ohangda "pá" deb talaffuz qilinadi va bu gapda "耙" iyeroglifi "开" (kāi) fe'li bilan birikma hosil qilmoqda va murakkab kesimga aylanmoqda. Gapda ushbu birikma "yoymoq" ma'nosini anglatmoqda.

"背" iyeroglifi.

"背" iyeroglifi ikki xil talaffuzga ega iyeroglif hisoblanadi.¹⁸² Birinchi talaffuzida birinchi ohangda "bēi" deb o'qiladi va "tashimoq", "javobgarlikni o'z bo'yniga olmoq" kabi ma'nolarni anglatadi. Bunday o'qilganda "背" iyeroglifi quyidagi so'zlarning tarkibida kelishini kuzatamiz: "qarzga botmoq, qarzdor bo'lmoq" ma'nolarini anglatuvchi ikki bo'g'inli "背债" (bēizhài) so'zining birinchi bo'g'ini bo'lib kelganda; "yelka kamari" ma'nosida ishlatiladigan ikki bo'g'inli "背带" (bēidài) so'zining birinchi bo'g'ini bo'lib kelganda; "ryukzak (yelkaga osiladigan sumka)" ma'nosida ishlatiladigan ikki bo'g'inli "背囊" (bēináng) so'zining birinchi bo'g'ini bo'lib kelganda birinchi talaffuzda o'qiladi. Ushbu iyeroglifning ikkinchi o'qilishi to'rtinchi ohangdagi "bèi" kabi talaffuz qilinib, asosan "orqa", "orqa tomon, tashqi tomon" kabi ma'nolarni ifodlaydi. Quyidagi so'zlar tarkibida iyeroglifning shunday o'qilishini ko'rishimiz mumkin: "voz kechmoq, bahridan otmoq" ma'nolarini bildiruvchi ikki bo'g'inli "背离" (bèilí) so'zining birinchi bo'g'ini bo'lib kelganda; "omadi chopmaslik, omadsizlik" ma'nolarini anglatuvchi ikki bo'g'inli "背运" (bèiyùn) so'zining birinchi bo'g'ini bo'lib

¹⁸² "小学多音多义字手册" (Boshlang'ich maktablar uchun ko'p talaffuzli, ko'p ma'noli so'zlar qo'llanmasi), 沈嵎, Pekin, 1990 yil, 17-bet

kelganda; shuningdek “qadrdon joylarini tark etmoq” ma’nosida qo’llaniladigan “离乡背井” (líxiāngbèijǐng) iborasining uchinchi bo’g’ini bo’lib kelganda va hokazo holatlarda. “背” iyeroglifining gaplardagi ishlatilishini quyida ko’rib chiqamiz:

雷锋对小同学说：“来，我背(bēi)你们过桥。” (“过桥”)

(Léifēng duì xiǎo tóngxué shuō: “Lái, wǒ bēi nǐmenguò qiáo.” (“Guò qiáo”))

Leifeng kichkina o’quvchilarga qarab dedi: “Kelinglar, men sizlarni orqalab ko’prikdan o’tkazib qo’yaman.” (“Ko’prikdan o’tish”)

我听说，去年你在背(bèi)地里说我的坏话！ (“狼和小羊”)

(Wǒ tīng shuō, qùnián nǐ zài bèidì lǐ shuō wǒ de huàihuà! (“Láng hé xiǎo yáng”))

Eshitishimcha, o’tgan yili orqamdan mening g’iybatimni qilib yurganmishsan! (“Bo’ri bilan qo’zichoq”)

Yuqorida keltirilgan gaplardagi “背” iyeroglifining ishlatilishini tahlil qiladigan bo’lsak, mazkur gaplarning birinchisida bu iyeroglif birinchi ohangda “bēi” deb o’qiladi va bu gapda mustaqil fe’l bo’lib kelmoqda, ma’nosi “orqalamoq” bo’lib, gapda kesim vazifasini bajarmoqda. Ikkinchi gapda esa “背地里” (beidili) so’zining tarkibida kelmoqda. Bu so’z “yashirinch, zimdan” kabi ma’nolarni bildiradi. Bu so’z gapda hol vazifasini bajarmoqda. Bu so’zning tarkibida kelganda “背” iyeroglif to’rtinchi ohangda “bèi” tarzida talaffuz qilinadi.

“d” tovushi bilan boshlanadigan talaffuzi har xil ma’nosi bir xil yoki bir-biriga yaqin bo’lgan iyerogliflarning tahlili

“弹” iyeroglifi.

“弹” iyeroglifi ikki xil talaffuzga ega,¹⁸³ ulardan birinchisi to’rtinchi ohangdagi “dàn” bo’lib, uning tub ma’nosi “sharcha”, “snatyad, bomba”dir. Quyidagi so’zlar tarkibida kelganda “弹” iyeroglifi “dan” deb talaffuz qilinadi: “sharcha, o’q” ma’nolarini ifodalovchi ikki bo’g’inli “弹丸” (dànwán) so’zining birinchi bo’g’ini bo’lib kelganda; “bomba yoki snaryadning qoldiqlari” ma’nosini bildiruvchi ikki bo’g’inli “弹片” (dànpiàn) so’zining birinchi bo’g’ini bo’lib kelganda; “o’q-dorilar” ma’nosini ifodalab keladigan ikki bo’g’inli “弹药” (dànyào) so’zining birinchi bo’g’ini bo’lib kelganda; “granat” ma’nosini ifodalovchi uch bo’g’inli “手榴弹” (shǒuliúdàn) so’zining uchinchi bo’g’ini bo’lib kelganda va hokazo holatlarda. “弹” iyeroglifi yana ikkinchi ohangda “tán” deb ham o’qiladi va bunday talaffuz qilinganda “o’q uzmoq, o’q otmoq”, “o’ynamoq”, “chertmoq” kabi ma’nolarni ifodalab keladi. Buni quyidagi so’zlarda ko’rishimiz mumkin: “egiluvchanlik, qayishqoqlik” ma’nolarini ifodalovchi ikki bo’g’inli “弹性” (tánxìng) so’zining birinchi bo’g’ini bo’lib kelganda; shuningdek, “弹钢琴” (tán gāngqín) birikmasida ham “tan” deb o’qilib, bu birikma “piano chalmoq” degan ma’noni bildiradi. “tan” iyeroglifi ishtirok etgan bir nechta gaplarni ko’rib chiqamiz:

暗堡里射出来的子弹(dàn)在他身边啾啾地响着。 (“英雄爆破手”)

(Ànbǎo lǐ shè chūlái de zǐdàn zài tā shēnbiān jiūjiū dì xiǎngzhe. (“Yīngxióng bàopò shǒu”))

Bunkerdan portlab chiqqan snaryad ovozi uning tanasi oldida jarangladi. (“Portlatuvchi qahramon”)

接着，他一边弹(tán)琴，一边用低沉的声音教我们唱国际歌。 (“我的爸爸”)

¹⁸³ “小学多音多义字手册”(Boshlang’ich maktablar uchun ko’p talaffuzli, ko’p ma’noli so’zlar qo’llanmasi), 沈嵎, Pekin, 1990 yil, 71-bet

(Jiēzhe, tā yībiān tán qín, yībiān yòng dīchén de shēngyīn jiào wǒmen chàng guójìgē. (“Wǒ de bà ba”))

So’ngra, u ham pianino chalib, ham past ovozda bizga kuylashni o’rgatardi. (“Mening otam”)

Yuqorida keltirilgan ikkita gapdan birinchisida “弹” iyeroglifi “子弹” (zídàn) so’zining tarkibida kelib, to’rtinchi ohangda “dàn” kabi talaffuz qilinmoqda. Bu so’z gapda aniqlovchi vazifasini bajarib kelmoqda va “snaryad, bomba” ma’nolarini anglatmoqda. Ikkinchi gapda esa “弹” iyeroglifining o’qilishi “tán”ga o’zgaradi. Bu gapda bu so’z fe’l so’z turkumiga xos bo’lib, gapda kesim vazifasini bajarmoqda va “chalmoq” ma’nosini anglatmoqda. Umuman, “弹” iyeroglifi “tán” kabi o’qilganda musiqiy asboblarni chalmoq ma’nosini bildiradi.

“倒” iyeroglifi.

“倒” iyeroglifi ham ikki xil talaffzuga ega bo’lib, ¹⁸⁴ ulardan birinchisi uchinchi ohangdagi “dǎo” bo’lib ko’pincha “yotmoq, qulamoq, ag’darilmoq” degan ma’nolarni bildirib keladi. Quyidagi so’zlarda ushbu iyeroglifning birinchi talaffuzida o’qilishi ko’rishimiz mumkin: “peresadka, peresadka qilmoq” ma’nolarini anglatuvchi ikki bo’g’inli “倒车” (dǎochē) so’zining birinchi bo’g’ini bo’lib kelganda; “sinish, bankrot bo’lish” ma’nolarini anglatuvchi ikki bo’g’inli “倒闭” (dǎobì) so’zining birinchi bo’g’ini bo’lib kelganda; “qulamoq (hukumatga nisbatan)” ma’nosini ifodalovchi ikki bo’g’inli “倒台” (dǎotái) so’zining birinchi bo’g’ini bo’lib kelganda va hokazo holatlarda. Ushbu iyeroglifning ikkinchi talaffuzi to’rtinchi ohangda “dào” deb o’qiladi va yolg’iz ishlatilganda “oyog’i osmondan teskari” degan ma’noni anglatadi. Quyidagi soz’larda aynan shunday o’qiladigan “dào” iyeroglifini uchratsih mumkin: “teskari tartibda sanamoq” ma’nosini ifodalaydigan ikki bo’g’inli “倒数” (dàoshǔ) so’zining birinchi bo’g’ini bo’lib kelganda; “choy quymoq” ma’nosida keluvchi ikki bo’g’inli “倒茶” (dào chá) so’zining birinchi bo’g’ini bo’lib kelganda; “chekinmoq, tislanmoq, nari ketmoq” kabi ma’nolarni anglatuvchi ikki bo’g’inli “倒退” (dào tuì) so’zining birinchi bo’g’ini bo’lib kelganda “dao” to’rtinchi ohangda talaffuz qilinadi. Bu iyeroglifning gaplarda ishlatilish xususiyatini ko’rib chiqamiz:

恶狼大叫一声，倒(dǎo)了下去。(“机器羊”)

(È láng dà jiào yīshēng, dào le xiàqù. (“Jīqì yàng”))

Baxtiqaro bo’ri bor ovozi bilan baqirib, yiqilib tushdi. (“Robot-qo’y”)

山林倒(dào)映在潭里，湖光山色，非常美丽。(“日月潭”)

(Shānlín dào yǐng zài tán lǐ, húguāngshānsè, fēicháng měilì. (“Rìyuètán”))

To’g-o’rmon manzarasi soyda gavdalanardi, ko’lda tog’ manzarasi yaltirardi, juda chiroyli. (“Oy-yulduz ko’li”)

Yuqorida keltirilgan ikkita gapning birinchisida “倒” iyeroglifi natijaviy fe’l “倒了下去” tarkibida kelmoqda, gapda bu birikma kesim vazifasini bajaradi va “yiqilib tushdi” ma’nosini bajaradi. Bu gapda “倒” iyeroglifi uchinchi ohangda “dǎo” tarzida talaffuz qilinadi. Ikkinchi gapda esa “倒” iyeroglifi “倒映” so’zining birinchi bo’g’ini sifatida kelmoqda va “gavdalanmoq, tasviri tushmoq” ma’nolarini anglatadi. Gapda bu so’z kesim vazifasini bajarib kelmoqda. Bu gapda “倒” iyeroglifi to’rtinchi ohangda “dào” deb talaffuz qilinadi.

“钉” iyeroglifi.

¹⁸⁴ “小学多音多义字手册”(Boshlang’ich maktablar uchun ko’p talaffuzli, ko’p ma’noli so’zlar qo’llanmasi), 沈嵎, Pekin, 1990 yil, 74-bet

Mazkur iyeroglif ham ikki xil talaffuzga ega hisoblanib, ¹⁸⁵uning birinchi xil o'qilishi birinchi ohangda “dīng” kabi talaffuz qilinadi. Bunday talaffuz qilinadi “mix”, “izidan yurmoq, ta'qib qilmoq” degan ma'nolarni anglatadi. Ko'rinib turibdiki “钉” iyeroglifi bir paytning o'zida ham polifon, ham polisema funksiyasini bajarar ekan. Birinchi ohangda talaffuz qilinganda “钉” iyeroglifi quyidagi so'zlarning tarkibida keladi: “knopka (kanselyariya knopkasi)” ma'nosida keluvchi ikki bo'g'inli “图钉” (túdīng) so'zining ikkinchi bo'g'ini bo'lib; “rad etilmoq, norozilikka uchramoq” kabi ma'nolarni anglatuvchi uch bo'g'inli “碰钉子” (pèngdīngzi) birikmasining ikkinchi bo'g'ini bo'lib; “ta'qib qilmoq, kuzatmoq” ma'nolarini bildiruvchi ikki bo'g'inli “钉梢” (dīngshāo) so'zining birinchi bo'g'ini bo'lib kelib, “dīng” kabi o'qiladi. Mazkur iyeroglifning ikkinchi xil o'qilishi to'rtinchi ohangdagi “dīng” bo'lib, bunda iyeroglif “qoqmoq (mixni), mixlamoq”, “tikib qo'ymoq” kabi ma'nolarni bildiradi. Uni so'zlardagi ishlatilishini tahlil etadigan bo'lsak: “mixni qoqmoq” ma'nosini anglatuvchi “钉钉子” (dīngdīngzi) so'z birikmasida; “tugmani tikib qo'ymoq” ma'nosini ifodalashda ishlatiladigan “钉扣子” (dīngkòuzi) birikmasida ham “dīng” deb o'qiladi. Mazkur iyeroglif gaplarda quyidagicha kelishi mumkin:

我愿永远做一个螺丝钉(dīng)。(“雷锋日记”)

(Wǒ yuàn yǒngyuǎn zuò yīgè luósīdīng. (“Léifēng rìjì”))

Men har doim burama mix yasashni xohlayman. (“Leifengning kundaligi”)

他就把那块木板钉(dīng)到船上去了。(“小虫和大船”)

(Tā jiù bǎ nà kuài mù bǎn dīng dào chuánshàng qùle. (“Xiǎo chóng hé dàchuán”))

U darhol o'sha taxta parchasini olib kemaga qoqishga ketdi. (“Chuvalchang va kema”)

Yuqoridagi gaplardan birinchisida “钉” iyeroglifi “螺丝钉” (luósīdīng) so'zining tarkibida kelmoqda. Bu so'zning tarkibida kelganida “钉” iyeroglifi birinchi ohangda “dīng” deb o'qiladi. Bu so'z “burama mix” degan ma'noni anglatib, gapda to'ldiruvchi vazifasini bajarmoqda. Ikkinchi gapda esa “钉” iyeroglifi “钉到” (dīngdào) so'zining tarkibida kelib, “qoqmoq” ma'nosini anglatmoqda. Bu so'z mazkur gapda kesim vazifasida kelmoqda. Aynan shu so'z tarkibida kelganida, “钉” iyeroglifi to'rtinchi ohangda “dīng” kabi talaffuz qilinadi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. “b” tovushi bilan boshlanadigan talaffuzi har xil ma'nosi bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan iyerogliflarning tahlilini amalga oshiring
2. “d” tovushi bilan boshlanadigan talaffuzi har xil ma'nosi bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan iyerogliflarning tahlilini amalga oshiring

Amaliy mashg'ulot vazifa va savollari:

1. Yuan davri ohiri Min davri boshi xitoy tili. “Haqiqatparvar Chjan” matni.
2. Matnda talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil iyerogliflarning qo'llanilishi.

Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar

1. Tan davri she'riyatidan namunalarni tarjima qilish: Li Shang Yin, Wang ma, Jin Chang Zhe
2. Qadimgi she'rlarda talaffuzi har xil, ma'nosi ham har xil iyerogliflarning qo'llanilishi.

¹⁸⁵ “小学多音多义字手册”(Boshlang'ich maktablar uchun ko'p talaffuzli, ko'p ma'noli so'zlar qo'llanmasi), 沈嵎, Pekin, 1990 yil, 82-bet

XULOSALAR

Tahlil etilgan materiallardan kelib chiqib amalga oshirilgan ish bo'yicha quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Xitoy tili tarixi 3000 ming yildan ko'proq davrni qamrab oladi. Ammo Xitoy tili tarixi haqidagi manbalarning kamligi va davrlashtirishdagi qiyinchiliklar sababli hozirgi paytgacha umumqabul qilingan xitoy tili tarixini tasnifi mavjud emas. Ba'zi xitoyshunos olimlar bu borada izlanishlar olib borgan bo'lib, ular tomonidan taklif etilgan davrlashtirish shartli bo'lib, qadimdan bizgacha yetib kelganlari ham adabiy yodgorliklar asosida amalga oshirilgan.
2. Xitoy tilini davrlashtirish masalasi Xitoy tilshunos olimi Van Li ¹⁸⁶ tomonidan «汉语史稿» ¹⁸⁷ (hànyǔ shǐgǎo) kitobida taklif etilgan. U xitoy tili tarixini 4 davrga bo'lgan:

上古期 (shànggǔqī) – ilk yozma manbalarda keltirilgan qadimgi xitoy tili, III asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Asosiy xususiyati: bo'lishsiz va so'roq gaplarda olmosh to'ldiruvchisi fe'ldan oldin joylashishi; shuningdek kirish ohangining (入声 ¹⁸⁸ rùshēng) ikki turi mavjud bo'lganligi. Milodan avval. III va IV asrlar o'tish davrlari hisoblanadi;

中古期 (zhōnggǔqī) – o'rta davr xitoy tili, m.a.IV-milodiy XII asrlarni qamrab oladi. Asosiy xususiyati 是 (shì) bog'lamasi; olib chiqilgan to'ldiruvchili natija konstruksiyasi; 儿 (ér), 子 (zǐ), 了 (le), 着 (zhe) suffikslari (qo'shimchalari); va pasayuvchi ohangning (去声 qùshēng) ¹⁸⁹ paydo bo'lishi. O'tish davri – XII-XIII asrlar;

近代期 (jìndàiqī) – yangi xitoy tili, XIII-XIX asrlar (Afyun urushigacha bo'lgan davr). Xususiyati: shimoliy shevada shunday atalmish “Xira undoshlar” (浊声母 zhuóshēngmǔ), -t bilan tugaydigan qofiyalar va kirish ohangining yo'qolishi. O'tish davri: 1840 yil (Afyun urushining boshlanishi)dan 1919 yil (“4 may” harakati)gacha bo'lgan davr;

现代期 xiàndàiqī – zamonaviy xitoy tili, XX asr boshidan to hozirgi davrgacha bo'lgan jarayon. Xususiyati: g'arb tillari grammatikasining ta'siri kuchayishi, hamda katta miqdorda ko'p bo'g'inli so'zlarning paydo bo'lishi.

3. Qadimgi xitoy tili ikkiga bo'linadi:

qadimgi og'zaki til – 雅言 (yǎyán)

qadimgi yozma til - 文言 (wényán), 白话 (báihuà)

¹⁸⁶ Ванг Ли (王力) (1900-1986) Хитой тилшунос олими, 60 га яқин лингвистик асар муаллифи.

¹⁸⁷ “Хитой тили тарихи таснифи” Пекин (北京) 1958.

¹⁸⁸ Кириш оҳанги (入声) 4 оҳангдан бири. Замонавий хитой тили баъзи диалектларида (粤语-юэ, 吴语-y, 闽南语-мин) халигача сақланиб қолган, аммо путунхуа (хитой оғзаки адабий тили)да аллақачон муомаладан чиққан.

¹⁸⁹ Замонавий хитой тилидаги 4-оҳангга тўғри келади.

Yayan – qadimgi davrlarda shunday atalgan qonun va me'yorlarga solingan og'zaki til hisoblanadi. Yayan Miloddan avval. VII-VI asridan to milodiy III asrigacha (hammasi bo'lib 10 asr atrofida) muomalada bo'lgan.

Venyan – Miloddan avval. VII-VI asrdan to 1919 yil 4 may harakatigacha (hammasi bo'lib 27 asr atrofida) ishlatilgan. Chin (er.avv III asr), Xan (er. avv. 206-eramiz 220) sulolalari davrigacha og'zaki nutqda ishlatilgan va bu sulolalardan keyin olimlar tomonidan shu til qofiyasida yozma shaklga keltirilgan tildir. Venyan Yayan (雅言) asosida vujudga kelgan.

4. Venyan ham bilim hisoblanadi. Xitoy tilini aks ettirish, tasvirlash, uning ichki tuzilishi, xususiyatlari venyanni o'rgangan inson uchun yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Venyanda yozilgan matnlarni o'qib mutola qilinganda xitoy tilining nafisligi, o'ziga xosligi, Xitoy an'nalari, madaniyati, tarixi his qilinadi.
5. Klassik venyan davri adabiy yodgorliklari ichida konfusiysunoslar to'plami tarkibiga kirgan kitoblar alohida o'rin egallaydi. Ushbu to'plam 13 kitobni o'z ichiga oladi.
6. Asrlar mobaynida ieroglifning ma'nolari ko'paydi, shakl hamda ma'no bir-biridan ajraldi, ieroglif va so'z har xil ko'rinishga keldi. Ierogliflarning rivojlanishi va o'zgarishi oqibatida leksik tizimda ham o'zgarishlar yuzaga keldi.
7. Bu esa o'z navbatida qadimgi xitoy tili leksikasida quyidagi to'rt hodisani keltirib chiqardi:

1) 通假字 tōngjiǎzì – o'zlashtirilgan ierogliflar (公^{gōng} o'rniga 功^{gōng}, 果^{guǒ} o'rniga 敢^{gǎn});

2) 古今字 gūjīnzì – qadimgi zamonaviy ierogliflar (莫^{mò} va 暮^{mù}, 两^{liǎng} va 辆^{liàng}, 原^{yuán} va 源^{yuán}, 要^{yào} va 腰^{yāo});

3) 同源字 tóngyuánzì – qardosh ierogliflar¹⁹⁰ (浓^{nóng} va 农^{nóng}, 张^{zhāng} va 涨^{zhǎng});

4) 连绵字 liánmiánzì – juft (birikmali) ierogliflar¹⁹¹ (玲珑^{línglóng}, 参差^{cēncī}, 蜈蚣^{wúgōng}, 妯娌^{zhóulǐ}, 匆匆^{cōngcōng}, 津津^{jīnjīn}).¹⁹²

8. Xitoy tilida bir so'z ko'pincha bir qancha ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Ba'zi paytda polisemiya uchragan so'zlarning o'qilishi ham turlicha bo'ladi. Bu holat qadimgi xitoy tilida nisbatan ko'p uchraydi.
9. Ko'pgina hollarda bitta ieroglifning turlicha o'qilishi faqatgina ohang har xilligida aks etadi. Bundan tashqari, ba'zi so'zlar garchi ko'p ma'nolarga ega bo'lsa-da, ammo o'qilishi o'zgarmaydi. Masalan: “囡” yīn fe'1 bo'lib kelganda “an'anani davom ettirmoq” ma'nosini bildiradi; ravish bo'lganda esa “sababli” ma'nosini bildiradi; old ko'makchi bo'lib kelganida “tufayli” ma'nosini anglatadi, ammo hamma vaqt yīn bo'lib o'qiladi.

O'qilishi bir xil, biroq ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar ma'nosini aniqlashda qadimgi va zamonaviy xitoy tilida anglatgan ma'nolariga ahamiyat berish zarur, lug'at bilan ishlaganda ham venyan hamda bayxua tillariga asoslanib har tomonlama mos bo'lgan ma'noni tanlash maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Polisemiya hodisasi qadimgi xitoy tilida so'z ma'nolarining o'zgarishi hodisasiga sababa bo'lgan.

10. Qadimgi xitoy tilida o'zgalarni atash uchun mo'ljallangan so'zlar guruhi – ehtirom so'zlari (敬称 jìngchēng yoki 尊称 zūnchēng) deb ataladi. Inson o'z-o'zini atash uchun

¹⁹⁰ Дублет, яғни ўқилиши ўхшаш ёки яқин, маъноси ўхшаш ва келиб чиқиши бир бўлган иероглифлар. Бир хил тушунчани касб этувчи иероглифлар. (29,261)

¹⁹¹ Икки бўғинли, ажралмас сўзлар. Улар бир хил товушли (匆匆 cōngcōng), ўхшаш товушли (玲珑 línglóng), ва ҳар хил товушли (蜈蚣 wúgōng) уч кўринишга эга.

¹⁹² 16,16

qo'llaydigan so'zlar guruhi esa – kamtarlik so'zlari (谦称 qiānchēng) deyiladi. Bu ikki guruh so'zlari qadimda keng ishlatilgan, lekin keyinchalik ancha kamaygan.

11. Qadimgi xitoy tilida bitilgan matnlarning o'ziga xos xususiyatlarini yaqqol ko'rsatuvchi ifoda shakllari - murojaat so'zlaridir. Qadimgi Venyan tilida murojaatning ifoda shakllari xilma-xil va hozirgi xitoy tiliga nisbatan ancha ko'p bo'lganligi ilmiy asarlarda keltiriladi. Murojaat shakllarini tanlashda ko'plab ham ob'ektiv omillar: ijtimoiy kelib chiqish, yosh, so'zlovchi va tinglovchining jinsi; ham sub'ektiv omillar: so'zlovchining tinglovchiga nisbatan yondashuvi (neytral, hurmat, yuqori darajadagi hurmat, ataylab insonni g'ururiga, nafsoniyatiga tegish, insonni kamsitish, hafa qilish) ga amal qilingan. Shu munosabat ila, sub'ektiv omillardan kelib chiqib, murojaatning neytral, hurmat, kamsitish shakllari mavjud bo'lgan. Bir xil shakldagi ibora, murojaat so'zi har hil vaziyatlarda ham hurmat ham hurmatsizlik tarzida, hattoki kamsitish shaklida qabul qilinishi mumkin bo'lgan.
12. Qadimgi Xitoy Venyan tilida murojaat shakllari va o'zini atash shakllari hilma-xilligi kuzatiladi. Biron-bir murojaat shaklini tanlashda so'zlashuvchilarning yoshi, jinsi, so'zlashuvning payti, vaziyati kabi ob'ektiv, so'zlashuvchi va tinglovchining bir-biriga munosabati kabi sub'ektiv omillar ta'sir ko'rsatishini inobatga olsak, talabalarda qadimgi Venyan tilidagi matnlarni to'g'ri tarjima qilish ko'nikmasini to'g'ri shakllantirish vazifasi nihoyatda dolzarbdir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy manbalar

1. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat.- T.: O'zbekiston, 2006.- T. 14.-276 b.
1. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. - T.: O'zbekiston, 2005.- T. 13.- 445 b.
2. Li Dejin, Cheng Meizhen. A Practical Chinese Grammar for Foreigners, Beijing.:Slnolingua, 2003.-741 p.
3. Wang Yulin. Mingcheng youlai 1001.- Beijing, 1996.- 245 b
4. Yuyanxue mingci jieshi.- Beijing: Shangwu yinshuguan, 1960.- 156 b.
5. Xiaoxue jiaoshi shiyong yuwenzi. - Beijing: Shangwu yinshuguan, 1999.- 187 b.
6. Sun Chansui. Fanyici, duoyici, bianyici. – Changchun, 1956.- 124 b.

Adabiyotlar

7. N.F. Alefirenko. Sovremennye problemi nauki o yazike. – M.: «Flinta», «Nauka», 2005. – 412 b.
8. Baranov A. N. Vvedenie v prikladnuyu lingvistiku – M.:URSS, 2003. – 358 b.
9. Bartold V.V. Raboti po istorii i filologii tyurkskix i mongolskix narodov. – M.: Vostochnaya Literatura. RAN, 2002 -755 b.
10. Begmatov E.A. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.- T.: Fan, 1982.- 139 b.
11. Berezin F. M. Istoriya lingvisticheskix ucheniy. – M.: Visshaya shkola,1984. 318 b.
12. Gak V. G. Yazikovye preobrazovaniya. – M., «Yaziki russkoy kulturi», 1998, 763 b.
13. Gao Min – kay, Lyu Chjen tan. Issledovanie zaimstvovaniy v sovremennom kitayskom yazike. - Pekin, 1958.- 116 b.
14. Gorelov V.I. Leksikologiya kitayskogo yazika.- M.: Prosveteniye,1984.- 321 b.
15. G'ulomov A.G'. O'zbek tilida so'z yasash usullari haqida.- T.: Uzbekiston Fanlar Akademiyasining Til va Adabiyot Instituti, 1950.- 118 b.
16. Jdankin I.V. Slova yedinisi rechi v kitayskom yazike. - M., 1986- 140 b.
17. Zograf I.T. Mongolsko – kitayskaya interferensiya. Yazik mongolskoy kanselyarii v Kitae. – M.: «Nauka», 1984. – 140 s.
18. Zveginsev V.A. Semasiologiya.- M., 1957.- b.
19. Ivanov A.I., Polivanov Ye.D. Grammatika sovremennogo kitayskogo yazika. - M., 1930.- 110 b.
20. Kamalov F. O'zbek tili leksikasi.- T., 1953.- 157 b.
21. Kandelaki T.L. Semantika i motivirovannost terminov.- M.: Nauka, 1977.- 167 b.
22. Karimov A.A. Xitoy va Janubiy – Sharqiy Osiyo: filologiya, siyosat va falsafa masalalari.// ToshDSHI ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. -T., 2006. – 88 b.
23. Karimov A.A. Xitoy tilining asosiy grammatik birliklari.- T., 2001.- 57 b.
24. Karimov A.A. Xitoyshunoslikning dolzarb muammolari: filologiya,siyosat, iqtisodiyot va falsafa. // ToshDSHI ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. -T., 2006. – 160 b.
25. Korotkov N.N. Osnovnye osobennosti morfologicheskogo stroya kitayskogo yazika.- M., 1968.- 400 b.
26. Kochergin I.V. Ocherki lingvodidaktiki kitayskogo yazika.- M.: Vostok Zapad, 2006.- 190 b.
27. V.I.Koduxov. Vvedenie v yazikoznanie. – M.: «Prosveteniye», 1979. – 350 b.
28. Kurdyumov V.A. Kurs kitayskogo yazika: teoreticheskaya grammatika.- M.: sitadel-treyd, Lada, 2005.- 573 b.
29. Li Szinsi, Lyu Shiju. Uchebnye materialy po grammatike kitayskogo yazika.- Pekin, 1959.- 595 b.
30. Nemchenko V.N. Osnovnye ponyatiya slovoobrazovaniya v terminax.- Krasnoyarsk,

1985.- 203 b.

31. Ne'matov X., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari.- T.: O'qituvchi, 1995.- 135 b.
32. Semanas A.L. Leksikologiya sovremennogo kitayskogo yazika.- M.: Nauka, 1992. – 277 b.
33. Semenas A.L. Leksika kitayskogo yazika.- M.:Muravey, 2000.- 312 b.
34. Sodiqov Q., Inomxo'jaev R., Omonov Q. Sharq filologiyasining tugun va yechimlari. // ToshDSHI ilmiy – amaliy konferensiya materiallari.- T.,2005. – 244 b.
35. Solnsev V.M. Ocherki po sovremennomu kitayskomu yaziku.- M.,1957.- 153 b.
36. Usmonov O., Xamidov Sh. O'zbek tili leksikasi tarixidan.- T.: Fan,1981.- 114 b.
37. Xamatova A.A..Slovoobrazovanie sovremennogo kitayskogo yazika.-M.: Muravey, 2003.- 223 b.
38. Xidoyatova Sh., Karimov A.A. Xitoy tili grammatikasi.- T.: Fan va texnologiya ,2004. – 152 b.
39. Shazamanov Sh.I. Kitay i vneshniy mir: Kitayskiy sposob resheniya regionalnix problem // Sharqshunoslik. T., 1999. №3. S. 5-15.
40. Shoabdurahmonov Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: O'qituvchi,1980.- 114 b.
41. Il'ichko V.F. Kitayskiy yazik: teoriya i praktika perevoda.- M.: Vostok –Zapad, 2004.- 223 b.
42. Il'ukin A.A. Sovremennaya kitayskaya abbreviatura. - M.: Vostok- Zapad, 2004.- 214 b.

Xorijiy tillardagi adabiyotlar

43. Van Li. Xanyuy szyanxua (Leksii po kitayskomu yaziku) Pekin, 1956.76
44. Gao Venda, Van Litin. Sixuy Chjishi (Svedeniya po leksike). Szinan, 1962. 175 b.
45. Go Lyanfu. Syanday xanyuy di syanchjuy xe xouchjuy (prefiksi i suffiksi sovremennogo kitayskogo yazika) // Chjungo yuyven (kitayskiy yazik) 1983 , №4yu 250-256 b.
46. Ding Shenshu. Xiandai hanyu yufa jianghua.- Beijing, 1979.- 228 b.
47. Gao Minkai. Putong yuyanxue. – Shanghai, 1955.- 248 b.
48. Gao Wenda, Wan Lijin. Cihui zhishi.- Jinan, 1962.- 175 b.
49. Huan Yuezhou. Yuwen zhishi.- Veijing, 1957.- 230 b.
50. Jerome L. Packard. The morphology of Chinese: A Linguistic and Cognitive Approach. – Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press; Cambridge University Press, 2001.- 344 b.
51. Jin Shaozhi. Cihui.- Beijing, 1963.- 316 b.
52. Ibragimov N. The Travels of Ibn Battuta to Central Asia. Itahaka Pr, Darnet Pub. Ltd. London, 1999. p.170.
53. Li Jinxi, Liu Shizhu. Hanyu yufa jiaocai. - Beijing, 1957. – 187 b.
54. Li Lanqing. Education for 1.3 billion. – Foregn Language Teaching and Resesrch Press & Pearson Education, Beijing, 2004.- 483 p.
55. Lu Zhiwei. Hanyude goucifa.- Beijing, 1964. – 231 b.
56. Nowotna Z. Affix – like word – formation Patterns in modern Chinese.- Prague, 1969.- 178 b.
57. Ren Xueliang. Han yu jiao cifa.- Beijing, 1981.- 245 b.
58. Sun Chansui. Fanyici, duoyici, bianyici. – Changchun, 1956.- 124 b.
59. Xiao Zhuangzhi. Wuzibiekeshitan.- Beijing : Shehui kexue wenxian, 2004.-250 b.
60. Zhang Jin. Xiandai hanyu.- Shanghai, 1984.- 220 b.
61. Zhang Yongquan. Shiyong E Han Han E fanyi.- Shandong, 2000- 339 b.

62. Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov.- M., 1966.- b.
63. Cihai. – Pekin, 1979.-2215 b.
64. Kitaysko-russkiy slovar. Sost. Fu Chong.- Shanxay, 2004.- 1249 b.
65. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar. 2 izdanie, dopolnennoe. – M.: Bolshaya Rossiyskaya ensiklopediya, 2002. – 707 b.
66. Hojiev A.Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.- T.: Fan, 2002.-165b.

Internet sahifalari

67. <http://www.ncac.gov.cn>
68. <http://www.cninaview.org>

GLOSSARIY

Amaliy tilshunoslik – tilshunoslikning masalalarini amaliy yo‘l va metodlar bilan o‘rganuvchi, tadqiq etuvchi sohalar. Masalan, eksperimental fonetika, lingvostatistika, leksikografiya va b.

Analitik usul – yordamchi so‘zlar vositasida so‘z yasash usuli.

Affiks (lot. affixus – birlashtirilgan, biriktirilgan) – so‘zga zid qo‘yiladigan (leksik ma’noga ega bo‘lmagan), o‘zi qo‘shiladigan asosning lug‘aviy yoki grammatik ma’nolarini shakllanishiga xizmat qiluvchi morfema; qo‘shimcha.

Affiksatsiya – affiks yordamida so‘z yoki shakl yasalishi

Gaplologiya (yun. gaplos – oddiy, logos – tushuncha, ta’limot)

Glossariy – biror bir asarda, kitobda qo‘llanilgan va tushinilishi murakkab bo‘lgan so‘zlarning izoh lug‘ati

Glottogoniya (yun. glotta – til, gonos – to‘g‘ilish) – tilning kelib chiqishi va taraqqiyoti haqidagi ta’limot

Depredikatsiya – predikativ sintagmani nopredikativ sintagma tarzida transformatsiyalash.

Derivatsiya (lot. derivatio – yasash) – m. affiks so‘z yasash

Deskriptiv lingvistika (ing. descriptive – tasviriy) – amerika strukturalizmi, ya’ni til tuzilishi shakliy unsurlarini distributiv usullar yordamida tadqiq etish, o‘rganish.

Determinant – gapning boshlanishida mustaqil tarkibiy qism sifatida kelib, o‘zidan keyingi qismga bir butun shaklda taaluqli bo‘lib, uning yaxlitligicha kengaytiradigan ikkinchi darajali bo‘lak.

Deetimologizatsiya (lot. de – ayirish ma’noli old qo‘shimcha plus etimologiya) – so‘zda etimologik bog‘lanishning yo‘qolishi

Dialektologiya (yun. dialektos – sheva, lahja – logos – tushuncha, ta’limot) – filologiyaning dialekt, lahja va shevalarini o‘rganuvchi bo‘limi

Diaxroniya (yug. dia – orqali + chronos – vaqt) – ayrim til hodisalarining, yaxlitligicha til tizimining tarixiy izchil rivojlanish bosqichlari lingvistik tadqiq etish

Distributiv metod – struktural lingvistikada til unsurlarini muayyan tilga xos qonun–qoidalar asosida bo‘lish metodi.

Ierogliflar (yun. hieroglyphoi – muqaddas yozuvlar) – butun bir so‘z, bo‘g‘in yoki tovushni ifodalash uchun xizmat qiladigan grafik ifoda.

Ilmiy uslub – terminologik va mavhum leksikaning, murakkab sintaktik tuzilmalarning qo‘llanilishi, so‘zlarning konkret, to‘g‘ri ma’noda qo‘llanilishi, maxsus iboralarga ega ekanligi va shu kabilar bilan ajralib turuvchi funksional uslub, metod.

Ilmiy grammatika – nazariy g‘oyalarning so‘nggi yutuqlari asosida yaratiladigan grammatika.

Inherent konnotatsiya – nutqiy matndan tashqarida ham voqealanidigan, so‘zning mavjud bo‘lgan konnotativ ma’nosi.

Interferensiya (lot. inter – ora+ferens, frentis–o‘tkazish) – ona tiliga xos xususiyatlarni o‘rganilayotgan tilga o‘tkazish.

Intralingvistika – tilshunoslikning til ichki tizimini, uning birliklari va kategoriyalarini, til yaruslari va ularning tuzilishini nolisoniy omillarga murojaat qilmay o‘rganuvchi soha.

Kalka (fran. calque – kopiya, nusxa, taqlid) – o‘zga til materialidan qismma – qism nusxa olish vositasida yaratilgan so‘z yoki boshqa bir til birligi.

Kalkalash – o‘zga tilning leksik, frazeologik birliklarining modellari asosida o‘z til unsurlaridan foydalanib, yangi so‘z yoki frazeologik birliklar hosil qilish.

Kanselyarizm – qo‘llanilishi rasmiy ish, idora va muassasa faoliyati uslubiga xoslangan so‘z, turg‘un birikma, grammatik shakl va tuzilma.

Kauzativ – harakatning bajarilishi uchun sabab, qo‘zg‘ash ma’nosiga egalik.

Kompozisiya (lot. composito – tuzish) -so‘z qo‘shish, qo‘shma so‘zlar.

Komponet (lot. componens –tashkil etuvchi) - ma’lum bir til birligining tarkibiy qismi. So‘z birikmasining komponentlari.

Konversiya (lot. conversion – aylanish, o'zgarish) –soʻzning fonetik va morfologik jihatdan o'zgarmay, bir soʻz turkumidan boshqa bir soʻz turkumiga o'tishi, shu yo'l bilan yangi soʻz hosil bo'lishi.

Korrelyatsiya (lot. correlatio – aloqa, munosabat) –ilkki yoki undan ziyod til birligining o'zaro bog'liqligi.

Leksema (yun. lexis – ibora, nutq o'rami) –tilning lugʻat tarkibiga xos birlik.

Leksika (yun. lexikos – soʻzga oid, lugʻaviy) –tilning lugʻat tarkibi. Lugʻat tarkibining qo'llanish sohasi, uslubiy sohasi va kelib chiqishi kabi turli jihatlardan yondoshib ajratiladigan guruhlar. *Ijtimoiy – siyosiy leksika. Ekspressiv leksika.*

Leksik antonimiya. Lugʻaviy birliklar (soʻzlar) orasidagi antonimiya.

Leksik antonimlar. Qarama –qarshi (aks, zid) ma'nodagi soʻzlar.

Leksik kalka. O'zga til lugʻaviy birligidan qismma–qism nusxa olish yo'li bilan hosil qilingan soʻz.

Leksikografiya (yun.lexikos – lugʻat, grapho – yozmoq). Lugʻatshunoslik ta'limoti.

Leksikologiya (yun.lexikos – lugʻatga, soʻzga oid, logos – ta'limot). Tilshunoslikning tilning lugʻat tarkibini o'rganuvchi bo'limi (tarixiy leksikologiya, tasviriy leksikologiya, qiyosiy leksikologiya).

Leksik omonimiya. Leksik birliklar orasidagi omonimiya.

Leksik sinonimiya. Lugʻaviy birliklar orasidagi sinonimiya.

Lingvistika (fran. linguistique, lot. lingua – til). Tilshunoslik fani.

Lingvistik tahlil. Til, nutk birliklarini, uni tashkil etuvchi qismlari, mazmuni, ma'nosi, mohiyati, vazifasi va boshqa xususiyatlari nuqtai nazaridan o'rganish, tadqiq etish (leksikologik, frazeologik, semasiologik, semantik, fonetik, imloviy, orfoepik, morfologik, struktur, sintaktik, kognitiv, punktuation, uslubiy, etimologik, etnografik va b. turdagi taxlil).

Lingvistik universalিয়া. Barcha tillar uchun umumiy bo'lgan til hodisa.

Matematik lingvistika. Lingvistika mua'momlari va masalalarini matematik usul va metodlar (askariyat matematik statistika, ehtimollik nazariyasi, maydon nazariyasi va b.) yordamida tadqiq etish fani, o'rganuvchi sohasi.

Matn. Yozuv orqali eks ettirilgan manba, nutq, tekst, xat, ma'lumot, xabar va b.

Maxsus leksika. Ijtimoiy – siyosiy faoliyatning turli sohalariга tegishli narsa yoki hodisalarni nomlovchi soʻzlar.

Mahsulli affikslar. Soʻz yasash vazifasini to'xtatmagan, oz yoki ko'p miqdorda soʻz yasash uchun xizmat qilayotgan affikslar.

Morfema. Tilning ma'noli, boshqa ma'noli qismga bo'linishi mumkin bo'lmagan eng kichik qismi, birligi (leksik morfema va affiksial morfema. M: “haydovchi” soʻzida “haydov” – leksik morfema, “–chi” affiksial morfema.)

Morfologiya. (yun. morphe – shakl, logos – ta'limot). 1. Soʻz shakllari haqidagi grammatik ta'limot. 2. Tilning morfologik qurilishi.

Nolisoniy omillar. Til taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektiv voqealikka doir shart – sharoitlar (til qonuniyatlari bundan istisno).

Normativ grammatika. Soʻz shakllari va sintaktik qurilish modellarining me'yor talablariga javob berishini belgilovchi grammatika.

Ominimika. Omonimlarni o'rganuvchi soha. Omonimlar majmui.

Omonimiya. Birdan ortiq til birligining talaffuz va yozilishi jihatidan bir xil bo'lish hodisasi (leksik omonimiya, frazeologik omonimiya, grammatik omonimiya va b.).

Omonimlar. (yun. homos – bir xil, onyma – nom). Yozilishi yoki talaffuzi bir xil birdan ortiq soʻzlar o't – (maysa, olov, o'tmoq va b.).

Onomasiologiya. Leksikologiyani lugʻaviy birliklarini nomlash va tushuncha anglatish tamoillari va qonuniyatlarini o'rganuvchi bo'limi.

Ot. Predmetlik ma'nosini bildiruvchi soʻzlar turkumi va shu turkumga oid muayyan soʻz. Predmetlik keng tushunchalarni qamrab oladi (inson, narsa, hodisa va b.). Otlar ma'no jihatidan va ifodalaydigan tushunchaning xususiyatlariga ko'ra atoqli ot, turdosh ot, aniq ot, mavhum ot, yakka ot, jamlovchi ot va b. turlarga bo'linadi.

Paradigma (yun. paradeigma – misol, namuna). Til birliklari, grammatik shakllarning umumiy ma'nosiga ko'ra birlashuvchi, xususiy ma'nosiga ko'ra farqlanuvchi bo'limi, tizimi.

Paradigmatika. Til birliklarini til tizimiga mansub paradigmalarning unsuri sifatida tekshirish aspekti.

Paralingvistika. Lingvistikaning o'zaro aloqa aralashuvida imo – ishora, mimika, nutq vaziyati kabi omillarni o'rganuvchi soha.

Paronimiya. Fonetik tuzilishi boshqa – boshqa so'zlarning talaffuzi o'xshash va yaqin bo'lish hodisasi.

Predikativlik. Gap mazmunining voqealikka munosabatini til vositalari bilan ifodalanishi. Zamon, shaxs son va modallik kategoriyalari predikativlikni ifodalovchi grammatik vositalar bo'lib, xabar ohangi bilan birga gapning umumiy xarakterli belgilari hisoblanadi.

Reduplikatsiya (lot. reduplicatio – ikkilanish). Tilshunoslikda ma'lum bir so'zni takror shaklda qo'llash. 2. Ma'lum bir ma'noni ta'kidlash, alohida ko'rsatish, ifodalash maqsadida takror so'z yasash yoki hosil qilish usuli.

Rema. Gapning aktual bo'linishida temadan so'ng yangi xabarni, ma'lumotni bildiradigan qism.

Segment (lot. segmentum – qirqim, bo'lak). Nutqning fonetik jihatdan bo'laklarga (qirqimlarga) bo'linishi natijasida hosil bo'lgan bo'lak.

Sema (yun. sema – belgi). Leksik ma'noni tashkil etuvchi komponent (bo'lak, qismlar). Umumiy sema. Farqlovchi sema.

Semantika (fran. sementique, sementikos – ifoda etuvchi). Til birliklarining mazmun, ma'no tomoni.

Semantik kalka. O'zga tilga oid so'zlar bildiradigan ma'noni o'zlashtirish natijasida o'z tilidagi so'zga shu ma'noning berilishi.

Semantik maydon. Ma'lum bir arxisistema asosida birlashuvchi so'z va iboralar majmui.

Semantik so'z. Semasiologiyaning o'rganish, tadqiq etish ob'ekti sifatida qabul qilingan so'z.

Semasiologik tahlil. Lug'aviy birliklarning semantikasi va u bilan aloqador bo'lgan hodisalar nuqtai -nazaridan olib boriladigan tahlil.

Semasiologiya (yun. semasia – ifoda etish, logos – fan, ta'limot, tushuncha). Til birliklarining, lug'aviy birliklarning semantik tuzilishi va u bilan bog'liq masalalarni o'rganuvchi soha.

Semiologiya (yun. sema – belgi, logos – tushuncha, ta'limot). Ayn. semiotika.

Semiotika (yun. semiotike – belgi). Belgilar, ramzlar tizimining umumiy xususiyatlarini tadqiq etuvchi fan.

Sermahsul affikslar. Ko'p miqdorda so'z yasaydigan, hozirgi so'z yasashda faol bo'lgan affikslar (– chi, –li, –la, – dor, –don va b.).

Sinonimika. 1. Tilshunoslikning sinonimlarni o'rganuvchi bo'limi, sohasi. 2. Sinonimlar majmui.

Sinonimiya (yun. synonymia – bir xil nomga egalik). Til birliklarining bir xil denotativ ma'noga ega bo'lishi.

Sinonimlar (yun. synonymos – bir nomli). Bir umumiy ma'noga ega bo'lgan, ammo qo'shimcha ma'no xususiyatlari, uslubiy bo'yog'i, qo'llanishi va sh.k. bilan farqlanadigan so'zlar.

Sintagma (yun. syntagma – birlashgan narsa). Nutqning mazmun va melodik jihatdan bir butunlikni tashkil etuvchi semantik – sintaktik birligi. Sintagma bir yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lishi, hatto gapga teng bo'lishi ham mumkin.

Sintagmatika. Til birliklarini nutq zanjiridagi unsurlar sifatida tekshirish aspekti.

Sintagmatik grammatika. So'z, so'z birikmasi, gaplarni sintagmatik planda o'rganuvchi grammatika.

Sintagmatik munosabatlar. Til birliklarining nutq oqimida yuz beradigan xususiyatlari asosidagi munosabatlari.

Sinxroniya (yug. syn – birga, chromos – vaqt). Ayrim til hodisalarining yaxlitligicha til tizimining ma'lum bir tarixiy rivojlanish bosqichidagi holatini lingvistik tadqiqot sifatida shartli ajratib olish.

Sistema (yun. systema – bir butunlik, qismlardan tuzilgan, tashkil topgan majmua).

Situatsiya (fran. situation – sharoit, holat, vaziyat). Nutq yoki matn yuz berayotganda unga ta'sir etuvchi sharoit.

Sotsiolingvistika (lot. soci (etas) – jamiyat plus lingvistika). Tilshunoslikning tilning ijtimoiy yashashi va taraqqiyot sharoitlarini o'rganuvchi sohasi.

Substitutsiya (lot. Substitution – almashtirib qo'yish) Transformatsiyaning bir usuli.

Substrat (lot. sub stratum – tillarning chatishishi natijasida bir tilning boshqa tilda qoldirgan izlari).

Termin (lot. terminus - chek, chegara, chegara belgisi). Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so'z yoki so'z birikmasi. Terminlar bir ma'noli bo'lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo'lmasligi kabi belgilari bilan ham umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadi.

Terminologik leksika. Terminlardan iborat bo'lgan leksika.

Terminologiya (termin +logos – so'z, ta'limot). Biror ilm, kasb va b. sohalarga oid terminlar majmui. Tilshunoslikning terminlarni o'rganuvchi, tadqiq etuvchi bo'limi.

Transformasion tahlil. Turli – tuman sintaktik tuzilmalarni qayta tuzib, sodda tuzilmalarga keltirish metodi, uslubi va qoidalari.

Uslubiy sinonimlar. Ma'lum bir uslubga oidligi bilan o'zaro farqlanadigan sinonimlar.

Uslubiy tahlil. Matnning, uning qismlarining nutq uslublaridan qaysi biriga tegishligi, bu oidlikni belgilovchi omillar va shu kabilarni belgilash nuqtai nazaridan olib boriladigan tahlil.

Fraza (yun. phrasis – ifoda nutq o'rami). 1. Nutqning aloqa qilish birligi sifatidagi eng kichik mustaqil birligi. 2.Eng katta fonetik birlik – fikr tugalligiga ega, alohida ohang yordamida birlashgan va o'ziga o'xshash birliklardan to'xtam orqali ajratilgan jumla.

Frazeologik kalka. O'zga til frazeologik birligidan qismma – qism nusxa olish yo'li bilan hosil qilingan frazeologik birlik.

Funksional semantika. So'z semantikasining o'zgarishini ular anglatgan narsalarning bir xil vazifa bajarishi bilan izohlovchi nazariya.

Shtamp (ital.stampa – muhr). Lug'aviy ma'nosi xiralashgan, ekspressivlik xususiyati yo'qolgan, tilda yoki nutqda o'zgarmas qolip shakliga kelgan ifoda.

Ekspressivlik. Til ekspressiv vazifasining turli shakllar bilan namoyon bo'lishi.

Ekspressiya (lot. expressio – ifoda). Nutqning, matnning ta'sirchanlik xususiyati.

Etimologiya (yun.etymologia – so'zning haqiqiy ma'nosi). So'z va morfemlarni kelib chiqishi va tarixini o'rganuvchi fan, soha. 2. So'z yoki morfemalarning kelib chiqishi va tarixi.

Etnolingvistika. Til bilan ma'lum bir millat, elat, xalq o'rtasidagi munosabatlarni, tilning faoliyati va taraqqiyotida lingvistik va etnik omillarning o'zaro ta'sirini o'rganuvchi fan.

O'zlashma so'z. O'zga tildan qabul qilingan so'z.

O'zlashtirish. O'zaro ta'sir, aloqa natijasida bir til unsurlarining boshqa bir tilga o'tishi.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT



Nosirova Saodat Abdullaevna – 30.04.1978. O'zbek.

1995 yil Buxoro davlat universitetining roman – german tillari fakulteti ingliz filologiyasida tahsil olgan;

1996-1999 y. XXRning Pekin ikkinchi chet tillar instituti xitoy filologiyasining bakalavriatura bosqichida tahsil olgan;

2001 y. Toshkent davlat sharqshunoslik institutining bakalavriatura yo'nalishi xitoy filologiyasi fakulteti (kunduzgi)ni tugatgan.

2003 yil Toshkent davlat sharqshunoslik institutining magistratura yo'nalishi lingvistika (kunduzgi)ni tugatgan.

2006 yil Toshkent davlat sharqshunoslik institutining aspirantura (10-02-22 – Osiyo, Afrika, Amerika va Avstraliya tub xalqlari tillari) yo'nalishi (kunduzgi)ni tugatgan.

2000-2004 y. O'zbekiston davlat teleradiokompaniyasining “Osiyo” bosh boshqarmasining xorijiy davlatlarga eshittirishlar bo'limida xitoy tili suxondoni vazifasida ishlagan;

2003 yildan to hozirgi kunga qadar Toshkent davlat sharqshunoslik institutining xitoy filologiyasi kafedrasida ishlaydi. Kafedra mudiri (2010 yil). USh va JOT fakulteti dekani (2012 y.)

Filologiya fanlari nomzodi (2008 yil).

Katta o'qituvchi (2008 yil).

Nomzodlik dissertatsiyasi: “Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminologiyasining leksik – semantik va struktur tahlili”. (10.02.22.)

Ilmiy faoliyat yo'nalishi: tilshunoslik (xitoy tili).

Ilmiy-uslubiy ishlari:

- **Uslubiy –qo'llanma:**

1. O'zbekcha-xitoycha-ruscha diplomatik terminlar lug'ati. // XXR, Xeylongdzyang nashriyoti. 2004 yil. 328 bet.
2. O'zbekcha-xitoycha so'zlashgich. // Alisher Navoyi nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent. 2010 yil. 188 b.
3. Xitoy tili grammatikasi. Hammualliflikda. Toshkent, 2011 yil. 250 b.
4. Xitoy tili darsligi. Toshkent, 2013 yil. 280 b.

- **Ilmiy jurnallar, konferensiya ilmiy to'plamlarida, gazeta va jurnallarda chop etilgan ilmiy va uslubiy maqolalar soni:** 50dan ortiq

MUNDARIJA

1. Kirish.....	3
2. Xitoy tilining tarixiy davrlarga bo‘linishi.....	4
3. Venyanda yozilgan qomusiy yodgorliklar.....	8
4. Qadimgi xitoy tilining leksik tuzilishi.....	15
5. Venyanda polisemiya hodisasi.....	19
6. Venyan tilida murojaat shakllarida 多义词.....	24
7. Qadimgi xitoy tilida mustaqil so‘z turkumlari.....	26
8. Qadimgi xitoy tilida yordamchi so‘z turkumlari.....	31
9. Xitoy tilida ko‘p talaffuzli iyerogliflar.....	40
10. Talaffuzi har xil, ma’nosi ham har xil iyerogliflarga tahlil.....	42
11. Talaffuzi har xil ma’nolari bir xil yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan iyerogliflarning tahlili.....	48
12. Xulosalar.....	53
13. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.....	57
14. Glossariy.....	59
15. Muallif haqida.....	63